

Ne'matulla Elmurodov

# O'QITUVCHINING NUTQ MADANIYATI

**Darslik**

*O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan*

Samarqand – 2004

Elmurodov N. **O‘qituvchining nutq madaniyati**. Darslik.  
– Samarqand: SamDU nashri, 2004, 140 bet.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining barcha ta’lim yo‘nalishlaridagi 3-4-kurs talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining predmeti va vazifalari, nutq madaniyati tarixidan, adabiy til va nutq madaniyati, uslub, me‘yor, nutq madaniyatining aloqaviy fazilatlarini kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

Shuningdek, darslikdan boshqa o‘quv yurtlarining talabalarini ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari doktori,  
professor **I.Mirzayev**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,  
professor **Yo.Tojiyev**,  
filologiya fanlari doktori,  
professor **M.Abdiyev**,  
filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent **T.Jo‘rayev**

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim sohasida, hayot talabidan kelib chiqqan holda, keskin o‘zgarishlar-kengqamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan “Ta’lim to‘g‘risida” (1997-yil), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997-yil) to‘g‘risida Qonunlar hamda ko‘pgina boshqa qarorlar qabul qilindi. Ushbu qonun va qarorlarga muvofiq o‘quvchi va talabalarning nutq madaniyati asoslarini egallashi talab etiladi. Shu maqsadda oliy o‘quv yurtlari rejalariga “O‘qituvchining nutq madaniyati”, “Ritorika” hamda “O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari” fanlari, o‘rta va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘quv rejalariga esa “Ifodali o‘qish va nutq” fani majburiy o‘quv fanlari sifatida kiritildi. Zero, maktab va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘langan tushunchalardir.

Ma’lumki, kishining madaniyatligi uning nutq madaniyatini qay darajada egallaganligi bilan ham o‘lchanadi. Nutq madaniyati esa so‘zga boy bo‘lish va undan nutq vaziyati mazmuni va maqsadiga muvofiq o‘rinli foydalanish, adabiy talaffuz va uslubiya me’yorlariga, tilning sofliigi va to‘g‘riligiga qat’iy rioya qilish bilan to‘laqonli bo‘ladi.

Hozirgi kunda nutq so‘zlash doirasi (radio, televideniye, ta’lim tizimi va anjumanlardagi ma’ruzalar hamda turli xarakterdagi yig‘inlardagi nutqlar) tobora kengayib borayotganligi har bir notiqdan adabiy til me’yorlariga amal qilishni talab qiladi. Bunga esa uzoq vaqt qunt bilan mehnat qilish bilangina erishish mumkin. Binobarin, “O‘qituvchining nutq madaniyati” fani shu masalalarni ma’lum darajada hal qilib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Talabalar hukmiga havola etilayotgan darslik muallifning uzoq yillari Qarshi va Samarqand Davlat universitetlari filologik va nofilologik fakultetlari talabalariga “Nutq madaniyati asoslari” hamda “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanlaridan o‘qigan ma’ruzalari hamda shu fanlar bo‘yicha e’lon qilingan o‘quv dastur, qo‘llanma va darsliklar asosida yuzaga keldi.

Bunda birinchi navbatda, O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti mutaxassislari (prof.Yo.Tojiyev va dos.U.Sultonovlar) tomonidan tuzilgan namunaviy dastur (universitet ta’limi uchun o‘zbek filologiyasi mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv dasturlari. –T.: Universitet, 1997) hamda Samarqand davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi (prof.S.Karimov va dos.T.Jumayevlar) tuzgan o‘quv dasturi (“O‘zbek nutqi madaniyati”dan o‘quv dasturi. –S.: SamDU, 1998) inobatga olindi.

Klassiklarning, ajdodlarimizning til, jamiyat, milliy til, tilning ijtimoiy mohiyati, ahamiyati, o‘rni va vazifalari haqidagi fikrlari nutq madaniyatining metodologik asoslaridir. Jumladan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘oariy, Ahmad Yassaviy, Mahmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning adabiy til, til odobi borasidagi mulohazalari ushbu kitobning vujudga kelishida asqatdi.

O‘zbekiston hukumatining til siyosati, xususan, “Davlat tili haqida”gi Qonun, ona tili va adabiyotini o‘qitish konsepsiyalari o‘zbek tilining rivojlanishida muhim omil vazifasini o‘taydi.

Darslikning yaratilishida Respublika Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyatga doir asarlari, nutq madaniyati fanining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari – o‘zbek filologlaridan A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, X.Doniyorov, Ye.Begmatov, B.O‘rinboyev, Yo.Tojiyev, Ye.Qilichev, B.Yo‘ldoshev, S.Karimov, H.Rustamov, T.Qudratovlar, rus tilshunos o‘limlaridan I.A.Boduen de Kurtene, V.I.Chernishev, L.V.Shcherba, G.O.Vinokur, B.V.Tomashevskiy, V.V.Vinogradov, S.I.Ojegov, A.N.Gvozdev, A.I.Yefimov, B.N.Golovin, V.G.Kostomarov, L.I.Skvorsov kabilarning maqola, qo‘llanma va darsliklari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Darslik “So‘z boshi”, “Kirish”, “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining maqsad va vazifalari, “Nutq madaniyati tarixidan”, “Adabiy til va nutq madaniyati”, “Nutq madaniyati va me‘yor”, “Nutq madaniyati va uslubiyat”, “Nutq madaniyatining asosiy tamoyillari – nutqning aloqaviy sifatлари”, “Ilmiy muomila

va ta'lim jarayonida nutq madaniyati", "O'zbek tilining tasviriy vositalari va nutq madaniyati", "Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasi", "Nutq vositalari. Ovozdan foydalanish va nutq texnikasi", "Badiiy so'z ustalari til va nutq odobi haqida" kabi boblardan iborat. Shuningdek, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga mo'ljallangan rejalar, tavsiya etiladigan zaruriy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati hamda tayanch so'z va iboralar ilova qilingan. Ilovada "O'qituvchining nutq madaniyati" fani bo'yicha bibliografik ko'rsatkich ham tavsiya etilgan.

Ta'kidlash joizki, mazkur darslikda jahon filologiyasida so'nggi vaqtlarda erishilgan yutuqlar sintezlashgan holda o'z ifodasini topgan. Darslik universitet va institutlar talabalariga mo'ljallangan bo'lsa-da, undan ta'lim tizimidagi boshqa o'quv yurtlari talaba va o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin. Shuningdek, ushbu kitobdan nutq madaniyati masalalari bilan qiziqadigan har bir shaxs o'zi uchun kerakli ma'naviy ozuqa oladi, degan umiddamiz.

Shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, ushbu darslik ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi shubhasizdir. Shu bois darslikning tuzilishi va mazmuni sifatini ko'tarish bo'yicha bildirilgan barcha beg'araz taklif va istaklarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

## “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining maqsad va vazifalari

“O‘qituvchining nutq madaniyati” fani o‘zbek filologiyasining o‘ziga xos sohasidir. To‘g‘ri, adabiyotlarda ushbu fanni tilshunoslik fanining bir qismi sifatida talqin qilishlar ham uchraydi [Golovin 1988: 9]. Yoki nutq madaniyati keng ma‘noda tushunilib, lisoniy belgilar ustivorlik qilgan ta‘riflarga ham duch kelamiz, masalan: 1) tildagi mavjud til hodisasining nomi; 2) til madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning nomi; 3) madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo‘lgan aniq me‘yoriy tasavvurlarning nomi; 4) tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot obyekti bo‘lgan nutq madaniyati va u haqidagi mavjud ilmiy tasavvurlarning nomi; 5) nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilinadi [Кўнғуров ва б. 1992: 20]. Aslida nutq madaniyati nafaqat lingvistik muammolarni, shuningdek, adabiyot va uslubiyatga oid lingvistik muammolarni o‘z ichiga oladi: unda umumfilologik muammolar qamrab olingan.

“O‘qituvchining nutq madaniyati” ham, boshqa fanlar singari, fan sifatida o‘z tekshirish obyekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me‘yorlari va nutqning aloqaviy xususiyatlaridir.

Nutq madaniyati nazariyasida til me‘yori (normasi) markaziy tushunchadir. “Til madaniyatining asosiy tekshirish obyekti adabiy til me‘yorlari, asosiy vazifasi esa ushbu me‘yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo‘lmog‘i kerak” [Язык и стиль 1965: 43].

Binobarin, “O‘qituvchining nutq madaniyati” fani adabiy til me‘yorlarini, uning tarixiyliigi, taraqqiy etib borishi, undagi ba‘zi unsurlarning eskirishi, ular o‘rnida jamiyatning yangicha talablariga javob beradigan yangi me‘yoriy unsurlarning paydo bo‘lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Har bir davr adabiy tilining o‘z me‘yorlari bo‘ladi. Ba‘zi bir hodisalar uzoq davrlar me‘yor sifatida qo‘llanilib kelishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy ijod qilgan XV asrda o‘zbek adabiy tilining o‘z me‘yorlari mavjud edi, ularga ko‘ra, til birliklaridan foydalanishning o‘z me‘yori bo‘lgan. Bu adabiy me‘yorlarning jiddiy o‘zgarishlarga uchramasdan badiiy adabiyot tilida XIX asr oxirlarigacha amal qilib keldi [Кудратов 1993: 16].

Ko‘rinadiki, har bir davr nutq madaniyatining o‘ziga xos fonetik, grammatik va uslubiy me‘yorlari bo‘lar ekan, barcha davrlarda, uning filologik fanlari qatori, boshqa ko‘pgina tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqasi sezilib turadi.

Chunonchi, fonetika nutq organlarining tovush hosil qilish paytida harakati va holati – artikulyasiyasini, tovush o‘zgarishi qonuniyatlarini, uning intonasiyasi kabi masalalarni tekshirsa, nutq madaniyatining muhim tarmog‘i – fonetik stilistika (uslubiyat) esa tovushlarning bir-biriga bog‘lanishining ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini, ya‘ni nutq tovushlarining tilning ta‘sirchan vositasi bo‘lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o‘rganadi.

Leksikologiya tilning lug‘at tarkibini, uning tarixiy qatamlari, boyib borishi va taraqqiyot yo‘llarini, so‘zni, uning ma‘nosini, qo‘llanishi kabi masalalarni o‘rgansa, leksik uslubiyat esa so‘z ishlatish va so‘zdan foydalanish qonuniyatlarini, so‘z yoki so‘z birikmalarining ta‘sirchan tomonini tadqiq qiladi.

Grammatika gapda so‘zlarning o‘zgarishi va birikishi, so‘z shakllari va gap qurilishi kabi hodisalarning umumiy qoidalarini belgilab bersa, nutq madaniyatining zaruriy unsurlaridan biri bo‘lgan grammatik uslubiyat fikrni ravshan va aniq qilib bera olishda grammatikaning umumiy qoidalaridan maqsadga muvofiq foydalanadi [Шомақсудов ва б. 1983: 7-9].

Rus tilshunosligida ham shu qabildagi fikrlar talaygina. Chunonchi, til birliklarining ma‘lum bir til uchun belgilangan orfoepik, so‘z qo‘llash va boshqa me‘yorlariga mos tushishi darajasi mavjudligi; har bir individual nutqda tilning eng yaxshi namunalariga rioya qila bilish zarurligi uqtiriladi [Ахманова 1969: 385].

Shuningdek, bu masalada tilning jamiyatda tutgan ijtimoiy ahamiyatiga alohida urg'u beriladi. Bunda nutq madaniyati masalalari ikki nuqtai nazardan qaralmog'i darkor. Birinchidan, adabiy savodxonlikning kamchiliklari haqida guvohlik beruvchi ijtimoiy – lisoniy holatlar tahlili. Shu bilan birga milliy adabiy-lisoniy me'yordan chekinishlarni o'rganish har bir jamiyat ijtimoiy qobig'idagi, birinchi navbatda, uning ziyolilari tarkibidagi o'zgarishlar tadqiqidan ajralgan holda qaralmasligi kerak. Bunda adabiy-lisoniy me'yorni xaspo'shlaydigan va buzadigan turli-tuman sabab va manbalarni aniqlay bilish o'ta muhimdir. Agar ushbu jarayon ham me'yoriy-uslubiy, ham ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan turib olib borilsagina, savodsizlikning yoki yetarlicha adabiy savodxonlikni bo'lmaslikning barcha ko'rinishlarini bartaraf etish mumkin.

Ikkinchidan, har qanday ommaviy nutq nafaqat to'g'ri, balki ifodali ham bo'lishi shart. Har xil til vositalarini erkin va ijodiy qo'llash nutq uslublarini chuqur bilishga va ularni qo'llay olishga hamda ularning o'zaro ta'siri qonun va qoidalarini to'g'ri tushuna bilishlikka asoslanadi [Виноградов 1981: 171].

Bizning davrimizga kelib o'zbek adabiy tili me'yorlari jiddiy yangilandi: so'z qo'llash, grammatika, talaffuz me'yorlari xalq jonli tili xususiyatlari asosida o'zgardi. Shunga qaramasdan, tarixiy shakllangan an'anaviy til hodisalaridan ba'zilari hozir ham ijtimoiy hayotimizda amal qilib kelmoqda.

Mazkur fan yoshlarimizda, jumladan, bo'lg'usi o'qituvchilarimizda chiroyli so'zlash ko'nikmalarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu esa muntazam uzoq mehnatni talab etadi, ya'ni ham o'qituvchi, ham o'quvchi (talaba) o'zida nutq madaniyatining malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga muttasil intilib borishini talab etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan muammolar faqat nutqqa aloqador bo'lib qolmasdan, tilning barcha darajalari va kategoriyalariga ham taalluqlidir. Binobarin, til madaniyatining katta ahamiyatini faqat professional aspektda emas, balki umumiy sosial aspektda ham ko'rishimiz mumkin. M.V.Lomonosov ayrim kishilarning o'z ona tillarida fikr va tuyg'ularini ifodalash



jarayonida qiynalغانliklarini o‘z ona tillarini “mukammal emas” (“yetuk emas”) deb ayblanganliklarini qoralab, bunda ularni o‘z ona tillarini qoniqarsiz darajada bilishda, deb baholaydi.

Til va nutqda milliy va baynalminal masalalar ham markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Har qanday til, ayniqsa, yuksak madaniy an‘analarga ega bo‘lgan til o‘zining chuqur milliy xususiyatini saqlaydi. Shunday tillar sirasiga eng qadimiy tillardan bo‘lgan ona tilimiz – o‘zbek tili ham kiradi. Shu bilan birga har xil tillar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Har qanday o‘zlashmani, har bir tilning u yoki bu betakror milliy o‘ziga xoslikni fikr qiladigan filologning nuqtai nazari ushbu munosabat bilan belgilanishi kerak. Ma’lumki, son jihatdan katta va kichik elatlar teng huquqlilik, bir-biri bilan uzviy bog‘langan ikki xususiyatga asoslanadi: 1) o‘z milliy madaniyatini, o‘z ona tilini rivojlantirish uchun keng huquq va imkoniyatlar va 2) jahon madaniyati yutuqlaridan bahramand bo‘lishda ham aynan shu huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lish. Shu ma’noda bu o‘z ona tiliga ziyon yetkazmagan holda, balki uni boyitib va rivojlantirib, dunyo tillaridan birini egallashni taqozo qiladi. MDH davlatlarida ushbu vazifani o‘zining ijtimoiy vazifalari bo‘yicha jahon tillaridan biriga aylangan rus tili mamlakatlararo muomala tiliga aylandi. Keyingi holat kishi shaxsining ma’naviy shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunda kishi jamiyatdan olgan tajribasiga ko‘ra, uning shaxs sifatida shakllanishi darajasi turlicha bo‘ladi [Мечковская и др. 1983: 365]. Binobarin, ushbu tafovut kishilarning umummadaniyati, jumladan, nutq madaniyatida ham o‘z ifodasini topadi. Hozirgi vaqtda rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, asosan, ularning me’yorlashgan adabiy tillari doirasida sodir bo‘lmoqda. Bunda ushbu aloqalar ularning egalari o‘rtasidagi bevosita kontaktlar yordamida bo‘lmasdan, balki bu tillarning yozma yoki og‘zaki shakllarida distant holatda amalga oshmoqda. Keyingi holatda radio, televideniye, kino, internet va boshqa texnikaviy vositalarning o‘rni beqiyosdir [Сталтмане и др. 1981: 130].

Ayni chog‘da nutq madaniyati pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq, tarix, fiziologiya kabi fanlar bilan ham uzviy aloqadordir. Bu haqda keyingi boblarning birida so‘z yuritamiz.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. “O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining o‘rganish obyektini tushuntirib bering.
2. Nutq madaniyati deyilganda nimani tushunasiz?
3. Nutq madaniyati fani qaysi fanlar bilan uzviy aloqada?

### **NUTQ MADANIYATI TARIXIDAN**

“O‘qituvchining nutq madaniyati” fanining predmeti, har qanday fan singari, shu fanning tarixi bilan uzviy bog‘langandir. Chunki har qanday “Fanning tarixisiz fanning nazariyasi ham yo‘q va fanning nazariyasisiz uning tarixi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas” [Чернышевский 1949: 265-266].

Shunday ekan, nutq madaniyatining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi.

Nutq madaniyati masalalari dastlab og‘zaki ijrochilik, ifodali o‘qish, so‘ngra notiqlik san‘atiga borib taqaladi. Biz bu o‘rinda o‘tmishda Sharq va Yevropa hamda hozirgi paytda notiqlik san‘atining ko‘zga ko‘ringan ba‘zi yo‘nalishlari va vakillari to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

**1. Og‘zaki ijrochilik va ifodali o‘qish tarixidan.** Badiiy adabiyot paydo bo‘lishi bilan uning ifodali o‘qilishi, og‘zaki ijrochiligi ham maydonga keldi. Badiiy so‘z san‘atkori xalq o‘rtasida ijodkor emas, balki ijrochi sifatida ko‘proq e‘tiborga ega bo‘lgan. Masalan, Markaziy Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda ularning asarlarini majlis – anjumanlarda, xalq orasida ijro etuvchi san‘atkorlar – roviylar toifasi paydo bo‘ldi.

Roviylik va roviylar haqida tarixiy manbalarda qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, Nizom Arzu Samarqandiyning

ma'lumotiga qaraganda, Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"ni ijod etgach, Ali Daylam unga xattotlik, Abdulaf esa roviylik qilgan.

Roviylar – badiiy o'qish ustalari bo'lib xaloyiq o'rtasida Rudakiy, Daqiqiy, Shohid Balxiy, Abdushukur Balxiy va boshqa o'zlariga zamondosh hamda o'tmish shoirlari she'rlarini maxsus ohang bilan o'qirdilar. Xususan, Rudakiyning yoqimli she'rlari ularning og'zidan tushmas edi.

Ko'rinadiki, qadimgi badiiy so'z ijrochiligining butun bir yo'nalishi, o'ziga xos maktabni tashkil etuvchi roviylar toifasi katta shon-shuhratga va ijtimoiy mavqeyga ega bo'lgan.

Biroq, jamiyat taraqqiy qilishi bilan roviylik tarmoqlanib, XV asrga kelganda mustaqil badiiy ijrochilik ko'rinishlari va ularga mansub ijrochilar toifasi voyaga yeta boshladi. Chunonchi, she'riyat sultoni, millatimiz ko'rki – Alisher Navoiy XV asrga kelib badiiy so'z ijrochiligi san'atining voizlik (notiqlik), qissaxonlik, badihago'ylik, bazlago'ylik (latifago'ylik), dostonxonlik, qasidaxonlik, g'azalxonlik san'ati shakllanib yetganligi haqida mufassal ma'lumot beradi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" hamda Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul-haqoyiq" asarlarida til odobiga bag'ishlangan maxsus boblar ajratilgan [Маллаев 1976: 116, 144].

**2. Xalq og'zaki ijodida nutq madaniyati.** XI asrning ulug' mutafakkiri Mahmud Qoshg'ariy o'zining qomusiy asari "Devonu lug'ot it-turk"da ko'plab adabiy parchalar keltiradi.

Ularning aksariyati xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, maqollardir. Bunda kam so'zlash, oz so'z bilan ko'p ma'no uqtirish insonlarning eng yaxshi fazilati ekanligiga e'tiborni qaratadi. U bu xususda shunday maqol keltiradi: Ko'p so'zni tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib (sindirib) bo'lmaydi [Ковфариий 1963: 27]. Boshqa bir maqolda esa: "Erdam boshi til – eng yaxshi xalqning boshi tildir" [Ковфариий 1963: 147] deyiladi.

"Muallimi soniy" deb nom olgan ulug' bobomiz Abu Nasr Forobiy (873-950) o'z ijodi va faoliyatida "ovoz nutqining tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor bergan. U "Ilmlarning

kelib chiqishi” (“Ихсо ул-улум) nomli asarida badiiy asarni ifodali o‘qish, o‘qiganini hikoya qilib berish zo‘r san‘at ekanligiga urg‘u beradi. Forobiyning yozishicha, hikoyachilik (o‘qish)da o‘ziga munosib o‘rin egallagan kishilar hakim deyiladi va u o‘qishni, notiqlikni egallagan san‘atkor, faylasuf, donishmand bilan tengdir” [Тўхлиев 2006: 16].

Buyuk mutafakkir komil insonlarning nutqqa, undagi har so‘zni tushunishga va tushuntira olish imkoniyatiga ega ekanligini ta‘kidlab, quyidagilarni yozadi: komil inson o‘z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur” [Форобий 1993: 23].

Qadimiy turkiylar ayrim asarlarni o‘qish uslubi tinglovchilarga ta‘sir qilishi muhim tarbiyaviy omil ekanligini ta‘kidlashgan. Jumladan, XI asrgacha bo‘lgan turkiy ta‘lim-tarbiyada asarni alohida, birgalashib va ko‘plashib o‘qishga alohida ahamiyat berishgan [Тўхлиев 1993: 19].

O‘tmishda o‘lkamizda qissaxonlar, roviylar, voizlar jamiyatda alohida nufuzga ega bo‘lishgan. Shohnomaxonlik, yassaviyxonlik, sa‘diyxonlik, hofizxonlik, bedilxonlik, navoiyxonlik, mashrabxonlik yig‘inlari keng tus olgan.

Masjid va madrasalarda nafaqat turkiy tilda, shuningdek, arab va fors tillaridagi badiiy va diniy kitoblarni o‘qish uzluksiz ta‘limda taomilda bo‘lgan. Ayniqsa, Qur‘onni ifodali o‘qish, uning ma‘nolarini anglab yetish; ayrim asarlarning matni, ma‘nosi, har bir so‘zning izohi ustida qunt bilan ishlangan, badiiy asarlarga sharhlar bitish an‘ana tusini olgan [Тўхлиев 2006: 22].

A.Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida o‘quvchini chiroyli yozuvni, yozma nutq malakasini egallashga chorlaydi. U yod olish usulining imkoniyat va afzalliklarini ta‘kidlaydi. Jumladan, Navoiy o‘quvchilarning savodxonligi, ularning dunyoqarashi, nutqlarning ravon bo‘lishi uchun nazmiy hamda nasriy asarlarning o‘qitilishini qayd etadi [Тўхлиев 2006: 26].

Yangi davrda M.Behbudiy, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy, Cho‘lpon kabi shoir va yozuvchilar o‘z ijodi-faoliyatlarida maktab ta‘limiga ham katta e‘tibor berishdi.

Xususan, A.Avloniy “Maktab Gulistoni” darsligida adabiy asarlarni ifodali o‘qishning yakka va ko‘pchilik bo‘lib o‘qish, ifodali o‘qish, dialog va drama holiga keltirish turlarini ko‘rsatadi.

XX asrning 20-40-yillarida maktablar uchun adabiyotdan tuzilgan o‘quv dasturlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishga, asarni ifodali o‘qishga asosiy e‘tibor qaratildi [Тўхлиев 2006: 29-30].

Bu kabi talablar mustaqillik davrida qabul qilingan o‘quv dasturlarida ham o‘z ifodasini topdi. Jumladan, “Dastur talabiga ko‘ra V-VII sinflarda adabiy materialni o‘rganish jarayonida o‘quvchining to‘g‘ri, tez, ravon o‘qish malakasini hosil qilishga og‘zaki va yozma nutqini, bog‘li nutqini ravshanlantirishga, so‘zlarni qo‘llash, so‘z ma‘nosini o‘rganish lozim” [Мирқосимова 2006: 3].

Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz Hiraviy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, Qozi O‘shiy, Mavlono Riyoziy, Bahouddin Valad, Jololiddin Rumiyy kabi so‘z san’atkorlari badiiy so‘z ijrochiligining bu davrda Sharqda mashhur bo‘lgan vakillaridir.

O‘zbek badiiy so‘z ijrochiligi san’atiga xos bo‘lgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga qasidago‘ylik, latifago‘ylik, navhago‘ylik, ertakchilik, kulgili hikoyago‘ylikning taraqqiyoti bu san’atning juda qadimiy va boy tarixga ega ekanligini anglatadi. Shu ma’noda Markaziy. Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o‘qish san’atiga bo‘lgan e‘tibor alohida ijtimoiy mavqie kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek pedagogikasi tajribalari ifodali o‘qishni quyi sinflardan boshlab mashq qilishni va uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu tasodif emas, albatta. Chunki ifodali o‘qish san’ati bolalarning badiiy didini shakllantiribgina qolmay, ularning ma’naviy chiniqishida, xotirasining mustahkamlanishida ham yetakchi o‘rin egallaydi [Орипов ва б. 1994: 5-7].

Ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy she’rni tushunib o‘qishga katta e‘tibor bergan. Buyuk shoir bolalik va yigitlik

paytlaridayoq ellik ming bayt, ya'ni yuz ming misra she'rni yod olgan va ulardan zavqlangan. Bu haqda shoir shunday deydi:

“Bulardan dog'i boshqa yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida ko'prak she'rda sehr soz va nasrda fusun shuaroning shirin ash'ori va rangin adabiyotidan ellik mingdan ortiq yod tutubmen va alar zavq va hushhollig'idan o'zumni ovutubmen” [Навойи 14-т.: 126].

XX asr boshlarida O'zbekistonda ifodali o'qish sahnada ham keng o'rin ola boshladi. H.H.Niyoziy, A.Avloniy, M.Uyg'ur singari yetuk pedagog-rejissyorlar hamda N.Isomiddinxo'jayev, Sh.Inoyatov, X.Yunusov, S.Qori kabi mahoratli yoshlar badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldi. Ular teatr sahnalarida, spektakllar boshlanishidan oldin yoki antrakt paytida parda oldiga chiqib she'rxonlik qilardilar. Bu an'ana hozir ham davom etmoqda.

Madrasa va machitlar qoshidagi eski mahalliy maktablar “usuli qadimiya” o'rniga Hamza, A.Avloniy, S.Ayniy kabi ma'rifatparvarlarning yangi “usuli jadid” maktablari maydonga keldi. Ular yangi usuldagi maktab o'quvchilari uchun “Yengil adabiyot”, “O'qish kitobi”, “Birinchi muallim” singari o'qish kitoblarni yaratgan edilarki, ularda ifodali o'qishga alohida e'tibor berilgan edi.

Maktab va maorif ishlari kun sayin rivojlana bordi. Adabiyotni o'qitish masalalari “Nashri maorif”, “Maorif va o'qituvchi” kabi jurnal sahifalarida tez-tez muhokama etila boshlandi. 1918 yilda yetti yillik maktablar uchun ilk bor adabiy o'qish dasturlari tuzildi. Bu dasturlarda adabiy o'qish, matnlar tanlash, bu matnlar qay yo'sinda o'tilganda bolalarning yozma va og'zaki nutqi masalalarining o'sishiga yordam berishi mumkinligi haqidagi masalalar aks etdi. Mazkur dasturlarda asarlarni ifodali o'qishga alohida ahamiyat berildi.

Keyingi dastur, darslik va qo'llanmalar yanada takomillashtirildi va ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tibor muntazam ortib bordi. Bugungi kunga kelib ifodali o'qish san'atining bolalar bog'chasidan boshlab (deklamasiya) oliy o'quv yurtlarigacha dasturli tarzda mustahkam o'rin egallaganligi

va fanning bu sohasiga oid turli darslik hamda majmua (xrestomatiya)lar yaratilayotganligi ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tiborning yorqin namunasi bo'la oladi.

Har bir asar bog'li yaxlit bir matn sifatida talqin qilinayotgan bir davrda matn ustida ishlashning eng muhim jihatlaridan biri asarni o'qishdir. O'qishning turlari orasida ifodali o'qish, sharhli o'qish, yakka va guruh bo'lib o'qish, rollarga bo'lib o'qish o'quvchi nutqini o'stirishda alohida ma'no kasb etadi.

Shu ma'noda adabiyot darslari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda adabiy o'qish, matnni izohlash, yod olish, qayta hikoyalash, matnning rejasini tuzish, asarning ajratib olingan bir qismi, nomlanmagan asarlar (xususan, klassik adabiyotimizdagi lirik asarlar)ga sarlavha topish, asar muallifi yoki qahramonlariga maktublar yozish, adabiy asar yoki adabiy-tanqidiy maqolalarga taqriz yozish singarilar" muhim o'rin tutadi [Tўхлиев 2006: 142].

O'quvchilarning yozma nutqlarini, ularning biror bir mavzu ustida mushohada qilish qobiliyatlarini o'stirishda diktant, bayon va insholar o'quv jarayonining muhim nuqtalaridandir. Xususan, bayon, o'quvchilarda yozma nutqning to'g'ri ravon, mavzuga mutanosib, ifodaning aniq va haqqoniy, mantiqli, ta'sirchan va boy bo'lishida asosiy omillardandir.

Undan keyingi davrlarda ifodali o'qish bilan birga notiqlik san'ati shakllandi va rivoj topdi. Bu esa nutq madaniyatining jamiyatning boshqa sohalarida ham o'ziga xos ijtimoiy maqomga ega bo'lishligiga olib keldi.

**3. Notiqlik san'ati tarixidan.** Notiqlik san'ati tarixi juda uzoq bo'lib, u eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Bu mamlakatda aristokratiya, demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlari, xalq majlislari, senat kengashlari, sud ishlari va yig'ilishlarda respublikaning har bir ozod kishisi nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylana borgan.

Ushbu ehtiyoj notiqlik san'atining kurtak otishiga sabab bo'ldi. Notiqlik san'atini birinchi bo'lib adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergan kishilar sofistlar ("sofos" grekcha donolik demakdir) bo'lganlar. Ular so'z ustalarining faoliyatlari namunasi sifatida notiqlik san'atining nazariy asoslarini, ya'ni "Ritorika" ilmini yaratdilar [Жалилов 1976: 7].

Ko'rinadiki, notiqlik san'ati ham tarixiy jarayondir. Har bir davr notiqlik minbariga o'z notig'ini chiqaradi. Ushbu san'at ijtimoiy hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladi. Chunonchi, ijtimoiy-siyosiy notiqlik, sud notiqligi, akademik yoki ilmiy notiqlik, diplomat notiqligi, harbiy notiqlik, marosim, urf-odat notiqligi va boshqalar.

Notiqlik san'atining o'ziga xos umumiy qonuniyatlari bor. Masalan, notiq, jumladan, o'qituvchi auditoriya bilan mustahkam aloqada bo'lganida, uning nutqi xalqning o'ylari va maqsadlarini ifoda etgandigina muvaffaqiyatga erisha oladi. Shuningdek, notiqning nutqi subyektiv fazilatlarini bilangina emas, balki nutq so'zlanayotgan obyektiv shart-sharoitlari bilan ham belgilanadi. Madaniy saviya, masalani chuqur bilish va yetarlicha nutq so'zlash malakalari ham notiqning muvaffaqiyatga erishuvini ta'minlaydigan omillardir [Ўринбоев ва б. 1984: 5].

Binobarin, namunali notiq(lik) nutqi deyilganda ko'psonli tinglovchilarga qaratilib, til vositalaridan sifatli va keng qo'llash hamda ovoz balandligini aniq va bir zayilda saqlashga, shunindek, maxsus sintaktik qurilishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan nutq tushuniladi [Ахманова 1969: 387].

Notiqlik san'atining yirik vakili Sitseron bu san'atga katta baho beradi. U ikki xil san'atni – lashkarboshilik va notiqlik san'atini tan oladi.

Notiqlikning nihoyat darajada og'ir va sermashaqqatligi bilan bir qatorda juda sharafligi ekanligini chuqur his qilgan Plutarx ham bu san'atni hayotiy zarurat, deb biladi.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'ldi. Sud jarayonida javobgar shaxs o'ziga qo'yilayotgan aybning asossizligini isbotlab gapirishi, da'vogar esa o'z fikrida qattiq turishi, uni qoralashi lozim edi.



Lekin hamma ham buning uddasidan chiqa olmaydi, chiroyli soʻzlash qobiliyatiga ega boʻlavermasdi.

Bu holat nutq matnlarini yozib beradigan kishilarga ehtiyojni tugʻdirdi va yozma nutq sanʼatini yaxshi egallagan notiqnlarni oʻsha zamon tili bilan “logograflar” deb atay boshladilar [Жалилов 1976: 7].

Logograflar sudga ishi tushgan kishilarning hojatini chiqarib, shundan oladigan qalam haqi evaziga kun kechirganlar. Logografiyaning tirikchilik vositasiga aylanishi notiqlik sanʼatining ravnaq topishida katta rol oʻynaydi.

Notiqlik sanʼatining keng koʻlamda qanot yoyishi esa, oʻz navbatida, uning sud notiqligi, harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi shoxobchalarining paydo boʻlishiga olib keldi. Sudga gapiriladigan chiroyli nutq oʻrmini endilikda aniq qonuniyatga ega boʻlgan sud notiqligi egalladi. Oradan bir oz vaqt oʻtgach, notiqlikning turi epideytik, yaʼni tantanali nutq uslubi paydo boʻldi. Bu davrda notiqlik sanʼati qanchalik tez rivoj topmasin, baribir adabiy faoliyatga qoʻshilmas, chiroyli nutq matnlari esa biror yerda nashr etilmas edi.

Epideytik notiqlikda balandparvoz soʻzlar ishlatilar, shuning uchun ham bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilar edi. Binobarin, logograflar oʻzlaridan oldin oʻtgan salaflarining merosiga ham, xalq ogʻzaki ijodiga ham murojaat eta boshladilar.

Shu tariqa chiroyli soʻzlash sanʼati – notiqlik sanʼati asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning ravnaqida katta rol oʻynadi: tragediya, komediya va roman janrlarining paydo boʻlishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Bundan tashqari notiqlik sanʼatining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik sanʼatining nazariyasidan iborat boʻlgan “Ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab boʻldi. Rimdagi barcha shoir va notiqlar shu maktabdan, yaʼni ritorika maktabidan taʼlim olganlar.

Rimda boʻlganidek, Afina notiqlik maktablarida ham ommaviy nutqlar yetakchi janrlardan hisoblangan. Mazkur ommaviy nutqlar ham dialogik, ham monologik shakllarda boʻlib,

teatr sahnalarida, maydon va olimlar yig'ilishlarida amalga oshgan.

Notiqlar tomonidan yaratilgan nutq matnlari nasriy va poetik ijod namunasi hisoblangan. Bunday ijodkor notiqlarning nomi o'z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan. Bularning sirasiga, birinchi navbatda, Aristotel, Demosfen va Sitseron lar kiradi [Орипов ва б. 1994: 12-13].

**Aristotel (384-322)**. Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lgan Aristotel 17 yoshida o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lgan Platonga shogird tushadi. Keyinchalik u Afinada falsafa maktabini ochib, katta kutubxona tashkil qiladi.

Bu davrda Gresiyada chiroyli so'zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Buning natijasida qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablarda so'z san'ati ustalari yetishtirib chiqarilar edi. Keyinchalik chiroyli so'zlash haqida darsliklar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning "Ritorika" nomli kitobidir.

"Ritorika" uch kitobdan tashkil topgan bo'lib, uning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat bo'lsa, uchinchi kitobida nutq matniga katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli "qorishmalar", ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumlaning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravn va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishini talab qiladi. U notiqning hissiyot bilan so'zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o'ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, shuningdek, ko'rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa, nutqning ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'ymasligi kerakligini ta'kidlaydi [Аристотель 1980].

**Demosfen (384-322)**. Umrini ona – Vatanining gullab yashnashiga bag'ishlagan davlat arbobi va mashhur notiq

Demosfen eramizdan oldingi 384 yili Afinada o'ziga to'q oilada dunyoga keldi.

Bo'lajak notiq besh yoshga to'lganda otasidan ajraladi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi va meros vaqtincha tog'asiga topshiriladi. Tog'asi esa barcha boylklarni qo'lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Demosfen voyaga yetgach, tog'asi unga boylkning faqat bir qismini berib aldaydi. Demosfen tog'asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so'raydi. Biroq, tog'asi bundan bosh tortgandan keyin, u qolgan merosni sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlati qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga ravon so'zlash, da'vosining to'g'riligiga kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sababli Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrida meros ishlari bo'yicha mashhur bo'lgan advokat Isey maktabida ta'lim olishga majbur bo'ladi. U to'rt yil davomida qunt bilan o'qiydi va bu davrda ko'pgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa mashhur tarixchi Fukudid va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini sakkiz marotaba qayta ko'chirib yozishi natijasida ularni deyarli yoddan o'zlashtiradi.

Demosfen o'qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va bu sud jarayoni besh yil davom etdi. Bir necha yil surunkasiga bo'lgan kurash bo'lajak notiq xarakterining toblanishida, bir so'zli va matonatli bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Nihoyat, uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so'ng, Demosfen o'z maqsadiga erishadi: mashhur notiq bo'lib yetishadi. Ammo, shunga qaramay, u hych qachon tayyorgarliksiz nutq so'zlamas, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, natijada uning har bir so'zi puxta va jozibali bo'lardiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi.

Demosfenning notiqlik faoliyatidagi ikkinchi imtihon uning o'z davrining mashhur notiqalaridan bo'lgan Esxil o'rtasida bo'lib o'tgan sud jarayoni bo'ldi. Ushbu sud ikki buyuk notiqning yakkama-yakka olishuviga aylanib ketadi. Demosfenning Esxil ustidan qozonilgan g'alabasi faqat uning g'alabasigina

bo'lmadan, balki Afina va butun Gresiya vatanparvarlarining tantanasi ham edi. Suddagi muvaffaqiyatidan so'ng Demosfenning davlat oldidagi obro'si yanada oshadi.

**Sitseron (103-43).** Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 103 yilda Rimdan uzoq bo'lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Sitseron u yerda yunon murabbiylari qo'lida tahsil ko'radi, yunon tili va adabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so'z ustalari Lisiniy Krass va Mark Antoniy kabi notiqlardan so'z san'atining nozik sir-asrorlarini o'rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi. Ayni chog'da u notiqning turli mimika va harakatlar bilan so'zlayotganini ko'rib, notiq bo'lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo'lish kerak ekan, degan xulosaga keladi.

Shuning uchun Ezop va Rossiy kabi o'z davrining mashhur aktyorlaridan saboq oladi. Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so'ng 25 yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so'zlashga jur'at etadi. U avval grajdanlik, so'ngra jinoiy ish jarayoni bo'yicha gapiradi. Shuningdek, u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta'lim oladi, mashhur so'z ustalaridan o'rganish niyatida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi. U ancha vaqtgacha nutq so'zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat Osiyo va Attika usullari omuxtasidan iborat bo'lgan yangi bir uslub kashf etadi.

Ayni chog'da u nutq nazariyasi ustida tinimsiz ijod qila boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida uch kitobdan iborat "Notiqlar haqida" nomli asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo'lib, mashhur notiqning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notiqlik san'ati hamda bu san'atning eng mayda-chuyda masalalaridan tortib siyosiy muammolarigacha bo'lgan qimmatli fikr-mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Sitseron "Brut" (47-yil), "Notiq" (56-yil) nomli boshqa asarlarida Rim notiqlik san'ati tarixidan batafsil fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy

maqsadi tinglovchining zavqini uygʻotib, oʻziga moyil qilishdan iboratdir.

Notiq bu fikrni davom ettirib, kimki joʻn narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida oʻrta darajada, ulugʻ hodisalar haqida esa shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam soʻz sanʼatining chinakam ustasi boʻlishini alohida taʼkidlaydi.

Xullas, Sitseron ni butun insoniyat oldida ulugʻlagan, obroʻsini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari boʻldi. Uygʻonish davrida Italiya, Fransiya va Germaniyaning insonparvar olimlari Sitseron ning ilhombaxsh nutqlarini sevib oʻrgandilar. Oʻsha davrda chiroyli soʻzlagan kishilar “siseronchilar” deb atalar edi [Орипов ва б. 1994: 13-15].

Oʻrta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab, yaʼni XI-XII asrlarda “universitet notiqligi” deb nomlangan notqlik rivojlandi.

XVIII asrning oʻrtalarida (1755 yil) Rossiyada Moskva universiteti tashkil etilib, uning oʻquv dasturiga nutq madaniyatining koʻrinishlaridan biri – “Chiroyli soʻzlash” (“Красноречие”: ораторство и стихотворство) fan sifatida kiritildi [Костомаров 1992: 332].

XIX asrda Fransiya, Italiya, Germaniya va Avstriyada burjua-demokratik inqilobining gʻalabasidan keyin notqlik sanʼati yuksak darajada rivojlandi. Shuning uchun bu davr notqlik sanʼatining gullash davri deb ham yuritiladi. Oʻsha davr notiq-lari insonning mehnati va aql-zakovatini ulugʻlab, uning kelajagini astoydil himoya qildilar.

Koʻrinadiki, Yevropada notqlik sanʼati ham amaliy, ham nazariy jihatdan rivoj topib borib, barcha davrlarda ham u insonparvarlik gʻoyalarini tarannum etdi hamda inson aql-zakovatining cheksiz qudratini ulugʻladi.

Taʼkidlash joizki, hozirgi kunda ham koʻpgina mamlakatlarda bunga eʼtibor susayganicha yoʻq. Masalan, AQShning barcha oʻrta va oliy maktablarida ritorika fani oʻtib kelinib, kishilar nutqining ravon boʻlishiga xizmat qilmoqda [Пешков 1989: 40].

**4. Oʻzbek notiqligi tarixidan.** Notqlik oʻtmish soʻz sanʼatining eng barkamol ommaviy janrlaridan boʻlib, bu sanʼatni

musulmon Sharqida voizlik, deb atashgan. Shunga ko‘ra nutq-va’z, notiq-voiz, deb yuritilgan.

Sharq, xususan, Markaziy Osiyoda juda ko‘plab notiqlik yetishib chiqdilar, notiqlik asoslarini va maktablarini yaratib, butun Sharqda, hatto butun dunyoda mashhur bo‘lganlar.

Jumladan, Voiz Muhammad Rafi’ (“Abvobul jinon”), Voiz Qazviniy (“Zilolumaqol”), Voiz Shirvoniy (“Ahsanul ahodis”), Muhammad Bobur binni Muhammad Voiz (“Hidoyatul taqvim”), Quraysh Sindiy (“Anisul-voizin”), Mulla Kalon Voiz Samarqandiy (Ravzatul-voizin), Qozi O‘shiy (“Miftoxun najjoh”, “So‘zning kaliti”) va boshqa bir qator mohir so‘z ustalari o‘zlarining risolalarini yaratib, notiqlik nazariyasi sohasida ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritganlar.

Voizlikning kelib chiqish tarixi ham ancha qiziq. Shveysar olimi Adam Lidsning ma‘lumotlariga ko‘ra, ilgari podshohlar el oldiga chiqib, davlat tizimi, itoatkorlik, xalqaro ahvol, diniy qoidalar, o‘z siyosatlari va boshqa mavzularda nutq so‘zlab turganlar. Ularning nutq matnlarini esa saroy xodimlari yozib berishgan. Ayniqsa, juma namozi kunlari ularning chiqib nutq so‘zlashlari shart bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan bunday ishlarni maxsus kishilarga – so‘z ustalari (voizlar) ga topshira boshlaganlar.

Quyida biz shunday so‘z ustalarining ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

**Mavlono Irshod (XV asr).** Mavlono Fahriddin Ali Safiyning “Latoyifut tavoyif” asarida aytilishicha (XV asr), Husayn Boyqaro Sulton Shijo‘ oldiga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun bir vakil yubormoqchi bo‘lgan. Maslahatlashib, bu ishga Mavlono Irshoddan boshqa munosib kishini topa olmaydilar.

Xullas, Irshod borib rasmiy ishlarni oz muddatda ijobiy hal etdi. Ammo, uning notiqlik mahoratiga qoyil qolgan shoh Shijo‘ Irshodga javob bermay, bir majlis qurib keyin ketishi mumkinligini aytib, iltimos qiladi. Notiq majlisni juma kuniga tayinlaydi. Boshqa odamlar kabi shoh va uning a‘yonlari ham masjidi jome‘ga yig‘iladilar. O‘sha kuni Mavlono Irshod shunday

ehtirosli nutq soʻzlaydiki, yigʻilgan xaloyiq hoʻng-hoʻng yigʻlaydi. Notiq hamma nutqqa berilib ketib yigʻlayotganini koʻradi. Shunda Mavloni Irshod oʻz notiqligining yana bir bunyodkor kuchini namoyish etadi: u toʻsatdan shunday kutilmagan burilish yasaydiki, hamma birdaniga koʻz yoshi aralash qah-qah soladi [Жалилов 1976: 15-16].

Shoh Shijoʻ ham, yigʻilgan xaloyiq ham buyuk notiq Mavloni Irshodni hurmat-ehtiroim bilan kuzatib qoʻyadilar.

**Qozi Oʻshiy (XV asr).** U asli fargʻonalik boʻlib, Oʻsh shahrida qozilik lavozimida ishlagani uchun Qozi Oʻshiy taxallusiga ega boʻladi. Yuqoridagi asarda yozilishicha, Erondagi Seiston viloyatining xalqi qattiqqoʻlligi bilan dong chiqargan, hatto gadoyga ham non bermaʼ ekanlar. Qozi Oʻshiy esa bu xalqning koʻngil qulfini soʻz kaliti bilan ochib yumshataman, deydi. Soʻngra u Seistonga borib, ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning ruhiy holatini oʻrganadi. Shahar qozisidan ruxsat olib juma kuni masjidi jomeʼda katta nutq soʻzlaydi, notiq bilan barobar xalqning figʻoni falakka koʻtariladi. Xalq topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin Qozi Oʻshiy nutqi uchun hyech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada yuqori eʼzozlaydi.

Notiq u xalqning xasis emasligini, aksincha olijanob ekanligini, xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish kerak ekanligini isbot etadi [Жалилов 1976: 16-17].

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, soʻz inson hayotida muhim oʻrin tutib, insonlarning koʻngillari oʻrtasida rishta vazifasini oʻtaydi.

Shu maʼnoda Yusuf Xos Hojib tilni uquv va bilimlarning tarjimoni deb biladi. U oʻzining mashhur “Qutadgʻu biligʻ” asarining elchilar haqidagi bobida soʻzning ichki va tashqi, oʻz va koʻchma maʼnolariga toʻxtalib, insonning aql-zakovati mana shu hodisalarni ilgʻay bilishda, deb taʼkidlaydi:

Elchi juda zakovatli, xotirjam (boʻlishi) kerak,

Bilimli, soʻzga dono, tadbirli (boʻlishi) kerak.

Yana soʻzning ichi ham **tashini** bilsa,

(Toki) uning tufayli buzilgan ishlar tuzalsa.

Fan tarixidan yaxshi ma'lumki, Sharqda madrasa ta'limida so'z ma'nolarini izohlab, sharhlab o'rganish ustivor yo'nalishga ega bo'lgan [Тўхлиев 2006: 20].

**Hoja Muayyad Mehnagiy (XV asr).** U o'z zamonasining yetuk notiqalaridan bo'lishi bilan birga oddiy mozor shayxlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, u "zohir ulumin takmil qilib erdi", ya'ni yuzadagi ilmlar, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirganga emas, balki uni to'ldirgan va rivojlantirgan ham edi. Uning va'zlari jo'shqin o'tgan, o'z tinglovchilarida nutqiga nisbatan xayrixohlik qo'zg'ata olgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularning har birini faqatgina tinglovchilikdan faol munosabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. O'z majlislarining qizg'in o'tishiga erishgan. Uning ijodiy mahorati boshqa notiqalar uchun namuna bo'la oladi. Chunki u o'sha davrdagi mavjud fanlarning barchasini to'liq o'zlashtirgan va ularni takomillashtirgan donishmand edi.

Hoja Muayyad kabi mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq o'z tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola olishi turgan gap. Ana shunday qudrat, zakovat tufayligina sultonlar, podshohlar ham uning mahorati, iste'dodi oldida bosh egganlar [Жалилов 1976: 19-20].

**Husayn Voiz Koshifiy.** Husayn Voiz Eronning Sabzavor shahrida tug'ilgan, vafot etgan yili 1504-1505 yillarga to'g'ri keladi. U Alisher Navoiyning zamondoshi, u bilan bir davrda yashab, ijod qilgan.

Husayn Voizning eng asosiy fazilati uning ilm egasi ekanligidir. U juda ko'p fanlarni egallagan va ularning har birida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlardan biridir. Uning "Javohirut tafsir yoki Tafsiri Husayniy", "Mavohibud dunyo", "Lubbi lubob", "Anvori Suhayliy", "Ravzatush shuhado", "Dah majlis", "Axloqi Muhsiniy", "Mahzanul insho", "Sabo", "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotamnoma", "Matla'ul anvor", "Ixtiyorot" va boshqa bir qator asarlari shundan dalolat beradi. Husayn Koshifiy notiq sifatida o'z zamonasining mashhur notiqalaridan bo'lgan. Uning nutqini



eshitish uchun odamlar shaharning turli tomonlaridan yig'ilishar, tinglovchilar soni shu qadar ko'payib ketishi natijasida orqaga turganlarga notiqning ovozi yetib kela olmas ham, uning ichki ruhiy holatini turli harakatlar orqali ifodalanihini kuzatar ekanlar.

O'z zamonasining ulkan so'z san'atkori Husayn Voiz Koshifiyning yuksak mahoratiga hatto Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqarolar ham qoyil qolib, tan berganlar, shu bois o'z asarlarini rasmiy ijro etish lozim bo'lganda, bunday ishga Husayn Voizni munosaib ko'rganlar. Jumladan, 898 (1492) yil 8 noyabr kuni Abdurahmon Jomiyning dafn etish marosimida Husaynning quyidagi tarkibband-tarixini va 7 band, 140 misradan iborat ajoyib marsiyani o'qib eshittirish uchun unga topshiradi:

Gavhari qoni haqiqat, durri bahri ma'rifat

Ko'ra haq vosil shuda dar diya nabudame mosivoh.

Koshihi sirri ilohi bud beshak z-on sabab

Gasht tarixi vafotash asrori ilohbud beshak z-on sabab

Gasht tarixi vafotash asrori iloh.

Ya'ni:

Haqiqat qoni gavhari ma'rifat dengizining durikim

haqiqatga erisha oldi va qalbida undan boshqa narsa yo'q edi.

Shubhasiz ilohiy siming ochuvchisi edi, shu sababdan

Vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" bo'ldi.

Husayn Voizning shu qadar hurmatga sazovor bo'lganligining asosiy sabablaridan biri uning ovozinig shiraliligi, ohangi, ichki ruhiy holatini turli harakatlar bilan ifoda qila bilishi bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni doimo har yerga taklif etishavergan, natijada u aniq jadval bilan ishlashga majbur bo'lgan [Орипов va b. 1994: 16-18].

Kullas, nutq, ayniqsa, madaniyatli nutq jamiyatda har doim alohida ijtimoiy maqomga ega bo'lib kelgan. Shu bois chiroyli nutq sohiblari jamiyatning barcha toifalari tomonidan katta hurmatga sazovor bo'lishgan.

Ma'lumki, badiiy adabiyot, kino, televideniye va teatrning kishilarimizda adabiy til me'yorlarini takomillashtirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Shuni e'tiborga olib, ushbu soha

mutaxassislari o'zlarining kasb mahoratlari ustida tinimsiz ishlashlari zarur. Xususan, sahna nutqi har bir so'zning ma'nosidan tortib, uning turfa tovlanishlarini topish uchun bilim va iste'dod, so'zni jonli va ta'sirli darajaga olib chiqish uchun tinmay mashq qilish zarurligini talab etadi.

Agar ilmga tayanib, isbotu ishonch bilan dadil so'zlanmas ekan, notiqni hyech kim tinglamaydi, shu bois ezmalanib behuda vaqt sarf etmaslik kerak [Бобоназарова 2002].

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. "Nutq madaniyati" fanining shakllanishi, rivojlanishini qisqacha bayon qilib bering.

2. Ifodali o'qish deyilganda nimani tushunasiz?

3. Yevropa notiqlik (oratorlik) san'ati haqida nima bilasiz?

4. Sharq notiqlik (voizlik) san'ati namoyandalaridan kimlarni bilasiz?

5. Notiqlik san'atining hozirda ijtimoiy hayotda tutgan o'rni haqida so'zlab bering.

### **ADABIY TIL VA NUTQ MADANIYATI**

Adabiy til xalq tilining yoki milliy tilning tarixan shakllangan, ishlangan ko'rinishidir. Adabiy til tilning oliy shakli bo'lib, lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilish (jumladan, orfografik va punktuasion qoidalar) ning tartibga so'linganligi va funksional uslublarning taraqqiy etgan tizimi bilan xarakterlanadi [Кодухов 1979: 85].

Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Uning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq, ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tilning ko'p qirralari va murakkab vazifa (funksiya)lari uning usluban tarmoqlanishiga, adabiy til doirasida xilma-xil nutqiy uslublarning yuzaga kelishiga olib keladiki, bu milliy adabiy tillarga xos muhim xususiyatlardan biridir. Shu sababli ham, yuqorida ta'kidlanganidek, adabiy til tilning boshqa ko'rinishlariga nisbatan boy lug'aviy tarkibi,

takomillashgan grammatik strukturaga ega ekanligi hamda uslubiy tarmoqlarning rivoj topganligi bilan xarakterlanadi. Bularning barchasi, dialekt va shevalardan farqli ravishda, muayyan qonun – qoidalarga bo‘ysunadi, ular ongli ravishda saralangan, ishlangan, baholangan va ma’lum bir me‘yorlarga solingan bo‘ladi.

Me‘yor adabiy til uchun ham, dialekt va shevalar, turli ijtimoiy jargonlar uchun ham xos belgidir. Ammo adabiy til muayyan me‘yorlarga solingan tildir. Bu me‘yorlar muayyan grammatik qoidalar, leksikografiyaga asosan jamlangan, ma’lum talaffuz qoidalariga amal qilgan bo‘ladi. Yozuvchi va har qanday ziyoli kishi mana shu qoidalar – me‘yorlar asosida adabiy tilni o‘rganadi, uning me‘yorlarini egallaydi.

Adabiy tilning me‘yorlanishi, bu me‘yorlarning muayyan qoidalarga olinishi aslida adabiy tilning umumxalq mulki ekanligi bilan bog‘liqdir. Chunki adabiy til barcha tomonidan milliy tilning namunali va ishlangan shakli deb qabul qilinadi va tan olinadi [Берматов 1982: 8].

Binobarin, har bir madaniy nutq sohibi o‘zining nutqiy faoliyati davomida yuqoridagi qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda ish ko‘radi.

Odatda nutqiy faoliyatni uchga bo‘lishadi: so‘zlash, mutolaa va eshitish. So‘zlash deyilganda so‘zlovchining ma’lumot, maslahat berishi, buyurishi, o‘ziga noma’lum narsalar haqida so‘rashi anglashiladi. So‘zlaganda so‘zlovchining bilimi, madaniyati, odobi yuzaga chiqadi. So‘zlash monologik va dialogik ko‘rinishlarga ega.

Mutolaa o‘quvchining yozma nutq orqali asar muallifi obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa ma’lumot olishning eng muhim yo‘lidir. Kishi o‘qish orqali ma’naviy yetuklikka erisha oladi.

Mutolaa oddiy o‘qish va ilmiy o‘qish (muhim narsalarning tagiga chizib o‘qish, parchalar ko‘chirib olish, qisqa konspekt olish, asar ustida mulohaza qilib o‘qish) dan iborat.

Oddiy o‘qiganda o‘quvchi uchun yozma nutq mazmuni bilan tanishuvning o‘zi maqsad qilib qo‘yiladi. Ilmiy o‘qishda esa

o'quvchi asarni tahlil qilishni, undan boshqa biror maqsad uchun foydalanishni, uning mazmunini qayta bayon qilish kabilarni nazarda tutadi [Кудратов 1993: 22].

Adabiy til ikki shaklda –yozma va og'zaki nutq shaklida yashaydi.

Nutq madaniyati – adabiy tilda to'g'ri va namunaviy gapirish va yozish bo'lib, kishi umummadaniyatining tarkibiy qismidir.

Og'zaki adabiy nutqning o'ziga xos me'yorlari mavjud bo'lib, ular lingvistik adabiyotlarda orfoepik me'yorlar atamasi bilan yuritiladi.

Nutq madaniyati hodisasi adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari uchun baravar taalluqlidir. Og'zaki nutq adabiy me'yorlari huddi yozma nutq me'yorlari kabi adabiy tilning rivojida muhim o'rin tutadi. Og'zaki nutq madaniyati ham yozma nutq madaniyati kabi umummilliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun yozma nutq madaniyati bilan bir qatorda og'zaki adabiy nutq me'yorlarini ham takomillashtirish va asrash zarur.

Og'zaki nutq me'yorlari xalq jonli tiliga, adabiy til me'yorlariga yaqin turadi. Shu sababli adabiy til me'yorlariga xos muhim xususiyatlar orfoepik me'yorlarni o'rganganda yanada aniqroq ko'rinadi.

Xullas, og'zaki adabiy nutq – adabiy tilning tarkibiy qismi sifatida quyidagi belgilarga ega:

- og'zaki adabiy nutq – adabiy nutq, adabiy tilda so'zlanuvchi nutqdir;

- og'zaki adabiy nutq umumxalq nutqidir. U ham yozma nutq kabi umumxalq mulki, umumxalq aloqa vositasidir;

- og'zaki adabiy nutq me'yorlangan, muayyan orfoepik qoidalarga solingan nutqdir;

- og'zaki adabiy nutq me'yorlari ham xuddi yozma nutq me'yorlari kabi umummajburiydir.

Og'zaki adabiy nutq me'yorlari negizini adabiy talaffuz, urg'u, intonasiya tashkil qiladi [Берматов 1982: 9-10].

Tildagi har bir hodisaga obyektiv baho berish uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'sha tilning ruhidan kelib chiqish

kerak. Shu ma'noda imlo masalasi ham bundan soqit bo'lmashligi lozim. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilining ham imlo tamoyillari bor. Bular yozuvni muayyan tartibda, turg'un va standart holatda ushlab turuvchi, yozuv me'yorlariga majburiy qilib qo'yuvchi asosiy omildir [Головин 1988: 4].

Lekin amalda ba'zi hollarda matbuot sahifalarida ana shu me'yorlardan chekinish hollari uchrab turadi. Ma'lum qoidalarga asoslangan ayrim holatlarning bir yoki undan ortiq ko'rinishiga duch kelamiz. Chunonchi, bu holat ba'zan ayrim hujjat (murojaat, qaror, nutq)larni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'zga tashlanadi. Masalan, "Pravda Vostoka" gazetasining 1983 yil 4 oktyabr sonida hukumatning Respublika mehnatkashlariga qarata qabul qilgan qaroridagi "Kolxozniki i kolxoznisy, rabochiye i rabotnisy sovxozov!" birikmalari "Sovet O'zbekistoni" gazetasining ham aynan shu sonida "Erkak va ayol kolxozchilar, sovxozlarning erkak va ayol ishchilari!" tarzida berilgan. Aftidan, murojaat matni dastlab rus tilida tayyorlanib, so'ngra o'zbekchaga ag'darilgan. Tarjimonlar rus tilida mavjud bo'lgan rod kategoriyasi belgisini o'zbek tilida "erkak" va "ayol" so'zlari bilan berishga harakat qilishgan. Natijada o'zbek tiliga xos bo'lmagan konstruksiyalar vujudga kelgan. Aslida ushbu birikmalar "Kolxozchilar va sovxoz ishchilari!" tarzida o'girilishi kerak edi. Bundan tashqari, matbuot organlarining ayrimlarida gazeta yoki jurnal chop etilgan sana kirilcha rasmiylashtirilganda imlodan chetlashish hodisasi ko'zga tashlanadi, masalan: 2010 yil 26 iyun. Aslida: 2010 yil 26 iyun bo'lishi kerak.

Yoki rus tilidagi "zavuch" (zaveduyushiy uchebnoy rabotoy) qisqartma so'zi o'zbek tilida "ilmiy bo'lim mudiri" tarzida berilmoqda. Bizningcha, "o'quv ishlari mudiri" dayilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Yana bir holat: ma'lum bir shaharda joylashgan universitet yoki institut nomiga "davlat" so'zi qo'shib aytiladi, matbuotda biz mana shu "davlat" so'zining goh bosh harf bilan, goh kichik harf bilan yozilishiga duch kelamiz. Aslida imlo qoidalari bo'yicha, "davlat", "pedagogika", "politexnika" so'zlari bosh harf bilan yozilib, "Toshkent (Jizzax, Qo'qon, Navoiy) Davlat Pedagogika

(yoki Politexnika) instituti” tarzida berilishi kerak edi. Aftidan ayrim matbuot organlarimizda rus tili imlo qoidalariga ergashish sezilib turibdi.

Albatta, tildagi u yoki bu g‘alozliklar u (til) ning ruhiga butunlay singib keta olmaydi. Lekin ular tilda uzoq vaqt turg‘un bo‘lib qolmasa-da, kishining yozma va og‘zaki nutqini ma‘lum darajada buzishi turgan gap. Bu, ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida salbiy oqibatlariga olib keladi va ularning nutqlarini to‘g‘ri yo‘lga solib yuborishda o‘qituvchilar zimmasiga uzoq vaqt chidam bilan katta ish olib borishni yuklaydi. Ushbu jarayon ancha yillargacha davom etishi mumkin. Shuning oqibati bo‘lsa kerak, ko‘p hollarda kishi katta yoshga kirganida ham ko‘nglidagisini nutqida ravon, mantiqli bayon eta olmay, qiynalib yuradi. Tinglovchi (yoki kitobxon)lar tasavvurida bu kabi fayzsiz yozma yoki og‘zaki nutqlar uzuq-yuluq gaplarni tashkil etadi: izchillik yo‘qolib, asosiy maqsad tushunilmasdan qoladi.

Yoki keyingi paytlarda matbuot sahifalarida tashkilot va korxonalarda biror kitob, spektakl yoki boshqa bir narsaning taqdimoti bo‘lganligi haqida xabarlar tez-tez bosilib turibdi. Ushbu tadbir matbuot sahifalarida o‘zining ikki xil ifodasini topmoqda, ya‘ni: “taqdimot marosimi bo‘ldi” hamda “taqdimot bo‘ldi”. Bizningcha, keyingisi to‘g‘ri, chunki “taqdimot” va “marosim” so‘zlari bir jarayonning ikki xil ifodasidir. Shu bois “S.Xo‘janioyozov nomidagi Nukus yosh tomoshabinlar teatrida “Qoraqalpoqchasiga ajralish” spektaklining taqdimoti bo‘ldi” gapi adabiy til me‘yoriga to‘g‘ri [Ўзбекистон адабиёти ва санъати 2002].

Shunday ekan, ta‘lim-tarbiya va savodxonlikni oshiradigan barcha targ‘ibot va tashviqot ishlarimizda faqat imlo qoidalariga rioya qilgan holda ish ko‘rishimiz kerak.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishning ijtimoiy dasturi davlatimizning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risida”gi hujjatlarida o‘z aksini topgan. Bularda, xususan, o‘quvchilarning ma‘naviy kamolotini keskin rivojlantirish, ona tilida ravon so‘zlay bilish qobiliyatini o‘stirish

o'rtta va oliy maktablar hamda keng jamoatchilikning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi uqtirilgan.

Davrimizning ushbu talabi biz, filologlar zimmasiga ham beqiyos ulug'vor vazifalar yuklaydi. Shu bois tilning silliqlanib, til hodisalarining sistemalashib, me'yorga kirib borishida ma'lum darajada rol o'ynaydigan ijodkorlar, xususan, filologlar, jurnalist va yozuvchilar bu masalada o'ta hushyor bo'lishlari lozim. Zero, ular xalq, uning tili oldida mas'uldirlar.

Ma'lumki, insonning ilg'or g'oya va fikrlari, yaratgan ijodi, madaniyat sohasida erishgan yutuqlari til vositasi bilangina ommalashadi, boshqalarga anglatiladi va yozma shaklda kelgusi avlodlarga yetkaziladi. Har bir avlod o'zidan oldingi avlodlar madaniyati darajasini mana shu yozma manbalardan bilib oladi. Shunday ekan, biz o'z tilimizga va o'z nutqimizga juda e'tiborli bo'lishimiz kerak.

Yozma adabiy nutq og'zaki adabiy nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahrir qilishi, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin. Shu xususiyatlari bois yozma nutq og'zaki nutqdan ravondir [Кудратов 1993: 25].

Xullas, nutqning og'zaki va yozma shakllari umumiylikka ega bo'lishi bilan birga, har qaysi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Nutqning, har ikkala shakli bir maqsad uchun – axborot yetkazish uchun xizmat qilsa-da, og'zaki nutq bu axborotni tezkorlik bilan maxsus tayyorgarliksiz yetkazsa, yozma nutq esa ushbu nutqni ma'lum bir tizimda, maxsus tayyorgarlik bilan o'quvchiga yetkazadi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Adabiy til deyilganda nimani tushunasiz?
2. Xalq tili, milliy til, umumxalq tili, sheva va dialektlar tiliga izoh bering.
3. Adabiy me'yor tushunchasiga ta'rif bering.

4. Nutq faoliyatining adabiy tilga qanday aloqasi bor?
5. Nutq faoliyatining ko‘rinishlarini aytib bering va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Adabiy tilning necha xil shakli bor?
7. Og‘zaki adabiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Yozma adabiy nutqning og‘zaki adabiy nutqdan qanday farqlari bor?
9. Og‘zaki va yozma nutqlarning adabiy nutq me‘yorlarining takomillashuvidagi o‘rni.

## NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYAT

Til boylıklaridan har kim o‘z imkoniyati doirasida foydalanib so‘zlaydi va yozadi. Bir tur so‘zlar va tilga tegishli boshqa belgilar bir nutqda ko‘proq ishlatilgani holda boshqa nutqda uchramaydi. Keyingisi o‘zining so‘z boyligi va gaplarining qurilishi, ohangi bilan uchinchi bir nutqdan ajralib turadi. Til vositalarining tanlab ishlatilishiga qarab nutq ko‘rinishlari bir necha turga bo‘linadi. Nutq ko‘rinishlaridagi ana shu xilma-xillik nutq uslublari deyiladi. Har bir uslub o‘ziga xos til tizimi bo‘lib, boshqa uslublardan ko‘pgina belgilari bilan farqlanib turadi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslublar deb yuritiladi.

V.V.Vinogradov mazkur uslub(stil)larni ularning muloqot, xabar berish va bir-biriga ta‘sir etish vazifalari bilan bog‘laydi hamda ushbu xususiyatlar ularning har birida namoyon bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi [Березин, Головин 1979: 228].

Jamiyat, ta‘lim, shu jumladan, tilshunoslik hayotda inson hal qilishiga to‘g‘ri keladigan holatlarda tilning ulkan imkoniyatlari hamda kommunikativ maqsadlaridan kelib chiqqan holda uning (tilning) kishilar o‘rtasida yetarli ravishda samarali qo‘llanishi tarafdoridir. Bunday hollarda tilshunoslik fani nutq sifatini yaxshilash uchun kishilarga tegishli tavsiyalar berib boradi.



Til va adabiyot haqidagi fanlar tarixida, olim va adiblarning fikr-mulohazalarida azaldan nutqning to'g'riligi, aniqligi, sofligi, mantiqiyiligi, ifodaliligi va b. yaxshi nutq xususiyatlari sifatida tan olinib kelinmoqda. Aynan ushbu belgilar nutqning kommunikativ sifatлари haqida axborot tashiydi.

Xullas, tilshunoslik nutq madaniyati masalalarini hal qilishda inson hayotida muhim bo'lgan ijtimoiy vazifani bajaradi.

Funksional uslublar mohiyatan tarixiy jarayon bo'lganligi bois dunyoda mavjud tillarda ularni tasniflash, ularning tarkibi va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash tamoyillari bir xil emas, ya'ni har bir til o'ziga xos funksional uslublarga ega. Keyingi holat har qaysi tilning taraqqiyot darajasi bilan bog'liq. Muayyan bir tilda ayrim funksional uslublar shakllanib, rivoj topgan bo'lsa, boshqalari esa endi shakllanish bosqichida bo'ladi.

Shu ma'noda tadqiqotchilar, jumladan, hozirgi rus adabiy tili tarkibida quyidagi funksional uslublarni ajratishadi: rasmiy-ish (ofisialno-delovoy), ilmiy (nauchnyy), ishlab chiqarish – texnik (proizvodstvenno-texnicheskiy), publisistik (publisisticheskiy) va so'zlashuv (razgovornyy) uslublari. Ulardan birinchi to'rttasi kitobiy (yozma shakl) bo'lib, so'zlashuv uslubiga qarama-qarshi qo'yiladi [Qarang: Панфилов 1974: 10].

Darvoqye, funksional uslublardagi differensial xususiyatlar nafaqat leksik va semantik sathlarga, shuningdek, tilning morfologik va sintaktik sathlariga ham asoslanadi.

Shuningdek, adabiyotlarda funksional uslublarni tavsiflash borasida ilmiy uslubning o'zi kamida uch janrni qamrab olinishi ta'kidlanadi. Bular: 1) o'quv matni (bunga darsliklar kiradi); 2) akademik matn (maqola va monografiyalar); 3) ilmiy-ommabop matn (maqola, kitoblar) [Всеволодова 2007: 15].

O'zbek uslubshunosligiga oid ishlarda nutqning quyidagi funksional uslublari ko'rsatiladi:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Publisistik uslub.
5. Badiiy uslub.

**1. So‘zlashuv uslubi.** Bu uslub o‘z leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so‘zlashuv tilini aks ettiradi. Uning uchun oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik xos belgilardir. Xalqimizning ongiga singib ketgan “qosh qorayguncha”, “qovog‘ini uyub”, “ko‘zini olaytirib”, “uchchiga chiqqan”, “ilonning yog‘ini yalagan” kabi iboralardan; ona, xola, momo, bobo, amaki, mullaaka, Ibrohim aka, Qumri opa, osh, tuz, yer, bola, kun, jo‘ra, og‘ayni, jonginam, oqshom, churvaqa, valdiramoq, do‘ng‘illamoq kabi so‘zlardan: -uvdi (boruvdi), -chiydi (o‘qigichiydi), -chi (mashinachi), -qira (oqarinqiramoq) kabi yasovchilardan, gapning dialogik, to‘liqsiz, bir tarkibli, so‘z – gap kabi shakllardan foydalanish so‘zlashuv uslubida ko‘proq uchraydi [Кудратов 1993: 29-30].

**2. Rasmiy uslub.** Bu uslub eng ko‘p va keng tarqalgan nutq ko‘rinishlaridan bo‘lib, shaxslar bilan shaxslar orasidagi, shaxslar bilan idora o‘rtasidagi, davlatlar bilan davlatlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan rasmiy hujjatlar tilidir. Ariza, tilxat, adres, xat, telegramma, ishonch qog‘ozi, bildirishnoma, ma‘lumotnoma, tavsiyanoma, tavsifnoma, qaror, tarjimai hol, buyruq, farmoyish, guvohnoma, e‘lon, hisobot, shartnoma, aloqa xatlari ana shu nutq uslubining ko‘rinishlaridir.

Rasmiy-ish uslubi uchun qisqalik, aniqlik, soddalik kabilar bosh belgilardir. Ibora va jumlar bir qolipda bo‘lib, ushbu hujjatlarda so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilmaydi, masalan, “Majlis qaror qiladi”, “Buyuraman”, “Tomonlar quyidagilarga kelishdilar” kabilar [Абдурахмонов 1996: 77].

**3. Ilmiy uslub.** U fan va texnikaning turli sohalariга oid til bo‘lib, unda atama, ta‘rif, qoida, qonunlarning aniq va obyektiv holda ifodalinishi, hamma o‘rinda butun matn dalil-isbotdan iborat bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ilmiy uslubda jumlar orasida mantiqiy bog‘liqlik sezilib turadi. Eng qobiliyatli va tajribali olimlarga og‘ir va murakkab fikrni badiiy uslub vositalaridan foydalanib, qisqa ifodalashga qodir bo‘ladilar. Ilmiy-ommabop uslubda esa murakkab fan tushunchalari ommaga tushunarli tilda, tasviriy vositalarni ham qo‘llab, badiiy va ommaviy uslub vositalaridan foydalaniladi, ommaga tushunilmaydigan atama va

iboralar qo'llanilmaydi yoki ularga izoh beriladi. Lekin ilmiy uslubdagi tasviriylik bilan badiiy uslubdagi tasviriylik farqlanadi. Ilmiy uslubda obrazli nomlar faqat nominativ atama vazifasini, badiiy adabiyotda esa o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini o'taydi. Umuman olganda uslubdagi rang-baranglik ilmiy uslub uchun xarakterli emas, u fakultativ bir hodisadir. Har bir fan o'ziga xos til xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubning asosiy xususiyati fikrni aniq va xolisona ifoda etishdan iborat. Shuning uchun ham ilmiy uslubda o'xshatish, epitet, majoz, kinoya va hajv kabi badiiy vositalar qo'llanilmaydi, monosemik (bir ma'noli) so'zlar, atamalar, mavhum ma'noli so'zlar ishlatiladi. Gaplar esa asosan ikki tarkibli (sostavli) va ko'pincha bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplardan iborat bo'ladi [Шомақсудов ва б. 1983: 24-25].

**4. Publisistik uslub.** Bu uslub matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. U o'zining ta'sirchanligi, dolzarbligi, so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Bunda fikrning mantiqiy izchilligi va obyektivligi ijtimoiy baho orqali tasdiqlanadi.

Bu uslubda o'quvchining diqqatini jalb etish uchun xabar yoki voqeya qiziq va muhim bir hodisadan boshlanadi. Shuning uchun ham bunda qisqa va ta'sirli iboralar qo'llaniladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu uslub odatda gazeta, jurnal, radio, teleko'rsatuv tili, uning og'zaki shakli-ma'ruza va xabarlardan, reportaj, bosh maqola kabilardan iborat bo'ladi. Shuningdek, publisistik (ommabop) uslubda boshqa uslublarning (ilmiy-ommabop, rasmiy-ish yuritish, badiiy kabi uslublar) ham bo'lishi tabiiydir. Ammo ommabop uslubda xabarlar qisqa hajmda bo'lishi shartliliigi (hatto badiiy asarlardan kichik parchalargina keltiriladi yoki kichik hajmli badiiy asarlar beriladi), hajmning torligi xabar yoki materialning o'ziga ham, bayonning tiliga ham ta'sir etadi: jumlarlar bir qolipdagi so'z va iboralar orqali ifodalanadi. Shuning uchun ommaviy axborot vosita xodimlari, tarjimonlar, muharrirlar har bir materialning, xabarning tilini sinchiklab tahrir qilishi shart bo'ladi. Binobarin, ommabop targ'ibot vositalari adabiy tilning mukammallashishida, uning

turli uslublarining shakllanishi va takomillashishida katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, reklama hozirgi kunning eng ko'p qo'llaniladigan rasmiy-ish turlaridan biridir. Matbuot organlari sahifalarida, radio va televideniya hayotimizning deyarli barcha sohalariga oid yangiliklar ommaga tezkorlik bilan yetkazilmoqda. Ushbu reklamalar o'zining qisqaligi, tushunarligi bilan oldingilaridan ancha farq qiladi. Shunday bo'lsa-da, hali-hanuz adabiy me'yordan ancha uzoq bo'lgan reklamalar ham uchrab turadi. Masalan, "Menga sizning sog'lig'ingiz kerak" deyish o'rniga "Siz menga sog'lom keraksiz" kabi iboralar tez-tez quloqqa chalinib turadi. Matbuot xodimlari, mutaxassislar me'yordan chekinilgan bunday holatlarning oldini olishlari hamda har bir reklamaning ravon bo'lishiga erishishlari lozim.

Publisistik uslubning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy, leksik-grammatik vositalari bo'ladi: siyosiy kuch, siyosiy iqlim, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, tinchlik kabutari kabi.

Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar maxsus ijtimoiy-siyosiy leksika bo'lib, u, asosan, ona tili asosida ba'zan boshqa tillardan so'z olish yoki kalkalash orqali ona tilidagi so'zlarga boshqacha ma'no berish (semantik usul) yo'li bilan ro'y beradi. Radio va televideniya orqali siyosat va ijtimoiy hayot muammolariga doir chiqish (ma'ruza va suhbat)larning muntazam uzaytirilishi publisistik uslub takomiliga kuchli ta'sir qiladi [Шомақсудов ва б. 1983: 26-27].

Davrimiz axborotlar oqimi kuchaygan zamona ekan, bunday sharoitda jurnalistika tezkorlikni talab qiladi. Shuningdek, jurnalistikaga qat'iyatlilik, odillik, adolat va prinsipiiallik lozim. Jurnalistlarimiz har bir narsani ochiq aytishga, jasoratli bo'lishga, haqiqat pozisiyasida qat'iy turishga o'rganishlari kerak. Bunda oldinni ko'ra bilish muhim o'rin tutadi.

**5. Badiiy uslub.** Badiiy uslub badiiy adabiyotning turli janrlarida qo'llanadigan o'ziga xos til ifodasidir. So'zni badiiy asar g'oyasiga, mazmun yo'nalishiga moslab ishlatish badiiy uslubni keltirib chiqaradi.

Badiiy uslubda tilning badiiy vositalari bilan birga frazeologik birliklar ham qo'llaniladiki, bu til birligi odatda ilmiy uslubda ishlatilmaydi. Badiiy vositalar tilning eng muhim belgisidir, uning natijasida jumlar o'quvchi (yozuvchi)ga badiiy zavq beradi, ma'lum obrazlar orqali voqyea-hodisalarning rivoji kuzatiladi. Albatta, bunda har bir yozuvchi, shoirning voqyelikni badiiy idrok etish, tasvir vositalaridan foydalanish uslubi, poetik sintaksisi muayyan belgilari bilan boshqalarnikidan ajralib turadi. Badiiy uslubning har ikki turi – nasriy va nazmiy turidagi asarlar: hikoya, qissa, roman, novella, doston, felyeton, esse, fantastika, ertak, qo'shiq, she'r turlari va boshqalar umumiy uslubiy xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, xususiy uslubga ham egadirlar. Zotan, adabiy janrning har bir turi o'ziga mos uslubni talab qiladi.

Badiiy uslubda qo'llaniladigan asosiy tasviriy vositalar badiiy til vositalari – o'xshatish, epitet, majoz, kinoya, mubolag'a, sifatlash, jonlantirish kabilar bo'lib, ular nutqqa badiiylik kiritadi, shuningdek, ifodali so'zlar (obraz, chehra, jilva, diyor, koshona va b.) yuksak badiiy obrazlar yaratadi, nutqni shirador qiladi, oddiy ommabop so'zlar (boyaqish, jichcha, tirrancha va b.) ayrim personajlarni xarakterlashda muhim rol o'ynaydi (bunday so'z va iboralar rasmiy-ish yuritish uslubida qo'llanilmaydi). Boshqa uslubga xos vositalar badiiy uslubda ishlatilsa, ko'chma ma'no beradi.

Badiiy uslubda, og'zaki uslubdagi singari, shevaga xos so'zlar, beadab va dag'al ibora va so'zlar, o'rinsiz qo'llangan chet va ortiqcha so'zlar (ammo, lekin, biroq va b.) voqyea yoki ma'lum bir shaxsni xarakterlash uchun ishlatiladi [Шомаксюдов ва б. 1983: 26-27].

Badiiy asarning til xususiyatlari xususida gap ketganda har bir ijodkorning individual nutq tuzish yo'li, o'ziga xos uslubga ega ekanligi masalalari mutaxassis nazaridan qochmasligi kerak. Zero, asarda o'z ifodasini topgan aniq lisoniy material va dalillar badiiy asar tilini o'rganish orqali adabiy til me'yorlarini to'g'ri belgilash imkoniyatlarini kengaytirishga va shu orqali ta'lim

tizimida ona tili birliklarini o'quvchilarga singdirishga imkon beradi.

Ma'lumki, so'z, umuman, nutqning, shu jumladan badiiy asarning ham asosiy ifoda vositasi bo'lib, yozuvchining obraz yaratishida badiiy mahorati ham shu bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Badiiy matnlarda so'zlar ishlatilishining qay yo'sinda bo'lishi yozuvchi badiiy barkamolliligiga bog'liq. Masalan, Shukur Xolmirzayev ijodida suzma, uvuq, kavrak, kulala, engarak, nishxo'rt, mux, shappa, domangir, qamti, tabarmusurmon, piyova, kelguchi, chukuri, cho'ylab, quymich, qozondek, qaynab, g'ippa, allag'aytib, qotishmadi, jimjilog'i, o'mrovini, o'mbaloq kabi so'zlar o'ziga xos tarzda ishlatilganligini kuzatamiz. Qarang: "Zinadan chiqayotganda, ko'kragi qozondek bo'lib turgan Eshniyozga to'qnashdi. U kulimsiradi" ("Қил кўприк, 77"). Yoki: "Nima bo'layapti u yoqqa? Hye-ye, odam qaynab ketdi" ("Қил кўприк, 312"). Ushbu matnlarda "qozondek" va "qaynab" so'zlari nutqiy aniqlik va ta'sirchanlikni oshirish hamda obrazlikni uyushtirish uchun ishlatilgan. Chunonchi, birinchi matnda ko'krakka nisbat berish uchun qo'llangan "qozondek" so'zi badiiy nutqning salmoqdorligini oshirish hamda tushunchalarni obrazli tarzda yuzaga keltirish maqsadida ishlatilgan bo'lsa, ikkinchi matndagi "qaynab" so'zi nutq jarayonida o'ziga xos ko'chma ma'noda qo'llanilib, mubolag'a, bo'rttirish maqsadida qo'llangan, ya'ni ko'p odam to'planganligini bo'rttirish, ta'kidlash ko'rsatilgan [Нормуродов 2000: 5-7].

Demak, badiiy adabiyotda so'z yordamida ifodalanayotgan narsaning: kishining imo-ishorasi, zo'rg'a ilg'analadigan harakat va holat, tana holati, qarash, xayollar parvozi, xohish va istaklari – xullas, qahramonning ruhiyati dialektikasi ifodasi tarzidagi his-tuyg'ulari, ehtiroslari, kechinmalarining murakkab yig'indisi mohiyati oydinlashadi, konkretlashadi. So'z moddiy-mantiqiy tayanch sifatida hayot haqiqatini anglashga, muallif maqsadining ro'yobga chiqishiga, insonlarga estetik va ma'naviy zavq-shavq berishga xizmat qiladi [Кожин 1979: 73]. Shu bilan birga badiiy adabiyot boshqa funksional uslublar uchun kishilar o'rtasida

muloqotga tayyorlanish va uni muvaffaqiyatli olib borish ko'nikmalarini tarbiyalashda ustivor xususiyatga ega. O'qituvchi, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o'quvchi (talaba) larida badiiy tafakkurning o'sishiga doimo harakat qilishi muhimdir.

Xullas, til uslublari uning vazifaviy turlaridir, inson faoliyatining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan variantlaridir. Tilning ushbu aloqaviy sifatleri nutq madaniyatini tavsiflaydigan mezon hisoblanadi. Nutq madaniyati deyilganda, til uslublari aniq va keng holda ifodalanishi tushuniladi. Bunda nutqning muloqot jihatlari yig'indisi uslubdan uslubga o'zgarib boradi. Shuningdek, nutq madaniyati haqidagi ta'limot nutq uslublari kommunikativ fazilatlarining ijobiy va salbiy jihatlari ko'rsatib beradi [Головин 1988: 311].

Ko'rinadiki, nutq har bir funksional uslubga hamda har bir janrda o'ziga xos xususiyatlar bilan, shuningdek, nutq turi har bir tinglovchi uchun moslanganligi bilan ham ajralib turadi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Kishilarning o'z nutqida til boyliklaridan imkoniyat doirasida foydalanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbek tilida nutqning necha uslubi bor?
3. So'zlashuv uslubi deyilganda nimani tushunasiz?
4. Rasmiy – ish yuritish uslubini misollar bilan tushuntirib bering.
5. Ilmiy uslubning o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
6. Publisistik uslub nega ommabop uslub ham deyiladi?
7. Badiiy uslubning o'ziga xos jihatlari so'zlab bering.
8. Nutq madaniyati nutq uslublari kommunikativ fazilatleri haqidagi fan deyilganda nimani tushunasiz?

## NUTQ MADANIYATI VA ME'YOR

Til madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. Zeroki, til madaniyatisiz, umuman, hech qanday madaniyat haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bunda nutq muhim o'rin tutadi. Nutq muomala vositasi bo'lib, muomala maqsadlariga xizmat qiladi. Til esa ma'lum tarzda tashkil topgan (birlashgan) birliklarni ajrata olib, muomalaga imkon yarata oladigan asosdir. Nutq o'zining individual holati, til esa umumiyliги bilan xarakterlanadi. Umumxalq tili har doim muqarrar ravishda ayrim nutq ko'nikmalarida, holatlarida o'zgarib, xillanib turadi. Nutq tarixiy va ijtimoiy sharoitlarning barcha omillari ta'sirida bo'ladi, biroq til o'z me'yorlari bilan nutqning bunday ta'sirlaridan o'zini asrab, saqlab boradi [Звегинцев 1968: 101, 103-105].

Ma'lumki, nutq odatda gaplardan, jumalardan tashkil topadi. Nutq qurilishi uchun esa so'zlar kerak. So'zlar bir-biri bilan ohang va grammatik-semantik jihatdan bog'lanib, muayyan fikrni anglatuvchi gapni hosil qiladi. Shuning uchun notiq birinchi galda so'zga alohida e'tibor berishi kerak. Shu ma'noda notiq har doim adabiy tilda gapirishga odatlanishi lozim, chunki adabiy til muayyan me'yorlarga, qonun-qoidalariga bo'ysundirilgan bo'ladi.

Yurtimizda demokratik o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda ziyoli o'z nutqini adabiy til me'yorlari talabi asosida qurishga harakat qilayotgani ko'pchilikka ayon. Shu bilan birga ayrim ma'lumotli, hatto oliy filologik ma'lumotga ega bo'lgan kishilar o'rtasida ham adabiy til me'yorlarini chetlab o'tib, o'z shevalarida so'zlashayotganiga tez-tez guvoh bo'lib turamiz. Afsuski, shunday o'qituvchilarimiz ham borki, ular adabiy til qonun-qoidalariga faqat dars jarayonidagina rioya qilib, o'z uylarida, ko'cha-ko'ylarda, sinfdan yoki auditoriyadan tashqaridagi muomalalarida, oila a'zolari va tanish-bilishlari bilan o'z shevalarida so'zlashadilar. Bunday holatni o'sha o'qituvchi o'z o'quvchisi (talabasi) bilan bo'lgan muloqotda ham takrorlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi (talaba)larda nutq



madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishga, so'zsiz, salbiy ta'sir etadi.

Biz bunda tilning barcha sathlari (fonetika, leksika, grammatika, imlo qoidalari, uslubiyat kabi)ga oid hodisalarni nazarda tutayapmiz. Ana shu sathlarning har qaysisiga oid bo'lgan me'yorlari mavjud, ya'ni adabiy tilning ilm-fan, madaniyat, san'at, ta'lim-tarbiya, matbuot, ma'muriy-ish yuritish va hayotimizning boshqa sohalarida qo'llaniladigan, umum tomonidan qabul qilingan, olim va adiblarning asar va nutqlarida muvaffaqiyatli ishlatilib kelinayotgan fonetik, leksik, grammatik, orfografik va uslubiy me'yorlar bor. Biz shular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**1. Adabiy tilning fonetik me'yorlari.** Bunda tilning vazifaviy ko'rinishlarida amal qiladigan umum tomonidan tan olingan orfoepik qoidalar tushuniladi. Shu bois so'z, birikma va gaplar adabiy talaffuz me'yorlari asosida talaffuz etilishi asos qilinib olinadi.

Masalan, o'zbek tili talaffuz imkoniyatlari (paradigmasi)da "chuyxo'na", "choyxana", "choyxona" shakllari mavjud. Ulardan qaysi biri mos ekanligini adabiy me'yor belgilaydi, ya'ni "choyxona" so'zining birinchi bo'g'inidagi unli tovushni paradigma o', yoki o, yoki a, ikkinchi bo'g'inidagi unlini o', yoki o, yoki a tarzida talaffuz etish imkonini beradi (cho'yxona – Buxoro, Samarqand til shevalarida, choyxana – qipchoq shevalarida, choyxona – markaziy shaharlardagi qorluq shevalarida va adabiy tilda). Ammo adabiy me'yor unilardan faqat lablanmagan o ni talaffuz etishni tavsiya etadi. Demak, me'yor ko'pincha bir variantni tanlaydi [Кудратов1993: 41].

Yoki adabiy tildagi "tog'a" so'zi Buxoroda "tag'o", Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo aholisining qipchoq shevalarida "tag'a" tarzida talaffuz etiladi.

Bu xildagi nutqiy buzilishlarni, jumladan, rus tilining dialekt va sheva vakillari nutqlarida ham uchratish mumkin. Masalan, "kogo", "chego" so'zlaridagi "g" harfining "v" deb talaffuz qilinishi o'rninga "g" deb aytilishi yoki "chto" so'zidagi

“ch” harfining adabiy me’yor bo’yicha “sh” deb aytilishi o’rniga shevada “ch” deb talaffuz qilinishi kabilar.

Rus tilshunosi, prof.V.I.Chernishev yozma va og’zaki nutqni yahtit bir narsa deb tushunib, shunday fikr bildiradi: “voda”, “pyatok”, “yego”, “konechno”, “chto” so’zlarini ko’rgan zahotimiz biz ularni: “vada”, “petok”, “yevo”, “kaneshna”, “shto” deb o’qiyimiz. O’quvchilar odatda “yevo”, “shto” deyishadi, kitobdan esa xuddi yozilganidek, “yego”, “chto” deb o’qishadi.

Ba’zi pedagoglar buni ma’qul topib, shu yo’sinda ish tutishni tavsiya etishadi, biroq ular bu bilan juda katta xatolikka yo’l qo’yishayotganini anglashmaydilar: bu holda maktab umum tomonidan qabul qilingan o’qimishli tildan chekingan va o’quvchini butunlay noto’g’ri yo’lga solgan bo’lardi [Чернышевский 1949: 538-539].

Ko’rinadiki, ta’lim-tarbiya maskanlarida yoshlarga so’z, birikma va gaplarning orfoepik me’yorlarini to’g’ri o’rgatish kelajakda ular nutqining adabiy talaffuz qoidalari asosida shakllanishiga olib keladi.

**2. Adabiy tilning leksik me’yorlari.** Bunda odatda tilning barcha funksional sohalarida umumiy til xazinasidan tanlangan, yasalgan va boshqa tillardan olingan, lug’atlarda jamlangan, olim va adiblarning asar va nutqlarida ishlatilib yurgan barqaror so’z va iboralar nazarda tutiladi. Nutq madaniyati ana shu so’z va iboralardan o’rinli foydalana bilishni, shevaga oid so’z va iboralardan qochoa bilishni taqozo qiladi.

Chunonchi adabiy tildagi “ona”, “pishirmoq”, “kurash”, “supurgi”, “yopmoq”, “yopib qo’ymoq” so’zlari Qarshi shevasida “una”, “bishirmoq”, “gurash”, “jorip”, “quvshirmoq”, “qamamoq” deyiladi.

Adabiy tildagi “qanday qilib” birikmasi Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining aksar tumanlarida “qaytib” tarzida ishlatiladi. Adabiy tildagi “nimaga?” (“nima uchun”) o’rnida shu viloyatlarda “hyey?” shakli qo’llaniladi.

Payariq tumanida “kar” so’zi o’rnida “garang” so’zi ko’proq ishlatiladi. Ma’lumki, adabiy tilda “xursand bo’lmoq”, “shod bo’lmoq” (“shodlanmoq”), “quvonmoq”, “suyunmoq”

soʻzlari sinonimik qatorni tashkil qiladi. Lekin ushbu soʻzlar oʻzaro maʼnodosh boʻlsa-da, hududiy qoʻllanishi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Masalan, Pastdargʻom va boshqa tumanlar aholisi “hursand boʻlmoq”ni ishlatasa, Xatirchi tumanidagilar “quvonmoq”ni ishlatishni afzal koʻrishadi. Huddi shuningdek, Samarqand viloyatining koʻpchilik tumanlarida “narvon” soʻzi ishlatilsa, Chelak aholisi esa “shoti”ni ishlatishga moyildir.

Darvoqye, “narvon” soʻzi ham, “shoti” soʻzi ham bir predmetning adabiy meʼyor sifatida qabul qilingan ikki xil koʻrinishidir.

Urgut tumanida “osh” deganda aksar hollarda “suyuq ovqat” – shoʻrvaga yaqin piyova tushuniladi. Respublikamizning boshqa hududlarida “osh” deyilganda, odatda “palov” tushuniladi.

Samarqand viloyatining koʻpchilik hududida “gaplashamiz” deyishsa, Bulungʻur va Jomboy tumanlarida esa “hangoma qilamiz”ni maʼqul topishadi. Yoki Respublikamizning aksar viloyatlarida “kechqurun” soʻzini ishlatishsa, Toshkentda “oqshom” varianti koʻproq ishlatiladi.

Rus tilida “oxirgi” maʼnosida shu soʻzning sinonimik qatorini tashkil qiladigan soʻzlardan baʼzan “posledniy”, baʼzan esa “krayniy” variantlari ishlatiladi.

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, mamlakatimizning turli viloyat va tumanlari aholisining bir qismi oʻz nutqida bir soʻzning adabiy meʼyor uchun qabul qilgan shaklini ishlatasa, boshqasi shu soʻzning ikkinchi bir variantini qoʻllaydi. Xullas, bu holat bir sinonimik qatorni tashkil qiladigan soʻzlar doirasida kechadi. Baʼzan esa bunday holatda semantik jihatdan maʼnodosh boʻlgan soʻzlar ham ishtirok etadi, masalan, “osh”, “palov”, “piyova” singari.

**3. Adabiy tilning morfologik meʼyorlari.** Biz bu holatda soʻzlarning yasalishi, turlanishi va tuslanishini, toʻgʻri soʻz shakllarini oʻz oʻrnida ishlatishni tushunamiz.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning mavjudligi va koʻpligi fikrni toʻgʻri ifodalash, tushunchalarni aynan berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Adabiy tilda har bir yasovchi

qo‘shimcha grammatik qoidalarga ko‘ra qo‘llanadi, har bir so‘z turkumi uchun xos bo‘lgan belgilarni ifodalaydi.

Shu bilan birga, so‘z yasovchi qo‘shimchalar orasida ham sinonimiya, antonimiya va omonimiya hodisasi bor, masalan, baquvvat-quvvatli, ishsiz-beish (qo‘shimchalar sinonim yasayapti); kuchli-kuchsiz, ba‘mani-be‘mani (qo‘shimchalar antonim yasayapti); sevinch (ot) – tinch (sifat) (qo‘shimcha omonim yasayapti).

So‘z yasovchi qo‘shimchalarning qatori qancha ko‘p bo‘lishidan qat’iy nazar har bir yasovchini o‘z joyida, me’yorga qarab ishlatish talab etiladi, masalan: Brakchi tovaroved Toiba Dadamuhamedova ... (“Саодат”). Endi bemalol ishlayverasiz, o‘z boshchingiz bor... [Абдурахмонов 1996: 116-124].

Kelishik kategoriyasi paradigmasini tashkil qiladigan qo‘shimchalarning ham har qaysining o‘ziga xos shakli va xoslangan vazifasi mavjud. Shunday bo‘lsa-da, ba’zi shevalar vakillari o‘rtasida ushbu me’yordan chekinish hollari kuzatiladi. Masalan, Qarshi shevasida jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari farqlanmay, har ikki holda ham (ga va –da o‘rnida) –ga ishlatiladi. Adabiy tildagi “uyda (maktabda, shaharda) bo‘laman” shakli ushbu shevada “uyga (maktabga, shaharga) bo‘laman” tarzida qo‘llanadi.

Yoki ko‘pchilik shevalarda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining tushirib qoldirilishiga duch kelamiz. Masalan, adabiy tilda “maktabga (bozorga) boraman”, shevada “maktab (bozor) boraman”. Adabiy tilda “o‘zlaring”, “beringlar”, “kelinglar” shakllari o‘rnida Toshkent va Farg‘ona vodiysi shevalarida “o‘zinglar”, “berlaring”, “kellaring” ishlatiladi. Ming afsuski, Respublika radiosi va televideniyesida eshittirish va ko‘rsatuvlarda adabiy me’yordan uzoqlashgan bu kabi holatlarga juda tez-tez guvoh bo‘lamiz. Bu esa kishilarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning nutq madaniyati bo‘yicha savodxonligiga, so‘zsiz, salbiy ta’sir etadi.

Demak, adabiy tilning morfologik me’yorlari ham boshqa me’yorlar singari kishilarning nutq madaniyati darajasini ko‘tarishdagi roli beqiyosdir.

Tovushlar va qo‘shimchalar, lug‘atning hamma qatlami faqat jumlada ma‘lum bir mazmun ifodalaydi. Har bir so‘z va grammatik shaklning mazmuni va ijtimoiy qiymati gap ichida ravshanlashadi.

**4. Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi.** Aristotel “Ritorika”si davridan beri maxsus vositalar – figuralar notiq nutqini sintaktik jihatdan tashkil etishda, ya’ni nutqning tinglovchiga nisbatan ta’sirini kuchaytirishda ishtirok etib kelmoqda. Ularning barchasi u yoki bu darajada gapning so‘z tarkibiga yoki uning tarkibiga tegishlidir. Jumladan, parallelizm, ellips, inversiya, har xil tarzda qaytariqlar nutq jarayonida juda faol ishtirok etadi. Gapning ma‘lum birligining birinchi o‘ringa chiqishi aksariyat sintaktik-stilistik figuralarning asosiy vazifalaridir. Pozision o‘zgarishlar intonasion va ritmik o‘zgarishlarga olib keladi. Inversiya, qaytariq tufayli birinchi o‘ringa chiqqan so‘z yoki so‘z birikmasi o‘zining sintaktik funksiyasini, leksik va grammatik ma’nolarini o‘zgartmagan holda qo‘shimcha ma’no va emosional qiymat kasb etadi [Кухаренко 1988: 62].

Ma‘lum bir fraza (jumla)da, kontekst va nutq vaziyatida faqat gap modellarining, shuningdek, boshqa barcha til birliklarining, eng avvalo, leksika, so‘z shakllari va so‘z birikmalarining aktuallashish jarayoni sodir bo‘ladi.

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi deyilganda gap komponentlaridan birini ma’no jihatidan ajratish va ajratilgan qismlar o‘rtasida yangi subyekt-predikat munosabatlarini aniqlash tushuniladi. Gapning ajratilgan qismi fikrning remasi va qolgan qismi esa temasi, deb yuritiladi.

Aktual bo‘laklarga bo‘linishning vositalari sifatida so‘z tartibi, sintagmatik bo‘linish va mantiqiy urg‘u keladi. Masalan, “Сейчас я пойду домой” gapi bir xil modelga ega bo‘la turib, turlicha aktual bo‘laklarga bo‘linadi:

1. Сейчас / я пойду домой //.

Bu gapda mantiqiy urg‘u birinchi so‘zga tushganligi munosabati bilan u gapda rema (yadro) vazifasida, qolgan qism tema vazifasida kelgan.

2. Сейчас / я / пойду домой //.

Ikkinchi gapda ikkinchi soʻz – ega mantiqiy urgʻuni olib, rema vazifasini bajargan, yaʼni ega gapning psixologik predikatidir.

3. Сейчас я / пойду / домой //.

4. Сейчас я пойду / домой /.

Uchinchi gapda “пойду”, toʻrtinchi gapda “домой” soʻzlari rema vazifasini oʻtab kelgan [Кодухов 1979: 281-282].

Buni biz oʻzbek tili misolida koʻrsak, quyidagi manzaraga duch kelamiz. Oʻzbek tili gapida mazmun jihatdan ahamiyatli boʻlgan boʻlak bevosita kesimdan oldin keladi. Masalan:

Men bugun teatrga boraman.

Bugun teatrga men boraman.

Men teatrga bugun boraman [Баскаков ва б. 1979: 92].

Yuqoridagi birinchi gapda mantiqiy urgʻu “teatrga”, ikkinchi gapda “men” va uchinchi gapda “bugun” soʻzlariga tushib, har gal nutqda soʻzlovchi uchun muhim boʻlgan boʻlak alohida urgʻu bilan boshqa boʻlaklardan ajratiladi.

**5. Sintaktik meʼyor.** Zotan, har qanday tabiiy til faqat nutqda mavjud boʻladi. Nutq esa bir-biri bilan mantiqan birlashgan sintaktik qurilmalar (soʻz birikmasi, gap va matnlar) dan tashkil topadi. Maʼlumki, keyingi holat bevosita sintaksisning vazifasidir. Binobarin, madaniy nutqqa xos boʻlgan mukammal fikr oʻzining uzil-kesil bahosini faqat sintaksisda topadi.

Xullas, sintaksis ham nutq madaniyati meʼyorlarini ishlab chiqishda tilning boshqa sathlari singari muhim kommunikativ vazifani bajaradi.

**6. Imlo qoidalari.** Soʻzlarni imlo qoidalariga muvofiq yozish ham toʻgʻri nutq madaniyatining muhim tomonlaridan biridir. Baʼzi hujjatlarga qarasangiz imlo, punktuasion va grammatik xatolar borligiga duch kelasiz. Bu ayrim kishilarning yozma adabiy til meʼyorlaridan yetarlicha xabardor emasligidan dalolat beradi. Masalan, tinish belgilari yordamida “bahor” soʻzli gapni uch xil gapga aylantirish mumkin, bunda, albatta, ohangning roli beqiyosdir. Qarang: Bahor. Bahor? Bahor!

**7. Uslubiy me'yorlar.** Nutqning silliq bo'lishi ko'p jihatdan uslubiy me'yorlarga amal qilishga, jumalarni qonun-qoidalar bo'yicha to'g'ri, so'z va iboralardan o'rinli foydalanishga bog'liq. Shu bois har bir notiq o'z nutqini qurayotganda uning har bir unsuriga nafaqat fonetik, leksik, grammatik jihatdan, shuningdek, uning uslubiy o'rinli yoki o'ransiz ekanligiga e'tibor qilishi nutq madaniyati uchun o'ta dolzarbdir. Chunonchi, ayrim hollarda ma'lum sheva vakillari tomonidan ba'zi so'zlar nutqda uslubiy nuqtai-nazardan noto'g'ri qo'llaniladi. Masalan, avtobusdan tushmoqchi bo'lgan yo'lovchi o'zidan oldinda turgan yo'lovchidan: - Tushasizmi?- deb so'raydi. Adabiy me'yor bo'yicha ikkinchi yo'lovchi: -Ha, tushaman. Shoshmang (yoki shoshmay turing), deydi. Lekin Qarshi shevasida "shoshmang", "shoshmay turing" shakllari o'rinda shu vaziyatda uslubiy jihatdan noto'g'ri bo'lgan "hovliqmang", "hovliqmay turing" so'zlari ishlatilib, qarshilik bo'lmagan suhbatdosh qalbini sindiradi.

Shu ma'noda so'z bilan insonga juda yaxshi yordam berish ham, aksincha, tuzatib bo'lmas zarba berish ham mumkin. Pushkinning shaxsiy tabibi Spasskiy so'z bilan bemorni o'ldirib qo'yganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining esdaliklari bizga ma'lum. Tabib o'layotgan Pushkinning oldidan qaytayotgandi. U ko'rgani kelgan bemorning ahvoli og'ir edi, zo'rg'a to'shakdan bosh ko'tardi. Kasal tabibning qo'lini ushlab: "Ayting-chi, doktor, umid qilsam bo'ladimi? Tuzalib ketarmikanman?" "Hyech qanday umid yo'q,-javob berdi Spasskiy, -Nimalar deyapsiz? Hammamiz ham o'lamiz, otaxon! Mana Pushkin ham o'layapti, eshityapsizmi? Pushkin! Siz bilan biz o'lsak bo'laveradi". Bemor nolish bilan boshini yostiqa tashlaydi va Pushkin bilan bir kunda, bir vaqtda jon beradi.

Markaziy Osiyo xalqlarida, shu jumladan, o'zbeklarda o'ziga xos nutq uslubi, nutq odobi mavjud. Tilning rang-barangligi va shiraligi, donishmandlarcha bosiqlik, suhbatdoshiga nisbatan odob saqlash madaniyati va hokazo. Agar bularning bari bilan qurollanib, ehtiyotkorlik bilan murojaat qilinsa, xalq tiliga, hatto qalbiga ishonchli yo'l topiladi [Сафаров 1988].

Biz o‘z tanishimizni “simpatyaga” yoki yangi kinokomediyaning ko‘rish uchun “strashno xochetsya” deb aytsak, adabiy til me‘yorini buzgan bo‘lamiz. Agar me‘yor hayotiy bo‘lmoqchi bo‘lsa, u hеч qachon tilning ifodali vositalari uchun qat‘iy g‘ov bo‘lmasligi kerak.

Shu bilan birga me‘yor tilga ongli munosabatda bo‘lishni talab etadi. Tilda “bunday gapirilmaydi”, “bunday gapirishadi” deyishimiz ham til taraqqiyotidan dalolat beradi. Tilning taraqqiy etishi bilan uning me‘yorlari ham o‘zgarib turadi. Bunda u bir qancha variantlarga ham ega bo‘ladi. Har qanday adabiy til qanchalik rivoj topgan bo‘lsa, uning uchun me‘yor ham shunchalik ahamiyatga egadir.

Xullas, leksika, grammatika va stilistikada paydo bo‘layotgan bir xil turdagi yangiliklar inobatga olinishi mumkin va kerak.

Tilda paydo bo‘layotgan faktlarga nisbatan obyektiv baho berish har qanday kishi uchun, jumladan, til mutaxassislari uchun har doim ham oson emas. Ushbu qiyinchiliklar o‘z navbatida nutq madaniyatining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Shularni e‘tiborga olgan holda o‘qituvchilar har doim yoshlarga til me‘yorlarini tinimsiz singdirib borishi, ularni to‘g‘ri so‘zlashga o‘rgatishlari kerak. Bunda o‘quvchilarda so‘zlashishning to‘xtash (pauza), temp (sur‘at), talaffuz, ohang (intonasiya), ritm (marom) kabi texnik vositalari yordamida nutqimiz bezaklari – maqollar, iboralar, donishmandlarning ibratli so‘zlaridan foydalanib, nutq nuqsonlarini (ya‘ni o‘rinsiz ishlatiladigan “ya‘ni”, “xo‘sh”, “demak”, “masafan”, “keyin”, “olaylik” kabi so‘zlarni) yo‘qotib borish ko‘nikmalarini hosil qilish muhim o‘rin tutadi. Bu o‘z navbatida ularning fikr doirasining kengayishiga hamda badiiy va ilmiy kitoblar mazmunini tez ilg‘ab olishlariga zamin yaratadi.

Yoki matndagi gap har qancha uzun bo‘lsa ham, u fonetik, leksik-grammatik hamda uslubiy me‘yorlarga rioya qilingan holda tuzilgan bo‘lsa, undagi jumlar uzun tuzilganiga qaramay, bir zarb bilan o‘qilganda, ohang butunligi ta‘minlanib, notiqning



maqsadiga mos g'oyatda teran va his-hayajonga to'liq ma'nolar yuzaga keladi.

### **Mavzuga doir savol va topshiriqlar**

1. Demokratik jamiyat qurayotgan kishilarimiz nutqini adabiy til me'yorlari talabi asosida takomillashtirishda o'qituvchining vazifalari haqida so'zlab bering.
2. Adabiy tilning fonetik me'yorlari deganda nimani tushunasiz?
3. Leksik me'yorlarga izoh bering.
4. Morfologik me'yorlarni misollar bilan tushuntiring.
5. Sintaktik me'yorlarning nutq madaniyatini shakllantirishda qanday o'rni bor?
6. Imlo qoidalarining nutq madaniyatiga aloqadorligi nimalarda aks etadi?
7. Uslubiy me'yorlar deyilganda nimani tushunasiz?

### **NUTQ MADANIYATINING ASOSIY TAMOYILLARI – NUTQNING ALOQAVIY SIFATLARI**

Til va nutq bir-biriga bog'liq ijtimoiy hodisalardir. Zotan, nutq uning uchun moddiy material bo'lgan tildan va unga xos qoidalardan tuzilgan bo'ladi. Garchi nutq tildan tuzilgan va uning qonunlariga bo'ysunadigan bo'lsa-da, shu bilan birga, ular aynan bir narsa emas. So'zlovchi yoki yozuvchi nutq jarayoni mobaynida muloqot vazifalari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda til tizimida mavjud bo'lgan birliklardan foydalanadi. Ayni chog'da til tizimining muqobil imkoniyatlari amaliy jihatdan cheksizdir, ya'ni bunda qanday qilib kerakli so'zni ularning tegishli bog'lanishini, kerakli ohang (intonasiya) ni topa bilish eng muhimdir. Bunga har bir nutq muallifi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda javob beradi.

Biz nutq tuzayotganimizda bizga ma'lum so'zlar, ularning shakllari, sintaktik qurilmalar, ularga xos ohang (intonasiya) kabi

lisoniy birliklarni muqarrar ravishda takrorlab turamiz. Til birliklarining shu zayildagi takrorlanishi nutqning aloqaviy xususiyatlarida qay tarzda o'z aksini topadi – nutqni takomillashtiradimi yoki susaytiradimi? Takrorning qaysi turi qay holatlarda maqsadga muvofiqdir va qaysisi nutq madaniyati uchun to'siq bo'ladi?

Ma'lumki, har qanday til, shu jumladan, o'zbek tili so'z, so'z birikmalari, gaplar va ularga xos struktur-sintaktik qismlarning erkin holda joylashishi hamda o'zaro birikishi kabi imkoniyatlarga ega. Tildagi bu imkoniyatlarni o'z nutqida qay holda joylashtirish mualliflarning lisoniy jihatdan tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Basharti notiqning tayyorgarligi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, u til vositalaridan shunchalik mohirlik bilan foydalanadi.

Nutq jarayonida turli til belgilari semantik, chunonchi, uslubiy bo'yoqlar olishi mumkin. So'z va so'z birikmalarining obrazli ma'nolari (metafora va metonimiyalar) bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ko'pgina yozuvchi va shoirlar nutqida uchraydigan talay sinonim va antonimlar ham bundan mustasno emas.

Xullas, til va nutq munosabati nutqning to'g'ri, toza va boy (mukammal) bo'lish kabi aloqaviy xususiyatlarini tushunish uchun juda muhimdir.

Agar nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilingan bo'lsa, bunday nutq to'g'ri hisoblanadi. Agar nutqda adabiy tilga yot so'z va birikmalar bo'lmasa, bunday nutq sof nutq deyiladi. Agar nutqda tilning turli belgilari qanchalik ko'p bo'lsa, bunday nutq boy hisoblanadi [Головин 1988: 25-27].

Ayni paytda grammatik qoidalarga to'g'ri kelmaydigan, shuningdek, nutqda arxaizm, dialektga oid so'zlar, neologizmlar va varvarizmlarning qo'llanishi nutqning sofligini buzadi [Чернышев 1970: 444].

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir jihati sifatida ijtimoiy hayotning iqtisodiy, sosial, siyosiy va ma'naviy sohalari bilan uzviy bog'langandir, ya'ni madaniyat kishining e'tiqodi, tasavvuri, dunyoqarashi, g'oya va mafkurasini o'zida

ifodalaydi. Bunda kishining madaniyati darajasi uning ushbu realiyalarga ongli munosabatiga, ularni anglash darajasiga bog'liqdir [Юнин 2000: 18-19]. Ma'lumki, har bir jamiyatning o'ziga xos realiyalari bo'lganidek, konkret shart-sharoitlarni, obyektiv borliqni o'zida mujassamlashtirgan insonning umumiy madaniyati sosial madaniyatdir. Binobarin, insonning ma'naviy dunyoqarashi bilan uzviylikda bo'lgan nutq madaniyati ham ijtimoiy hodisadir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nutq madaniyatiga ko'p jihatdan lingvistik omillar xos bo'lsa-da, u ma'lum darajada insonning ruhiyati va nafosat olami bilan ham aloqadordir. Chunki kishining ruhiy va hissiy holati hamda estetik qarashlari uning nutqida ham o'z aksini topadi.

Endi bevosita adabiy til me'yorlariga mos nutqni hosil qiladigan sifatlar talqiniga o'tamiz.

## NUTQNING TO'G'RILIGI, ANIQLIGI VA SOFLIGI

**1. Nutqning to'g'riligi.** Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga mosligidir. To'g'ri nutq o'zida adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug'aviy so'z yasalishi, grammatik (morfologik, sintaktik), uslubiy me'yorlarini mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Nutqni hosil qilishda gaplarning to'g'ri ketma-ketligiga katta e'tibor talab etiladi. Bunda tadbirkorlik bilan vaziyatdan kelib chiqib, so'zlarni tanlashda notiq yaratuvchan bo'lishi, gaplarni o'z o'rnida qo'llay bilishi va ularni ifodalay bilishi juda ham zarurdir. Shu bilan birga iyerarxik xususiyatga ega bo'lgan nutq axloqiy, mantiqiy va lisoniy me'yorlarni ham o'z ichiga oladi. Bularning birortasidan biroz chetlashgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi. Nutq to'g'ri bo'lmasa, boshqa aloqaviy (mantiqiylik, aniqlik, o'rinlilik) sifatlar ham buziladi. Quyida bu haqda batafsil to'xtalamiz.

**1.1. Talaffuz me'yorlari.** Nutq-shaxsiy hodisa. Nutqni har bir shaxsning o'zi tuzadi. Me'yoriy variantlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi. Agar so'zlovchi adabiy me'yorlarni yaxshi egallamagan bo'lsa yoki o'z shevasidagi

variantni qo'llasa, uning nutqi adabiy me'yordan chetlashgan bo'ladi. Masalan, "Qishloqdan Kasangacha besh kilometr keladi", "Bizga kelayotgan mehmonlar xolis niyat bilan kelsin". Bu misollardagi adabiy me'yordan chetlashgan talaffuz shakllari "Kasangacha" (adab. Kosongacha), "kelayotkan" (adab. kelayotgan) yuqoridagi mulohazalar asosida yuz bergandir. Nutq o'zi bilibmi, bilmaymi, o'z lahjasi qonuniyatlari ta'siriga o'tib qoladi. Bu narsa ko'pincha so'z va so'z shakllarining talaffuzida, leksik tanlashlarda va boshqalarda uchraydi.

Ma'lumki, qipchoq va o'g'iz lahjalarida tanglay uyg'unligi (garmoniyasi) mavjud. Tanglay uyg'unligi talabiga ko'ra, unlilar ikki xil – yumshoq va qattiq talaffuz etiladi. So'z o'zak – negizlarini bunday ikki xil talaffuz etish lahjaning har bir vakiliga bolalikdan singan bo'ladi. Qattiq unlili negizlarga qattiq, yumshoq unlili negizlarga yumshoq unlili qo'shimchalar qo'shiladi: otka, xasqa, paxtag'a (sheva talaffuzi: otqo, xosqa, poxtog'a); ishka, bizarga, sanga, maktabka, doskaga (adabiy orfoepik: otga, xasga, paxtaga, ishga, bizlarga, senga, maktabga, doskaga) kabi [Кудратов 1993: 42-44].

Bulardan tashqari, nutq jarayonida tovushlarda yuz beruvchi o'zgarishlar bilan bog'liq muhim fonetik hodisalar ham bor: assimilyasiya (o'tta-o'tda), dissimilyasiya (zalal-zarar), spirantizasiya – portlovchi tovushning sirg'aluvchi tovushga o'tishi (maxtab - maktab), dierez (pas-past), metateza – tovushlar o'rin almashishi (yog'mir-yomg'ir), proteza – undosh oldidan birorta unli tovushni orttirib aytish (istikon - stakan), epenteza – ikki undosh orasida biror unlining ortishi (ilim - ilm), sinkopa – so'zlar qo'shimcha olganda biror unlining tushib qolishi (burnim – burun) kabilar [Брматов 1982: 16-18].

**1.2. Grammatik me'yor.** Adabiy tilda "kuchli" va "kuchsiz" me'yorlar bor. Bular, jumladan, adabiy tilning morfologik qurilishida ham amal qiladi. Kuchli me'yorlar o'zbek tilini yaxshi bilgan kishilar tomonidan deyarli buzilmaydi. Unga amal qilish juda qat'iy hisoblanadi. Ikkinchi xil me'yorlar esa tezda tashqi ta'sirga uchraydi, yomon o'zlashtiriladi; nutqda tez-tez buziladi.

O'rtta maktabda yozma adabiy tilni yaxshi o'rganib olmagan yoki mahalliy shevalarning kuchli ta'sirida bo'lgan shaxslarning yozma nutqida ham me'yorni buzish uchrab turadi. "Kuchsiz" morfologik me'yorlarga misol tariqasida ba'zi bir (qaratqich, o'rin-payt va boshqa) kelishiklarning buzilishini ko'rsatish mumkin.

Qaratqich kelishigi ma'nosida tushum kelishigi shakli orqali ifodalash, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari ma'nosini ifodalashda faqat -ni (fonetik variantlari bilan birga) dan foydalanish og'zaki nutq uchun keng tarqalgan hodisadir.

Bu xususiyatni, jumladan, qarluq lahjasiga mansub shahar shevalarida kuzatish mumkin. Toshkent tipidagi shevalarda esa progressiv assimilyasiya hukmronligi tufayli (-ni) ning fonetik variantlari negizning oxirgi tovushiga ko'ra boshqa shahar shevalaridagiga qaraganda ancha ko'pdir: maktappi – maktabni, ovvi –ovni, ko'rri – ko'rni, oshshi – oshni, bizzi – bizni, o'qqi – o'qni va hokazo.

Turli sabablarga ko'ra kelishik shakllarini almashtirib ishlatish deyarli hamma hollarda hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarini buzish hisoblanadi [Кудратов 1993: 45-47].

Masalan, quyidagi parchaning ikkinchi gapida kesim majhul nisbatda kelganda, aniq nisbatning to'ldiruvchisi majhul nisbati gapda bosh kelishikda kelib ega vazifasini bajaradi. Lekin bu gapda grammatik qonuniyat buzilib, nutqning to'g'riligiga putur yetkazgan: Shunday ekan, g'oyaning o'zi nima? G'oya deganda nimani tushuniladi? [Курбонов 2000: 3].

Keyingi gap aslida "g'oya deganda nima tushuniladi?" tarzida shakllanishi lozim edi.

Gapning grammatik jihatdan to'g'riligi quyidagi gapda ham buzilgan: Agar bu hikmatni butun xalqqa, millatga, mamlakatga nisbatan qo'llanilsa, barcha zamonlarda ichki birligi mustahkam bo'lgan xalq, millat gullab-yashnagan [Курбонов 2000: 7].

Yuqoridagi gapda "hikmatni qo'llanilsa" birikmasi "hikmat qo'llansa" shaklida berilishi kerak.

**1.3. Egalik qo'shimchalaridan foydalanish.** O'zbek adabiy tilida egalik qo'shimchalari qaratqich belgili bo'lganda

ham shakllanmasligi (tushib qolishi) mumkin. Ammo bunday qo'llanish juda kam uchraydi. Bundan tashqari, egalik qo'shimchasining tushib qolishi faqat birinchi shaxs ko'pligiga xos bo'lib, boshqa shaxslarda uchramaydi. Qolgan shaxslarda egalik qo'shimchasi tushib qolsa, me'yordan tashqari hisoblanadi. Egalikning ifodalanmasligi birinchi shaxsga qarashli predmet boshqasi bilan qiyoslanganda ham yuz berishi mumkin: Ot – bizning ot yuz kilometr yo'lni ham pisand qilmaydi, kabi.

O'zbek adabiy tilida egalik olgan so'z shakli qaratqichsiz qo'llana beradi. Qaratqichning borligi ba'zan shundoqqina sezilib tursa, ba'zan esa sezilmaydi. Uni tiklash hatto nutqda g'alizlik keltirib chiqaradi [Кудратов 1993: 48-49].

Yoki boshqa bir grammatik g'alizlikka, e'tibor qiling. Ma'lumki, o'zbek tilida na bog'lovchisi takrorlanib kelganda voqeyaning inkorligini ifodalaydi. Lekin ba'zi ilmiy, o'quv kitoblarida ushbu masalada izchillik yo'qligi ko'zga tashlanadi [Алиев 1997: 203].

**2. Nutqning sofligi.** Adabiy til uchun begona unsurlari bo'lmagan, axloq me'yorlari tan olmaydigan so'zlardan holi bo'lgan nutq sof nutq hisoblanadi. Ammo nutq shaxsga xos hodisa ekan, unda ijtimoiy axloq me'yorlarini buzuvchi til birliklari ham ishlatilib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Shunday qilib, quyidagilar adabiy nutq sofligiga putur yetkazadi:

- 1) mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z ibora; grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi;
- 2) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari;
- 3) jargonlar;
- 4) vulgarizmlar;
- 5) nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar;
- 6) kanselyarizmlar.

2.1. Sanab o'tilgan unsurlardan o'rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so'zlovchi (yoki yozuvchi) o'z nutqining adabiy me'yorlar darajasida bo'lishini ta'minlashi lozim. O'z shevasiga oid til vositalarini nutqqa o'rinsiz olib kirish nutqni buzadi, ifloslantiradi.

2.2. Varvarizmlar – o‘rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so‘zlar. Ulardan qutilishning birdan-bir yo‘li – ona tilini har tomonlama chuqur o‘rganish, badiiy asarlarni ko‘p o‘qish, o‘qiganda notanish so‘zlarning ma‘nosiga e‘tibor berish va lozim bo‘lsa, ularni o‘z leksikasiga kiritishdan iborat.

2.3. Ayrim kasb egalari, ijtimoiy guruhlar ifodalayotgan fikrlarini boshqalardan yashirish uchun ona tili va boshqa tillardagi so‘zlardan boshqacha ma‘no berishlarida foydalanadilar: ari (1), gop (2), arikam sari (3), biyoz (5) kabi. Muallif badiiy adabiyotda qahramonning nutqini individuallashtirishda bunday jargonlardan foydalanadi.

2.4. Ba‘zi so‘zlovchilar o‘z nutqlarida ayrim so‘zlarni ko‘p takrorlaydilar. Bunday takrorlanadigan xo‘p, xo‘sh, demak, ya‘ni, o‘laylik, masalan, haligi kabi so‘zlar parazit so‘zlar deb yuritiladi.

2.5. “Kanselyarizm”lar ish qog‘ozlari uchun zarur bo‘lgan, ma‘lum bir shakldagi so‘z birikmalari va gaplardir. Bunday shablonlar so‘zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publisistikaga o‘tsa, nutqni buzishi mumkin [Кудратов 1993: 50-53].

**3. Nutqning aniqligi.** O‘qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o‘rinni egallaydi. Ular o‘quvchi bilimining, dunyoqarashining omili hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir yangi atamani to‘g‘ri va yorqin izohlab, o‘quvchi ongiga singdirib borishi lozim.

Atama, asosan, bir ma‘noli bo‘ladi. Ular fan, texnikaning taraqqiyotiga bog‘liq holda rivojlanib boradi. Atama har bir tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida yaratiladi yoki boshqa tillardan o‘zlashtirib olinadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ayni bir til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko‘p. Ana shunday bir sharoitda o‘qituvchi atamalardan foydalanishga alohida e‘tibor berishi, o‘z nutqining turli-tuman atamalar bilan to‘ldirib yubormasligi lozim. Hodisalarning ma‘nosini to‘g‘ri ifodalaydigan, qulay atamalardangina foydalanish yaxshi natijalar beradi. Masalan, tilshunoslikda bir qator undoshlar “guttural undoshlar” deb yuritiladi. Undoshlarni bunday nomlash o‘zbek tilshunosligida singib ketmagan. Shu bois bu atamani ishlatish

ma'qul emas. Uning o'rnida "portlovchilar", "til orqa undoshlari", "chuqur til orqa undoshlari" kabi atamalarni ishlatish mumkin. Kerakli atamalardan o'z o'rnida foydalana bilmaslik, birinchidan, o'qituvchi nutqi madaniyatining pastligini ko'rsatsa, ikkinchidan, keraksiz holda xilma-xil atamalar bilan nutqni to'ldirib yuborish ham ma'qul emas. Chunki bunday holatda o'quvchi diqqati atamalarga tortilib, asosiy maqsaddan uzoqlashib, uning mohiyatini anglash ancha mushkullashadi. Binobarin, aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. Fan tili ham badiiy adabiyot tili ham, eng avvalo, aniq bo'lishi kerak. Aniqlik va qisqalik fikrni puxtalashni talab etadi, usiz yorqin ifodalar yaratilmaydi.

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rinadi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan bo'lsa, bunday nutq aniq nutq hisoblanadi. Nutqda mavjudlikning narsa va hodisalari to'g'ri aks etishi uchun notiq o'zi so'zlayotgan narsalarni yaxshi bilishi lozim. Bu o'z navbatida nutqni ashyoviy jihatdan aniq tashkil etishga sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida "palahmon" va "sapqon" so'zlari bor bo'lib, palahmon-mayda tosh otadigan narsa, sapqon-miltiqdan chiqadigan tovushga o'xshagan tovush chiqaradigan narsa. Keyingi tosh otishga mo'ljallanmagan. Quyidagi parchada muallif ularning farqiga bormasdan ishlatgan. "Xo'sh, boringki, unga sapqon otdimoq dey. Sapqonimning g'o'lasini aylanib-aylanib o'zimga tegsa-chi?" ("Myш Tym" jurnali, 1987, 24-son, 6-bet) [Kudratov 1993: 54-56].

Yoki quyidagi gapni olib ko'raylik: "Musobaqalarda Qoraqalpog'iston, Toshkent shahri va viloyatlar terma jamoalar o'z vazn toifalarida samarqandlik G.Tillayev (44 kg), I.O'ktamov (60 kg), andijonlik X.Habibullayev (48 kg), A.Oripov (66 kg), chirchiqlik S.Holboyev (52 kg), A.Abdusattorov (54 kg), Toshkent viloyati vakili A.QO'ljonov (57 kg), A.Muralimov (86 kg), toshkentlik M.Sodiqov (63 kg), A.Sobitoxunov (80 kg), sirdaryolik O.Shoimov (48 kg), farg'onalik B.Mamajonov (50



kg), buxorolik N.Ikromov (70 kg), jizzahlik S.Xoliqulov (74 kg) barcha raqibalarini mag‘lubiyatga uchratib, bosh sovrinlarni qo‘lga kiritishdi” (“Sport” gazetasi, 2003 yil 9 aprel). Bu gapda ikki g‘alizlik nutqning aniqligiga putur yetkazyapti, ya‘ni “terma jamoalari” birikmasidan keyin “vakillaridan” so‘zini kiritish va “o‘z vazn toifalarida” birikmasini “jizzaxlik S.Xoliqulov (74 kg)” birikmasidan keyin qo‘yish ushbu g‘alizlikning oldini olib, fikrga aniqlik bag‘ishlaydi: Musobaqlarda Qoraqalpog‘iston, Toshkent shahri va viloyatlari vakillaridan samarqandlik G‘.Tillayev (44 kg), jizzaxlik S.Xoliqulov (74 kg) o‘z vazn toifalarida barcha raqiblarini mag‘lubiyatga uchratib, bosh sovrinlarni qo‘lga kiritishdi.

Ma‘lumki, “umumiylik” va “xususiylik” atamalari, falsafadan tashqari, ko‘pgina ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham qo‘llaniladi. Lekin ba‘zida ilmiy munozaralarda “xususiylik” atamasi o‘rnida “alohidalik” so‘zining ishlatilishiga duch kelamiz. Yoki adabiy me‘yor sifatida qabul qilingan “pastdan yuqoriga” birikmasi o‘rnida “pastdan tepaga” birikmasining ishlatilishi hollari ham uchraydi. Bu kabi ikki xillik fanda aniqlikka emas, balki g‘alizlikka olib keladi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. O‘qituvchi nutqining asosiy tamoyillarini sanab bering.
2. Nutqning kommunikativ fazilatlarini deganda nimani tushunasiz?
3. O‘qituvchi nutqining to‘g‘riligi qanday omillarga asoslanadi?
4. O‘qituvchi nutqining sofligini misollar bilan tushuntirib bering.
5. O‘qituvchi nutqining aniqligini asoslab bering.

# NUTQNING MANTIQUIYLIGI, IFODALILIGI VA BOYLIGI

**1. Nutqning mantiqiyliigi.** Mantiqiylik nutqning kommunikativ fazilati sifatida ko'p jihatdan aniqlikka asoslanadi. Mantiqiylik, aniqlik singari, nutqni uning mazmuni bilan bog'liq holda tavsiflaydi. Mantiqiylik, aniqlik kabi, borliq va tafakkur asosida shakllanadi va anglashiladi.

Biroq aniqlik nutq semantikasi butunligi va yaxlitligining matn mazmuni bilan aloqadorligiga suyansa, mantiqiylik nutq semantikasi strukturasi, uning tuzilishiga asoslanadi [Головин 1988: 144].

Mantiqiylikni ekstralingvistik va lingvistik omillar vujudga keltiradi. Ekstralingvistik shartlar to'g'ri mulohaza qilishning me'yorlari va tamoyillarini egallashni taqozo qiladi. Har qanday tafakkur mantiqiylikni talab etadi. So'zlaganda fikrning tartibiga, izchilligiga e'tibor berish muhimdir. Lingvistik omilga ko'ra, nutqiy tuzilish belgining bir-biriga zid bo'lmasligini, mazmuniy bog'liqlikni uyushtiruvchi til vositalarini bilishni taqozo qiladi.

Gapda mantiqiylikni quyidagi holatlar buzadi:

1) gap ichida so'zlarning o'zaro to'g'ri tartibi mantiqiylikning yuzaga chiqishida muhim ahamiyatga ega. Ega va kesim guruhlarining o'zaro joylashuvini gapning muhim bo'linishi belgilaydi. Bunga ko'ra, gapdagi so'zlar ikkiga – tema va remaga ajraladi. Uslubiy betaraf gaplarda tema remadan oldin keladi. Muhim axborot gapning oxirida bo'ladi. Bu qoidaning buzilishi bayonda mantiqiy izchillikning buzilishiga, undagi ma'naviy urg'uning noaniqligiga olib keladi, masalan, "Har bir tiyinlik ish haqi fondi, moddiy resurslarning hisobi olinyapti" (Gazetadan).

Bu gapda noto'g'ri so'z birikmasi tuzilgan. Bu esa mantiqiy noaniqlikni yuzaga keltirgan. "Bir tiyinlik ish haqi fondi" bo'lmaydi, aksincha, "ish haqi fondining har bir tiyini" bo'ladi. Shundan kelib chiqib, gapni "Ish haqi fondi har bir tiyining, moddiy resurslarning hisobi olinyapti" deb tuzish mantiqan to'g'ri bo'ladi;

2) odatda soʻzlar oʻz maʼno doiralariiga mos keluvchi soʻz bilangina birika oladi. Istalgan soʻzni istalgan soʻz bilan birlashtirish mumkin emas. Bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar gap ichida birlashtirib qolsalar, fikrda mantiqsizlik yuz beradi, masalan, “Sanatoriy-oʻrmon maktabi vrachiga qizgʻin minnatdorhiligimni izhor etaman. Bu odamning chehrasi kulib turganidek, u katta tajribaga ham ega”. Bu gapda bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar (tashqi koʻrinishi va mutaxassislik tajribasi) bir qatorga qoʻyilgan;

3) bir xil maʼnoli ifodalarni nutqqa ortiqcha kiritish mantiqiylikning buzilishiga sabab boʻladi. Bunday soʻzlar pleonazm deyiladi: men, oʻzim; shu bugun, bugundan boshlab kabi, masalan, “Qayta qurish jarayonlari tufayli, shubhasiz, bu yerlarga ham yangilanishning nasim shamoli esmoqda” (Gazetadan). Bunda bir maʼnoli ikki soʻz (“nasim” mumtoz adabiyotda “shamol”ni anglatadi) asossiz ravishda yonma-yon keltirilgan.

Mantiqiy aloqalar va munosabatlarni ifodalashning muhim vositalariga kirish soʻz, kirish birlashtirmalar, yordamchi soʻzlar, bogʻlovchilar va yuklamalar kiradi [Кудратов 1993: 58-61].

**2. Nutqning ifodaliligi.** Ifodalari sodda, ammo katta mazmunga ega boʻlgan nutq tinglovchida qiziqish uygʻotadi va uning ongiga tez yetib boradi. Ifodalilik nuqtai nazaridan qaraganda kishilarning nutqlari xilma-xildir. Hatto bir mavzuga bagʻishlangan turli kishilarning nutqlari turlicha ifodalanishi mumkin. Biri qiziqarli boʻlsa, boshqasida loqaydlik kuchli boʻladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantiqi, dalillarning yangiligi, muallifning taʼsir oʻtkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir.

Ifodali sheʼriy nutqqa misol tariqasida H.Olimjonning “Oʻlka” sheʼrini koʻrsatish mumkin. Sheʼrning badiiy shakli tashqi tomonidan juda sodda: leksikasi ham, sintaksisi ham, ohangi ham hammabop. Ammo isteʼdodli shoir ana shu soddalik, hammaboplik orqali asarning badiiy taʼsirini taʼminlagan. Unda lirik qahramonning vatanga boʻlgan qaynoq hislari, fidoyiligi, sevgisi, ishonchi oʻz ifodasini topgan.

## O'lka

Men dunyoga kelgan kundanoq  
Vatanim deb seni, uyg'ondim.  
Odam baxti birgina senda  
Bo'luriga mukammal qondim.  
Qulog'imga noming kirganda  
Qumlik kabi tashna boqurman.  
Sening jannat vodiylaringdan  
Nahrlarday to'lib oqurman.  
Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas  
Ko'zda yoshi bilan kulganlar.  
Tillari bor, o'zlari hayot,  
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.  
Har aytganing buyuk jangnoma,  
Qayga desang qaytmay keturman.  
Ko'zlarimni yummasman aslo –  
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

(H. Olimjon)

Nutqning kimga qaratilganligi, qanday voqyealar unda aks etganligiga qarab ifodalilik xilma-xil ko'rinishlarda bo'ladi, ya'ni quvonch ifodasi, qo'rquv ifodasi, hayajon va chaqiriq ifodasi, jimlik va ajablanish ifodasi bor. Bularning har biri o'ziga xos nutqiy sharoitlar uchun o'rinli hisoblanadi. Shundan chaqiriq ifodasini oshiqning ishq sarguzashtlari bayonida qo'llab bo'lmaganidek, quvonch ifodasini bemor tepasida bayon qilish o'rinsizdir.

Ifodalilik, birinchidan, nutq vaziyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, tilning tuzilishi bilan bog'liqdir. O'qituvchining darsdagi nutqi ifodaliligi bilan targ'ibotchining ma'ruza ifodaliligini, EHM yuzasidan qilingan ma'ruza bilan xalqaro kengashda qilingan ma'ruza ifodaliligini bir qatorga qo'yib bo'lmaydi [Кудряов 1993: 62-64].

O'z nutqiy tajribamizga suyangan holda, biz Pushkin va Tolstoy, Sholoxov va Paustovskiy asarlarini yoki hayotligidayoq o'quvchilar tomonidan unutilgan yozuvchilardan birining asarini

bir xil ehtiros bilan o'qiyimizmi, ularni o'z qalbimizga bir xil ehtiros bilan qabul qilamizmi? degan savol tug'iladi. Albatta, yo'q. Yoki Pavlov va Timiryazevning ilmiy asarlarini fanda endi qalam tebratayotgan olimning asarlariga nisbatan boshqacha e'tibor bilan o'qiyimiz. Ularning asarlari o'z tili va uslubi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Har bir ijodkor til vositalari va ularning tuzilishidan o'ziga xos usulda foydalanib, ifodaliligi bilan farqlanadi va tinglovchi (yoki o'quvchi) qalbiga turlicha tuyg'u bilan kirib boradi [Головин 1988: 182-183].

Nutqning ifodaliligi talaffuz, urg'u, leksika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, uslub bilan mustahkam aloqadordir.

Shunday qilib, nutq ifodali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga bo'ysunishi lozim:

1) nutq muallifining tafakkuri erkin, mustaqil bo'lishi kerak. Siyqasi chiqqan gaplarga bog'lanib qolgan kishining nutqi yuksak ifodalilikka erisha olmaydi;

2) notiq nima haqida so'zlayotganini, kimlarga so'zlayotganini yaxshi bilishi lozim;

3) notiq tilni, uning vositalarini, imkoniyatlarini yaxshi egallagan bo'lishi kerak;

4) notiq til (nutq) uslublari xususiyatlari, xossalardan atroflicha xabardor bo'lishi shart;

5) notiq nutqiy malakasi ustida muntazam va ongli mashq qilib borishi lozim;

6) so'zlovchining ifodali so'zlashga bo'lgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligining bo'lishi lozim.

Ifodalilikni ta'minlashda o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a kabi vositalar katta ahamiyatga ega. Nutqda bu vositalardan o'rinli foydalanish uning madaniyatini oshiradi. Masalan, metonimiya narsalarning zamon va makonda o'zaro bog'lanishlariga asoslanadi.

Faqat chust do'ppisi ostidan toshgan

Kumush xalqalardan oqib tushar ter.

(Зулфия.)

"Kumush xalqlar"ning chust do'ppisi ostidan toshib turishi ularning qo'ng'iroq soch o'rnida ishlatilganligini anglashga

imkon beradi. “Kumush xalqalar” ustida fikr yuritgan o‘quvchining xayoliga birdan oqargan jingalak soch, ulardan oqib tushayotgan qaynoq ter keladi va shoirning maqsadini osonlikcha ilg‘ab oladi [Кудратов 1993: 64-69].

**3. Nutqning boyligi.** Nutqning asosiy aloqaviy sifatlaridan biri uning boy, ya’ni rang-barang bo‘lishidir. Nutqning boyligi unda ishlatilgan til vositalarning ko‘pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko‘rsatgan ta’siri tushuniladi. Nutqning boyligi ikki nutqni bir-biri bilan solishtirganda, qiyoslaganda, ulardagi til vositalarining so‘zlovchi ko‘zda tutgan axborotni yuzaga chiqarishda bajargan vazifasi ustida mulohaza qilganda namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, masalan, o‘rta ma’lumotli brigadirning nutqidan ma’lumotli o‘qituvchining nutqi, albatta, boydir.

7) Ko‘pgina kishilarning og‘zaki nutqida (ba’zan yozma nutqida ham) bir xil so‘zlar ko‘p martalab takrorlanadi, nutqida fikrni yorqinlashtirish uchun zarur bo‘lgan til vositalari ishlatilmaydi.

Bunday nutqni eshitish kishiga malol keladi. Nutq so‘zlovchi o‘z oldiga quygan maqsadni tinglovchiga to‘la yetkaza olmaydi.

Ona tili va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ona tilining jonkuyar targ‘ibotchisi, himoyachilaridir. Ular o‘z o‘quvchilariga ona tilining beqiyos boyligini bosiqlik, donolik, ishtiyoq bilan singdirib borishi, ona tili so‘zlaridan bahra olish hissiyatini uyg‘otishi lozim. O‘qituvchi mavzu va materialga bog‘liq holda o‘z nutqida ona tili so‘z boyligidan o‘rinli va keng foydalanadi. To‘g‘ri, darslarda bir qolipdagi jumlar, iboralardan ham foydalanib turiladi.

Tilshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ko‘pgina olim, yozuvchi va shoirlarning so‘z boyligi, o‘z ijodlarida qancha so‘zdan foydalanganligi belgilab chiqilgan, uslubiy jihatdan o‘rganib chiqilgan. Masalan, A.S.Pushkin o‘z asarlarida 21197 so‘zdan, V.Shekspir 20000 so‘zdan, Servantes 18000 so‘zdan, A.To‘qay 14000 so‘zdan, Abay 6000 so‘zdan foydalangan. B.Bafoyevning ma’lumoticha, A.Navoiy so‘z ishlatish borasida

ham tengi yo‘q shaxs bo‘lgan. Uning ijodida taxminan 1378667 so‘z ishlatilgan. Oybekning so‘z xazinasini 25000, A.Qahhorniki 22000 so‘zdan iborat bo‘lgan [Кудратов 1993: 69-70].

Xullas, notiq, jumladan, o‘qituvchi til vositalaridan qanchalik ko‘p foydalansa, takrorlarga yo‘l qo‘ymasa, uning nutqi shunchalik boy, rang-barang bo‘ladi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Nutqning mantiqiyligini ta‘minlaydigan til vositalariga nimalar kiradi?
2. Mantiqiylikda ekstralingvistik va lingvistik omillarni sanab bering.
3. Nutqning ifodaliligini tushuntiring.
4. Ifodalilikning shartlarini izohlab bering.
5. Nutqning boyligini misollar yordamida tushuntirib bering.

## **NUTQNING O‘RINLILIGI, MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA FIKRNI DALILLASH MADANIYATI**

**1. Nutqning o‘rinliligi.** Yaxshi nutq sifatlari tipologiyasida o‘z qiymatiga ko‘ra o‘rinlilik alohida o‘rin egallaydi. Bu ma‘lum jihatdan shartli atama bo‘lsa-da, u ham ekstralingvistik, ham lingvistik sathda aniq ma‘noga ega.

O‘rinlilik – bu muloqot jarayoni maqsad va shartlari talabiga javob beradigan nutqni vujudga keltirishda ishtirok etadigan til vositalarini tanlash va tashkil etish. Nutqning o‘rinliligi xabar mavzuiga, uning mantiqiy va hissiy (emosional) mazmuniga, tinglovchi yoki yozuvchilar tarkibiga, yozma yoki og‘zaki nutqning informasion, tarbiyaviy, estetik va boshqa maqsadlariga mos tushadi [Головин 1988: 227].

Lingvistik omilga ko‘ra, o‘rinlilikka erishishning asosida tilning boyligini egallash, har bir so‘zning ma‘no qirralarini

chuqur anglash yotadi. Aks holda maqsad to‘liq yuzaga chiqmay, mantiqsizlik paydo bo‘ladi, masalan:

Kelar mangu nozlanib go‘zal,  
Bor dunyoni eritib bahor...  
Erimaydi negadir ba‘zi  
Qobog‘larda muzlab qolgan qor.

(Bahodir Islomov)

Ushbu she‘riy parchada mantiqsizlik yuz bergan, chunki bahor kelib-ketib tursa-da, mangulikka kelmaydi. Hatto, umr bahori ham! She‘r matniga majburiy ravishda kiritilgan “mangu” epiteti noo‘rin ishlatilgan.

Ma‘lumki, adabiy til so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publisistik, badiiy uslublarga egadir. Ularning har birining o‘z xususiyatlari bor (bu haqda yuqorida atroflicha fikr bildirildi). Til materiallarini tanlash qonun-qoidalari mavjud, ya‘ni so‘z, so‘z birikmalari, sintaktik qurilma va butun nutq tuzilishi tizimining o‘rinlilikini til uslubi belgilaydi hamda boshqaradi. Til uslubi har bir til birligining muayyan holat uchun o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanligini hal qiladi.

Har bir til birligi nutqqa lug‘aviy yoki grammatik ma‘no orqali birikadi. Nutqqa kiritilgan so‘z o‘z ma‘nosiga ko‘ra shu gap uchun bo‘lsagina, u matn ma‘nosining yuzaga chiqishida hissa qo‘sha oladi. Aks holda, uni vayron qiladi. Chunki matn so‘zlarning tasodifiy yig‘indisi emas. U o‘z mazmuni va shu mazmunni paydo qiluvchi ifoda vositalariga, uslub ohangdorligiga ega bo‘lgan nutqiy tizimdir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, muloqot paytida suhbatdoshlarning shaxsiy ruhiy holatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki so‘zlovchining nutqi uning nutq so‘zlanib turgan paytdagi ruhiy holatiga ko‘ra turlicha leksik tarkibda va ohangda bo‘lishi mumkin. Bunday nutq tinglovchiga ham turlicha ta‘sir ko‘rsatadi.

Chunonchi, o‘qituvchining o‘quvchi bilan qo‘pol muomalasi o‘quv materialini yomon o‘zlashtirishga sabab



bo'lishdan tashqari, o'quvchilarni o'zidan bezdiradi ham. O'quvchilar sevmagan o'qituvchining ishidagi yutug'i qanday bo'lishi hammaga ma'lum. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqining tinglovchiga qanday ta'sir etishi haqida, nutqining odobi haqida ko'proq o'ylashi zarur [Кудратов 1993: 71-75].

**2. Nutqning maqsadga muvofiqligi.** Ma'lumki, me'yor ham og'zaki, ham yozma nutq uchun zarur unsurdir. Shu bois u kishilar nutqiy xulqining boshqaruvchisi, yo'naltiruvchisidir. Bunday boshqarish juda zarur. Ammo yaxshi nutq uchun bu boshqaruvning o'zi yetarli emas. Chunki me'yor nutqning tuzilishini boshqaradi. Nutq to'g'ri, biroq nutq so'zlayotgan sharoitga mos bo'lmasligi mumkin. Shundan har bir nutq me'yorga to'g'ri kelishi bilan birga, nutq sharoitiga ham, nutqning maqsadiga ham mos kelishi kerak. Shuni e'tiborga olib, atoqli so'z san'atkorlari o'z asarlari ustida qayta-qayta ishlab, asar tilini puxta qilishgan. Masalan, yozuvchi S.Ahmadning guvohlik berishicha, atoqli adib A.Qahhor "ba'zi hikoyalari matnini 27 marta qayta ishlagan". Kibriyo Qahhorova A.Qahhor haqidagi xotiralaridan birida yozuvchi har kuni 4-5 soat ishlab, bir yarim sahifa yozganligini, shu matnni 5-6 marta ishlaganligini, har ishlovdan so'ng butun matnni ko'chirib chiqqanligini hikoya qiladi.

Yozuvchi Mirmuhsin shunday yozadi: "Adib o'zini tahrir qilishi, asarlarida haykaltaroshdek, g'adir-budur marmarni ishlab, jonli inson yaratishi kerak..." F.Dostoyevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romani qo'lyozmasini ko'rib, og'zim ochilib qoldi, shu darajada ko'p tahrir qilinganki, ko'chiruvchi mashinachilarga juda qiyin bo'lgan bo'lsa kerak. Abdulla Qodiriy, Oybek qo'lda yozgan. Bir sidra oson yozilgan yaxshi asar yo'q, har qanday zako va yetuklik ham tahriru ter to'kishni taqozo etadi".

Ko'rinadiki, insonning nutq faoliyatida me'yordan boshqa yo'naltiruvchilar ham mavjud. Nutq muallifi o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng ta'sirli, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarini, gaplarni, ohanglarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib "maqsadga

muvofiglik” deb atash mumkin. Me’yor va maqsadga muvofiglikning birgalikda harakati nutq madaniyatini ta’minlaydi [Кудратов 1993: 75-76].

**3. Fikrni dalillash, isbotlash madaniyati.** Munozarada kishining o’zini tuta bilishi, ishonch va vazminlik, aniq hozirjavoblik bilan gapirishi juda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga suhbatdoshining nutqini tinglay bilish va tahlil qila bilish, o’z navbatida, o’z nutqini muvaffaqiyatli tashkil qila bilish ham o’ta muhimdir. Bunda so’zni bilish haqida emas, balki nutqqa ega bo’lish haqida, so’zning xarakteri, xususiyatlari va imkoniyatlarini tushunish haqida emas, balki ularni tashkil qila bilish haqida gap borayapti.

Shu ma’noda masalaning uch jihati, ya’ni mantiq, psixologiya va til hal qiluvchi omillardir. Bulardan ayniqsa keyingisi alohida ma’no kasb etadi, chunki axborotning barcha turi tinglovchiga nutq yordamida yetkaziladi, har doim biz istagan holda tinglovchimizni ishontirishimiz uchun nutq uchun kerakli ifoda shakllarini topa bilishimiz kerak. Aynan mana shu nutq san’atini, mahoratini tashkil qiladi. Notiq yaxshi gapirgan bilan uning nutqi ishonch tug’dirmasa, o’z fikrini asoslamasa, barchasi zoye ketadi. Tarixdan bunga ko’plab misollar keltirish mumkin. Masalan, shulardan biri: mashhur Suqrot (Sokrat) o’zini himoya qilish maqsadida juda ijobiy nutq so’zlagan, biroq afinalik matros va savdogarlar qalbiga yo’l topa olmadi. Shu bois ular, uni tushunib yetishmadi va uni noto’g’ri falsafiy qarashlari uchun o’limga hukm qilishdi. Shuning uchun notiq biror kishini ishontirmoqchi bo’lsa, vaziyatga ijodiy yondashib, nutqni ishonarli qilib tuzishi kerak. Ba’zan bir dalil, isbot bir vaziyatda o’zining kuchini ko’rsatsa, boshqa bir vaziyatda u ish bermasligi mumkin. Shuni e’tiborga olib, nutq jarayonida xatomiz nimada ekanligini aniq ko’ra bilsak, haqiqat tomon juda osongina yo’l topa olamiz.

O’z fikrini isbotlashning eng yaxshi yo’li – dalillar bilan isbotlash, biroq faktlarni ham o’z o’rnida ishlata bilish kerak. Bunda, falsafiy nuqtai nazardan, alohida-alohida holda mavjud

bo'lgan dalillarni umumlashtirib, shundan keyin xulosa chiqarish masalaning muhim tomonidir.

Forobiy isbotda ilm, ritorikada ishontirish ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi [Форобий 1979: 18].

Aynan bir xil dalillar bo'yicha turlicha fikr yuritish, u yoki bu tushunchalarni turlicha talqin qilish mumkin. Bunda bizning qanday til vositalarini tanlay bilishimiz va nutqni tashkil qilishda qanaqa usullardan foydalana olishimiz ko'zda tutilgan nutqning taqdirini hal qiladi. Masalan, rus yozuvchisi I.S.Turgenev o'zining "Ридин" nomli romanida Pigasov bilan Rudin o'rtasida bo'lib o'tgan munozarani tasvirlaydi. Bu ikki shaxs bir-biridan tubdan farq qiladigan xulq-atvorga ega. Pigasov o'z raqibini ayblash uchun barcha tuxmatlarni yog'diradi, so'ngra o'ta qo'polikka ham o'tadi. Rudin esa bu holatda butunlay boshqacha yo'l tutadi: u osoyishtalik va ajoyib nazokat bilan raqibining har bir fikrini rad etib, uni yengadi. Nazokatlilik, adablilik qo'pollik ustidan g'alaba qozonadi. Mana ular o'rtasida bo'lib o'tgan munozaradan bir parcha:

"- Umumiy gaplar! – deb Pigasov davom ettirdi, - mening o'limim, bu umumiy gaplar, xulosalardir!. Bularning barchasi maslakka (ishonchga) asoslanadi: har kim o'z maslagi haqida fikr yuritib, boshqalarning unga hurmat bilan qarashini talab qiladi...

- Juda soz! – dedi Rudin, - demak, sizning-cha, ishonch, maslak degan narsaning o'zi yo'q narsami?

- Yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

- Bu sizning maslagingizmi?

- Ha.

- Unday bo'lsa, nega uning bo'lishi mumkin emas deysiz? Mana shuning o'zi uning mavjudligiga bo'lgan bir misol.

Xonada hamma kulishib, bir-biriga qarab qo'yishdi".

Ko'rinadiki, mashhur yozuvchi o'z qahramonlari nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanib, birini ikkinchisining ustidan g'alaba qildiradi.

Xullas, bahsdagi har qanday hiylaga asosli dalil bilan qarshi turib, notiq o'zining so'z san'atining, nutq madfaniyatining yuqori

darajada ekanligini namoyish qila bilishi lozim [Одинцов 1988: 159-170].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yaxshi nutqni hosil qilishda til vositalarining o'rni qanchalik muhim bo'lsa-da, o'z qobig'ida ushbu til vositalarining aloqasini ta'minlaydigan matnning stilistik strukturasi undan ham ahamiyatlidir. Chunki muomala vaziyatiga mos matngina tegishli nutqni vujudga keltira oladi. Binobarin, matn strukturasi namunali, madaniyatli nutqni hosil qilishda hal qiluvchi omildir.

Binobarin, yaxshi nutq uchun birgina so'zning o'zi kamlik qiladi, buning uchun u ongli, mas'ul va dadil fikrga yo'g'rilgan bo'lishi bilan birga muomalada ishonchli va natijaga erisha oladigan kuchga ega bo'lishi ham lozim. O'z navbatida tinglovchi ushbu nutqning to'g'ri, foydali va yoqimli ekanligiga ishonch hosil qilishi o'ta muhimdir. Shuningdek, bunda notiq (o'qituvchi) auditoriyani inobatga olib, uni tinglash va tushuntirishga, ya'ni eshitgan narsasini asosli, dalilli tarzda qabul qilishga o'rgatishi ham muhim o'rin tutadi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Nutqning o'rinliliği nimalarda ifodalanadi?
2. Nutqning maqsadga muvofiqliği deyilganda nimani tushunasiz?
3. Fikrni dalillash (isbotlash) da til vositalarining o'rni, ularni tanlay bilish haqidagi fikrlaringizni so'zlab bering.
4. Bir xil hodisalar haqida turlicha hukm chiqarish xususida nimalarni bilasiz?

## ILMIY MUOMALA VA TA'LIM JARAYONIDA NUTQ MADANIYATI

Ilmiy texnika rivojlangan bir davrda oliy va o'rta maktab o'qituvchisi bilan talaba o'rtasidagi o'quv muomala va ilm-fan bilan shug'ullanuvchilar o'rtasidagi ilmiy muomalaning ahamiyati oshib boradi. Bunda kishilar o'rtasida atama tanlash bo'yicha ma'lum malaka va ko'nikmalar hosil bo'lib borishi taqozo etiladi. Albatta, ushbu jarayonda faqat ma'lum atamalar bilangina emas, balki tilning boshqa vositalari bilan ham ish ko'riladi, biroq shunday bo'lsa-da, atamalar ustivorlik qiladi. Shu bois bu haqda to'xtalishga to'g'ri keladi.

Odatda atama deyilganda ilmiy, texnik, ishlab chiqarish, idora-boshqaruv va boshqa sohalardagi kishilarning o'ziga xos muomala ehtiyojlarini qoniqtirish uchun mo'ljallangan so'z yoki ot so'z turkumidan ergashish yo'li bilan vujudga kelgan so'z birikmasi tushuniladi. Atama kasb-korga xos tafakkur va borliqni mutaxassislarga xos tarzda qabul qilishda muhim quroldir.

Aslida atama har qanday ehtiroslar hamda sinonimlardan xoli bir ma'noli so'z bo'lishi kerak. Shunday bo'lsa-da, ko'pgina atamalarda bir ma'nolikni ko'rmaymiz. Shu bois o'quv va ilmiy muloqotda atama qo'llashda ana shu qiyinchiliklarni yengib, ularning bir ma'noli bo'lishini ta'minlash o'ta zarurdir. Biroq bunga hamisha ham erishib bo'lmaydi. Buning asosiy sababi: ko'pgina ilmiy ishlarning va o'quv suhbat va ma'ruzalarning mualliflari fan tomonidan allaqachon qabul qilingan atamalarga o'zlaricha qandaydir boshqacha ma'no, tus bermoqchi bo'lib, o'quvchilarni chalg'itadi hamda ushbu atama o'ziga yonma-yon so'zlar bilan bir sintagmatik qatorga qo'yilganda, ularga qovusha olmaydi. Natijada o'quvchi masalaning mohiyatiga yetmay qiynaladi. O'quvchi yoki tinglovchi muallifni tushunish uchun hech bo'lmaganda muallif tomonidan so'z va so'z birikmalarining bir ma'noda qo'llanishi va tushunilishi lozim. Lekin, yuqorida ta'kidlanganidek, real nutq faoliyatida buning aksini tez-tez ko'rib turamiz. Biz buni atamalar masalasida ham ko'rishimiz mumkin.

Nutq faoliyati paytida soʻz tanlash, xususan, atama tanlashdagi asosiy xato va kamchiliklarni aniqlash fan uchun ham, nazariy fanlarni oʻtish uchun ham, nutq madaniyati haqidagi taʼlimot uchun ham juda muhimdir. Bunda atama qoʻllash nutq madaniyati meʼyori, maqsadga muvofiqligi tomonidan boshqarilishi va uning umumiy talablariga boʻysunishi kerak. Atama tanlashda sabab boʻladigan asosiy xato va kamchiliklar quyidagilar: 1) atamadagi polisemiyalikni ilgʻay bilmaslik; 2) matnda atamaning asosiy maʼnosini emas, balki boshqa bir maʼnosini qoʻllash; 3) atamaning oʻz atrofidagi soʻzlar bilan mantiqsiz ravishdagi semantik-sintaktik munosabati; 4) muayyan vaziyat uchun atamani nooʻrin qoʻllash, belgilash; 5) aynan bir atamani matnning turli joylarida maʼno va mantiq jihatidan qoʻllashdagi qarama-qarshilik (ziddiyat)lar; 6) atamani qoʻllashdagi noaniqlik; 7) atamaning bir maʼnosini butunlay boshqasi bilan almashtirish va boshqalar.

Xuddi shu maʼnoda hozirgi filologik atamashunoslikda atama tanlashda ham hato va kamchiliklar mavjud. Masalan, agar “maʼno” va “semantik” soʻzlari toʻgʻri aniqlanmasa, polisemik soʻzlar qatorini tashkil qiladi. Biror bir oʻquv darsligida: “Til birliklarining maʼnolari narsa (buyum) va predmetlar olamini aks ettiradi”, deyilsa, yana oʻsha kamchilik bartaraf etilmagan boʻladi, yaʼni “maʼno” va “semantik” atamaları oʻrtasidagi farq ravshanlanmay qoladi, shuning uchun bir soʻzli atamani ikki soʻzliga aylantirib, leksik maʼno (yoki semantika), grammatik maʼno (yoki semantika), stilistik maʼno (yoki semantika) deyilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Yoki 7-8-sinflar uchun moʻljallangan “Русский язык” darsligida “fonetika”, “frazeologiya”, “soʻz yasalishi”, “morfologiya”, “sintaksis”, “grammatika” atamalarining maʼnolarini berishda tilning xususiyatlari emas, balki uning boʻlimlari nazarda tutilgan. Oqibatda oʻquvchi tilning mohiyati haqida tuzukroq maʼlumotga ega boʻlmasdan qolgan.

Aynan shu holatlar ayrim darslik va qoʻllanmalarda “til”, “nutq”, “shakl”, “funksiya (vazifa)” kabi atamalarni qoʻllashda ham uchraydi.

Binobarin, atamani aniqlash bilan uning mohiyati o'rtasidagi nomuvofiqlik, birinchi navbatda, mantiqqa aloqadordir. Shuningdek, muloqotda nutqqa bo'ladigan talablardan biri aniqlikdir. Faqat aniqlik so'zning ma'nosi bilan u ifodalagan predmet o'rtasidagi, so'ngra gap semantikasi bilan gap ifodalagan aloqalar va predmetlarning munosabatlari hamda ularning belgi xususiyatlari o'rtasidagi mutanosibligini ta'minlaydi. Agar bu moslik buzilsa, nutq aniqligi ham buziladi.

Xullas, har bir o'qituvchi o'z tinglovchisi (o'quvchi)lari bilan dastavval ma'ruza (maqola, kitob)da so'z yuritiladigan zarur atamalar, ularning moddiy va tushuncha mutanosibligi haqida fikrlashib olishi kerak. Shu bois ma'ruzani til uslublari va nutq uslublari haqida boshlash maqsadga muvofiq emas, balki bunga qadar, tinglovchilarga "til" va "nutq" atamalarining nutqi haqida, ulardagi predmet va tushuncha munosabatidagi farq va o'xshashliklar haqida ma'lumot berishi, albatta, shart. Ma'ruza mohiyatining tinglovchilarga to'la tushunilishining birdan-bir yo'li ma'ruzada qo'llanilgan atamalar ma'nolarining mantiqli va aniq izohidir. Bu esa, muloqotning barcha turida atama qo'llash madaniyatini oshiradi [Головин 1988: 270-286].

Xullas, o'qituvchi ma'lum mavzu bo'yicha atamalar tanlashda yoki nutq madaniyatining boshqa dolzarb va muhim masalalari bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirayotganida sinchkov tadqiqotchiga xos katta va boy bilim, chuqur tafakkur xolisona tahlil madaniyatiga ega bo'lmog'i kerak. Ilm halollikni talab etadi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida atamashunoslik muammolari haqidagi fikrlaringiz.
2. Ilmiy tadqiqotlarda va ta'lim jarayonida so'zga oqilona munosabatda bo'lish deganda nimani tushunasiz?
3. So'z, atamalarni to'g'ri va aniq tanlash mavzuning yoritilishida asosiy omil ekanligini so'zlab bering.
4. Atamaga ta'rif bering.

# O'ZBEK TILINING TASVIRIY VOSITALARI VA NUTQ MADANIYATI

Qadimdan kishilar o'z nutqlarining ta'sir kuchini oshirish maqsadida til birliklaridan tasviriy vosita sifatida foydalanishgan. Davr o'tishi bilan tasviriy vositalar tarkibi ham son, ham mazmun jihatdan boyib, takomillashib borgan. Lekin hamma ham bu tasviriy vositalardan bab-baravar bir xilda foydalana olish imkoniyatiga ega bo'la olishmaydi. Bu bevosita har bir so'zlovchi (yoki yozuvchi)ning tilni bilish imkoniyatlariga bog'liq. Shu bois kimningdir nutqi chiroyli, jozibali bo'lsa, boshqa bir kishining nutqi fayzsiz bo'ladi.

To'g'ri, aniq, yoqimli va mantiqli so'zlash uchun til boyliklaridan nutq mazmuniga xos zarur so'zni tanlay olish, so'z shaklini va gap turini to'g'ri qo'llash, uslub birligini saqlash, nutqning ta'sirchan bo'lishini ta'minlash lozim. So'nggi holat filologiya fanida "sintaktik figuralar va troplar" deb nomlanuvchi tasviriy vositalar bilan bevosita bog'liqdir.

Shularda sintaktik figuralar nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibador qiladigan muhim uslubiy stilistik vositadir. Shu bois sintaktik figuralar ma'lum darajada nutq musiqasi deb ham yuritiladi [Шомаксудов ва б. 1983: 228].

Darhaqiqat, ushbu til vositalari nutqiy jozibadorlikni hosil qilishga xizmat qiladi. Shu maqsadda ijodkoru notiqalar ifoda vositalarining turli-tuman turlaridan foydalanib, adabiy me'yor doirasida nutq (yozma yoki og'zaki)ning ta'sirchanligini oshirishga harakat qilishadi [Каримов 1994: 42].

Biz quyida sintaktik figuralardan anafora, epifora, takror, sintaktik parallelizm, antiteza (tazod), gradasiya (kuchaytirish), ritorik so'roqlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**1. Anafora.** Bu usul bilan nazmiy yoki nasriy asarda misralar boshida so'z yoki birikma takrorlanadi, masalan:

Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,

Bir o'lkaki, qishlarida shovillar bahor.

Bir o'lkaki, sal ko'rmasa quyosh sog'inar.

Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.



Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvillaydi.

(Ойбек. Ўзбекистон.)

Anafora nutqqa joziba bag'ishlaydi, uning ma'nosini kuchaytiradi [Karimov 1994: 57].

**2. Epifora.** Bunda jumla oxirida tovush, so'z va so'z birikmalari takrorlanib, o'quvchi diqqati takrorlangan lisoniy birlik ifoda qilgan ma'noga jalb qilinadi. Masalan:

Boqchalarda gullar so'ldi, sezmadim,

O'stirganlar yetim bo'ldi, sezmadim

Ko'ngillarga qora to'ldi, sezmadim,

Sezdim sening ketganingni ko'ngildan

(Чўлпон. Улуғ йўловчига.) Каримов 1994: 57].

**3. Takror.** Bu nutqda ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish, til birlik (so'z, gap bo'lagi, gap)lari yordamida nutqqa hissiy bo'yoq, alohida ohang va joziba berish uchun xizmat qiladi, masalan:

Vakil qilamiz! Vakil qilamiz! – qizlar quvonchlarini oshkor bildirib chug'urlashdi (X. Fuлом) [Шомақсудов ва б. 1983: 232].

**4. Sintaktik parallelizm.** Bunda tuzilishi bir xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq gap ketma-ket keladi. Ushbu usul bilan ham nutq ifodaliligi kuchaytiriladi, masalan: Xolmatjon uchun Chortherakning sira qizig'i qolmagandi: na akasi, na ukasi bor uning Chortherakda (С. Ахмад) [Шомақсудов ва б. 1983: 233-234].

**5. Antiteza (tazod).** Bu usul mantiq jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikr, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslashdir. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda qiluvchi grammatik vositalar, shuningdek, ifodalilikning boshqa zidlash vositalari qo'llanib, fikrning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, masalan:

Barcha shodlik senga bo'lsin,

Bor sitam, zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu

Barcha xushtorlik menga...

Bu jahonning rohatin ol,

Bor azobin menga ber,  
Senga bo'lsin barcha orom,  
Barcha bedorlik menga.

(Э.Воҳидов. барча шодлик сенга бўлсин.)

[Шомақсудов ва б. 1983: 234].

**6. Gradasiya (kuchaytirish).** Bu ifodalilikni birin-ketin kuchaytirib yoki pasaytirib borish usulidir. Bunda metafora, epitet, sinonimiya kabi ifoda vositalaridan foydalaniladi. Gradasiya gap, gap bo'lagi shaklida bo'ladi, masalan:

Eng arriq, eng qattiq, eng och, qoq yerda

Biz omoch surganmiz-qo'llarda kishan.

(Х.Олимжон. Маҳорат.) [Шомақсудов ва б. 1983: 234].

**7. Ritorik so'roq va ritorik undov.** Ritorik so'roq gaplar muallif his-tuyg'usini ifodalash vositasi bo'lish bilan birga, o'quvchi diqqatini ham suhbatga tortadi, ya'ni voqyeaga fikr bildirishga undaydi. Odatda bunday savollar javob talab qilmaydi, savolning o'zidan javobni uqib olish mumkin. Bu usul azaldan Sharq she'riyatida keng qo'llangan. Hozirgi ijodkorlar ham bundan unumli foydalanishadi, masalan:

Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lagan?

Yolg'iz menmi har umidda aldangan?

Yolg'iz menmi ko'kragimni tig'lagan?

Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmagan?

Ey ko'klamning ko'z tortg'uvchi kelini,

Nima uchun yig'latasan bir meni?

(Cho'lpon. Ko'klam qayg'usi)

Ritorik undovda ham, ritorik so'roqda ham ma'noning baholash nozikligi mavjud va har ikkalasi ham o'ziga xos ohang bilan aytiladi. Birinchisida faqat berilgan mazmunning aksi ifodalansa, ikkinchisida esa nutqqa tantanavorlik ruhi beriladi, masalan:

Ay tutqunlar, ay ezilgan,

Ay qiynalgan, yo'qsil ellar,

Ay umidsiz, ay chizilgan

Dor oldiga... oppoq dillar

Ay bevalar, bechoralar

Ay bog‘langan kishanlarga,  
Ay erk uchun ovoralar,  
Ko‘p yalinmang siz ularga.

(Чўлпон. Виждон эрки.) [Каримов 1994: 50-51].

Endi tasviriy vositalarning ikkinchi turi-troplar tahliliga o‘tamiz. Ma‘lumki, tildagi ko‘pgina so‘zlar o‘z ma‘nosidan tashqari boshqa ma‘nolarni, hatto ba‘zan o‘z ma‘nosiga qarama-qarshi bo‘lgan ma‘nolarni ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Bir predmet belgisi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi, o‘xshatiladi.

Adabiy asarning badiiy qiymatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma‘noda ishlatilishi trop deyiladi [Шомақсудов ва б. 1983: 236].

Quyida nutqda muhim tasviriy vositalar sifatida ishlatiladigan troplardan metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet (sifatlash), o‘xshatish, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraz, mubolag‘a va litota (kichraytirish), allegoriya, simvol, jonlantirishlarni ko‘rib o‘tamiz.

**1. Metafora** (grekcha metaphora – ko‘chish, istiora degani). Nutqqa obrazlilik, emosiya berish maqsadida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘zlar va iboralarning ko‘chma ma‘noda ishlatilishi metafora deyiladi. Masalan, kishining yoshligini “g‘uncha”, yigitlik davrini “umrning bahori” kabi so‘z va so‘z birikmalari, “o‘ldi” so‘zini “xazon bo‘ldi”, “so‘ldi” so‘zlari bilan almashtirish mumkin. Chunki bu so‘zlar anglatgan ma‘nolar o‘rtasida qandaydir umumiylik, yaqinlik mavjud [Шомақсудов ва б. 1983: 236].

Metaforani o‘zbek tili funksional uslublarining barchasida uchratish mumkin. Ammo ular ma‘lum darajada obrazlilikini yo‘qotgan an‘anaviy metaforalar bo‘lib, boshqa uslublarda fikrni reallashtirish yoki uning ahamiyatini alohida ko‘rsatadigan yordamchi vosita sifatida uchrab tursa, badiiy uslubni metaforasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi va bu uning alohida belgisi tarzida qaraladi. An‘anaviy metaforalarga “arslon, sher, bo‘ri, ilon,

boyqush, g'iroat, lochin, shunqor, samandar, ajdaho, ohu, kiyik” kabilar kiradi [Каримов 1994: 19].

Mumtoz adabiyotda metafora majoz nomi bilan yuritilgan va u bilan yonma-yon “istiora” atamasi ham ishlatilgan.

Badiiy metaforaning eng yaxshi namunasini H.Olimjonning “Бахтлар Водийси” she’ridan keltirilgan quyidagi parchada ko‘rish mumkin:

Ko‘m-ko‘k vodiylarda

Po‘lat izlardan (temir yo‘l)

Kelayotir poyezd

Uchib, qarsillab,

Elektrik tomiridan (elektr simi)

Oqqan qonlardan (elektr simi)

Butun o‘lka shimirayotir

Chanqab, harsillab [Шомаксудов ва б. 1983: 237].

Badiiy metafora yozuvchining individual uslubini aniqlashda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

**2. Metonimiya** (grekcha metonymia so‘zidan olingan bo‘lib, boshqacha nom berish degan ma‘noni bildiradi). Metonimiya hodisasi ham so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi bilan bog‘liq. Metaforada bir-biriga o‘xshash predmetlarning belgilari ko‘chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo‘lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlarning belgilari chog‘ishtiriladi.

Ushbu chog‘ishtirishning bir necha turi bor.

2.1. Narsa (idish) ichidagi narsaning ma‘nosi o‘sha narsa (idish)ga o‘tkaziladi: “bir tovoq palov yedim” deyish o‘rniga “bir tovoqni tushirdim” deyiladi.

2.2. Muallif nomi uning asari nomi bilan qo‘llanilishi: “Navoiyni o‘qidim” iborasi “Navoiy asarlarini o‘qidim” ma‘nosida tushuniladi.

2.3. Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajaruvchi qurol nomi bilan almashtiriladi: Uning perosi qasos o‘ti bilan yonardi (A.H. Толстой).

2.4. Biror narsani u yasalgan material bilan almashtirish:

Yer kurrasida bo'lgan proletar

Salomi,-

do'stlik ilhomi-

po'lat karvonlarda

hayqirib kelajak. (F.F.).

2.5. Ma'lum o'rinda yashab turgan kishilar ma'nosi shu yerga ko'chiriladi:

Majlisga butun qishloq keldi. (A.Қ.).

2.6. Aniq tushuncha nomi o'rnida mavhum ma'noli ot qo'llaniladi:

Odamlar esnaydi, mudraydi, majlis raisga ho'mrayib qaraydi. (A.Қ.) [Шомақсудов ва б. 1983: 237-238].

Ko'rinadiki, metonimiya badiiy tasvir, obraz yaratishda o'ziga xos tasviriy vosita vazifasini o'taydi.

**3. Sinekdoxa** (grekcha synekdoche so'zidan olingan). Bu yerda qiyoslash predmetning soni bilan bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra butun o'rinda qism (yoki aksincha) yoki birlik o'rnida ko'plik (yoki aksincha) qo'llaniladi.

3.1. Butun o'rnida qism: ba'zan biror kishini chaqirish uchun uning ismi bilan emas, balki kallasi katta bo'lsa, "ey kalla" deb chaqirish.

3.2. Ko'plik o'rnida birlikni ishlatish: Jangchi o'zbek! Sen bilan bizning oramiz uzoq. Lekin ko'nglimiz yaqin. (X.O.).

Demak, sinekdoxalarda umumlashtiruvchilik imkoniyati mavjud. Bundan tashqari ular takrordan qochishga, yaqinlik ma'nosini ifodalashga, ayrim ma'nolarni ta'kidlashga xizmat qiladi. Shu tufayli so'zlarda ma'no o'zgarishi yuz berishi va ularning yangi tushunchalarni ifodalashi til rivoji uchun, oqibatda nutqni rang-barang qilish uchun juda ahamiyatlidir [Каримов 1994: 29-30].

**4. Epitet (sifatlash).** Epitet nutq jarayonida kishilarning predmet yoki voqyea-hodisalarning ma'lum sifatini alohida bo'rttirib ko'rsatadi. Shuningdek, o'sha predmet yoki voqyea-hodisaga badiiy bo'yoq beradi, obrazlilikni tug'diradi. Epitetlarning bir necha turi bo'lib, ulardan badiiy adabiyot doirasida, xususan, xalq og'zaki ijodida doimiy epitetlar juda

xarakterlidir. Bu epitetlar xalq tomonidan, san'atkoru baxshilar tomonidan anchadan beri qo'llanilib kelinayotgan, yaxlit holiga kelgan an'anaviy tasviriy vositalardir. Bularga, chunonchi, er yigit, sher yurak, dev qomat, keskir shamshir kabilar kiradi.

Bezak epitetlar deb ataluvchi yana bir tur tasviriy vositalar ham xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladi, masalan: Uzangisi quyma oltin, Quyushqoni quyma oltin, Yuganining boshi oltin, Egarining qoshi oltin, Qamchisining sopi oltin. (Э.Жуманбулул. Равшан).

Badiiy uslubga xos haqiqiy epitetlar metaforik epitetlardir. Ularda obrazlilik ham, baholash ma'nosi ham kuchli bo'ladi, masalan: Qish chalar chalg'isin, asir yellar, Ko'k va yerlarda qor kular, o'ynar. (X.Олимжон); Hali oldindadir go'zal kunlarim, hali lab tegmagan kulgular oldda. (А.Орипов. Hali oldindadir.) [Каримов 1994: 21-23].

**5. O'xshatish.** O'xshatish narsa va hodisalar hamda ularni ifodalovchi tushunchalarning nutq jarayonida ayrim jihatlar va sabablarga ko'ra yaqinligidan kelib chiqib amalga oshiriladigan subyektiv qiyoslashdir [Каримов 1994: 8].

O'xshatish eng qadimiy tasviriy vositalardan bo'lib, ko'p qo'llanadigan sintaktik hodisadir. U, asosan, nutqiy hodisa hisoblanadi. Shuningdek, badiiy asardagi obrazlar dinamikasida insonlar, ularning fazilatlarini, borliqdagi narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslashda o'xshatish eng qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. O'xshatish quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: 1) o'xshatilgan narsa; 2) o'xshatiladigan narsa; 3) o'xshatish uchun asos bo'lgan belgi; 4) o'xshatish vositasi. Masalan:

Bog'lardagi qip-qizil lola  
Bo'lib go'yo yoqut piyola,  
Buloqlardan uzatadi suv,  
El ko'zidan qochadi uyqu.

(X.Олимжон.)

Ushbu misolda o'xshatilgan narsa (1) lola, o'xshatiladigan narsa (2) piyola, asos (3) yoqut va o'xshatish vositasi (4) go'yo.

O'xshatishlar tuzilishiga ko'ra, quyidagi unsurlardan tashkil topgan bo'ladi:

1) o'xshatish iboralari: Mana O'ktam hayajonlanib, go'yo butun dalani quchog'lagusi kelganday, qizg'in va baland ruh bilan terimga kira boshladi. (Oйбек);

2) o'xshatish ergash gaplar: Erkalanib yotadi u Vatan tuprog'ida, Yosh bola yotganday onaning quchog'ida. (X.Олимжон.);

3) izohlovchi – izohlanmish munosabatidagi o'xshatishlar: sog'lig'ing-boyliging;

4) chiqish kelishigi qo'shimchasi yordamida ifodalangan shakl: To'g'ri so'z qilichdan o'tkir. (Maqol);

5) –day (-dek), -simon, -ona, -omuz, -ga, -chasiga (asiga), -larcha kabi qo'shimcha morfemalar yordamida ifodalangan o'xshatish shakli: guldek, oyday, odamsimon maymun, shoirona, kinoyaomuz, harbiychasiga, bolalarcha kabilar;

6) sifat (o'xshash, teng), ko'makchi (kabi, singari, qadar), bog'lovchi (go'yo, go'yoki), olmosh (o'zi), ravish (misoli, yanglig', aynan) kabi so'zlar va yordamchilar vositasida ifodalangan o'xshatish shakli;

7) birdan ortiq vosita ishtirok etgan o'xshatish shakli: Ana shu haqiqat go'yo Adolatni uyqudan uyg'otgandek bo'ldi, uni dalaga mehnatga chaqirdi. (И.Раҳим. Чин мухаббат.) [Шомақсудов ва б. 1983: 239-241].

Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy uslubda ushbu vositalardan boshqa funksional uslublarga nisbatan keng foydalaniladi. Boshqa uslublarda ular narsa va hodisalarni qiyoslash uchun xizmat qilsa, badiiy uslubda shu bilan birga badiiy-estetik vazifani ham bajaradi [Каримов 1994: 13].

**6. Ironiya.** Ironiya ham badiiy va so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladigan stilistik vositadir. Bunda nutq muallifining boshqa bir shaxsga, narsa va hodisaga bo'lgan salbiy munosabati tildagi hayvon, it, ho'kiz, eshak, ablah, iflos, yaramas singari vulgar so'zlar bilan emas, balki muloyim so'z, iboralar yoki gaplar yordamida ma'lum qilinadi. Bunda til birliklari o'z ma'nosida

bo'lmisdan, butunlay teskari ma'noda ishlatiladi. Ironiyalar hamma vaqt ham kulgi tug'diruvchi vosita sanalmaydi. O'ta jiddiy kinoyalarni ifodalashda ham ironiya qo'l keladi, masalan:

Bizning paxtaga-ku hamma muntazir,  
Yer yuzi o'rtada ko'rmoqda baham...  
Bayon etmoqdaman fikrimni hozir,  
Bugun olib keldik o'timizni ham.

Gaz degan, do'stlarim, nima bo'libdi,  
Azaldan jonimiz sizga sadaqa.  
Jahonku rost gapni ko'rib turibdi,  
Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa.

A.Oripovning 1967 yilda Buxoro gazining Moskvaga yetib borishini ana shunday istehzoli misralarda tasvirlashi bunga yaqqol misol bo'la oladi [Каримов 1994: 32-33].

**7. Antifraza.** Adabiyotlarda antifraza ironiyaning ko'rinishi sifatida izohlanib, u ham piching, kesatiq, masxaralash, istehzo, ba'zan mensimaslik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, A.Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida farishta so'zi butunlay teskari ma'noda qo'llangan, ya'ni o'zini farishtasifat, ayol qiyofasiga solib yurgan odam aslida yaramas, mulla Norqo'zining xotini bilan o'ynashib yurgan erkak [Каримов 1994: 35].

**8. Sarkazm.** Sarkazm ironiyaning eng yuqori, kulminasion darajaga yetgan nuqtasidir. Ammo bunda salbiy munosabatni ifodalayotgan kulgi achchiq zaharxandaga, piching masxaralashga, g'azabga aylanadi, masalan:

Qo'lingga solmishlar tilladan zanjir,  
Shahzoda yigitga hurmat bu axir. (A.Орипов. ММИН Мирзо.)

Ushbu misralarda qahrli alam tuyg'usi ifodalangan [Karimov 1994: 35-36].

**9. Perifraz.** Kishilarning yoki boshqa narsalarning nomlarini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki



tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Masalan: X.Davronning Oybek haqida yozgan she'ri ushbu tasviriy vositaning yaxshi namunasidir:

Oybek – bu maysaga cho‘kkan tosh,  
Hayratdan yorilib-yorilib ketgan.  
Oybek – bu daraxtzor ustida quyosh,  
Nuri to chumoli ko‘ziga yetgan [Каримов 1994: 31].

**10. Mubolag‘a va kichraytirish (giperbola va litota).** Bu ikkala tasviriy vosita ham ko‘chma ma’noga asoslangan. Lekin boshqa vositalardagi ko‘chma ma’noda qandaydir o‘xshatilish tushnilsa, bu haddan tashqari kuchaytirish yoki kichraytirish to‘g‘ri ma’noda tushunmaslikni taqozo qiladi, masalan:

Vahki ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun.  
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun.  
(А.Орипов. Бу кун.)

Chingiz Olatovga baxsh etdi yurak,  
Mirzo g‘azalidan kuldi Badaxshon...  
Men yurtimni yozsam bo‘lmog‘i kerak  
Osmon oq qog‘ozu dengiz siyohdon.  
(Э.Воҳидов. Куёш маскани.) [Каримов 1994: 36-37].

Birinchi to‘rtlikda “ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun” iborasi bilan mubolag‘a, ikkinchidagi “Osmon oq qog‘ozu dengiz siyohdon” iborasi bilan esa kichraytirish ifodalangan.

**11. Allegoriya.** Allegoriya stilistik usul sifatida badiiy uslubning ajralmas belgisidir. Bu usul tufayli yozuvchi katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Bunda u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda ayta olmagan fikrini bemalol ayta oladi, bu bilan obrazlilik o‘z o‘rniga qo‘yiladi. Yozuvchining bunday ijodiy izlanishi tufayli so‘zlar ma’nosida kengayish yuz berishi mumkin, masalan:

Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni.  
Itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni.

(Мақол.) [Каримов 1994: 38; Шомақсудов ва б. 1983: 244].

Ushbu maqolda “it” so‘zi o‘z ma’nosida kelmay, ko‘chma ma’no “odamlar” ma’nosini ifodalamoqda.

**12. Simvol.** Simvol metaforaning bir ko‘rinishidir. Badiiy nutqda hayotiy voqeya, tushuncha va narsalar ifodasi uchun so‘zlarning ma’lum ravishda ko‘chma ma’nodan ishlatilishi simvol deyiladi. Ko‘chma ma’nodan ishlatiladigan so‘z, birikma yoki narsa, voqeya nomi qandaydir bir xususiyati bilan o‘sha hayotiy voqeya va tushunchalarni eslatib turishi kerak. Masalan: tong-quvnoqlik, yoshlik, baxt ramzi (simvoli), tun baxtsizlik ramzidir.

Simvol har bir ijodkorning individual dunyoqarashi bilan bog‘liq. U ko‘proq narsa yoki voqeyaning ko‘rinishi va shakli emas, balki shu haqda muallif ko‘rganidan qolgan sezgi va taassurotlariga asoslanadi [Шомақсудов ва б. 1983: 245]. Masalan, A.Oripovning “Tilla baliqcha” she’rida tilla baliqcha o‘z qadriga yetmaydigan, imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydigan, dunyoning go‘zalliklarini his qila olmaydigan, boriga qanoat qilib yashayveradigan bechora kimsalarning ramzidir [Каримов 1994: 39].

**13. Jonlantirish.** Bu usul ham badiiy uslubga xos bo‘lib, metaforaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu tasviriy vosita yordamida narsa va hodisalar jonlantirilib, ular huddi insonlardek harakat qiladi va “gapiradi” hamda shu yo‘l bilan badiiy obraz yaratiladi. Masalan, A.Oripovda shunday misralar bor: Kuzning rutubatli oqshomi edi, Bog‘lar sekingina chekar edi oh. (A.Oripov. G‘uzallik.)

Ushbu parchadagi “Bog‘lar sekingina chekar edi oh” misrasida makon ma’nosini anglatgan narsa,- bog‘ni insonga qiyoslab, shoir unga insonga xos xususiyatni bermoqda [Каримов 1994: 40].

Jonlantirishning yana bir ko‘rinishi personifikasiya deyiladi va u ham badiiy adabiyotda, ayniqsa, ertak janrida keng iste’molda bo‘lib, bunda jonivorlardagi xislatlar odamlarga ko‘chiriladi.

Ko‘rinadiki, yuqorida sanab o‘tilgan tasviriy vositalar tilning aksariyat funksional uslublarida, ayniqsa, badiiy va so‘zlashuv uslublarida muallif his-tuyg‘ularini aniq, lo‘nda va ta‘sirchan qilib ifodalashda, obrazlilikni vujudga keltirishda ishtirok etadi. Ushbu vositalardan unumli foydalanish har bir ijodkorning dunyoqarashiga bog‘liq. Ma‘naviy salohiyatli ijodkor doimo izlanuvchan bo‘lib, nomlari tilga olingan tasviriy vositalarni faol ishlatish bilan birga, ularning yangi qirralarini ochib beradi yoki ularning qatorini yangilari bilan boyitib boradi. Buning natijasida, ijod mahsuli sifatida tilda yangi tasviriy vositalar paydo bo‘ladi, faol muomalaga kirib, til materialiga aylanadi [Каримов 1994: 7].

Xullas, til vositalari ijtimoiy faoliyatning biror doirasida qo‘llanar ekan, faqat mana shu doira uchun zarur bo‘lgan shaklga solinadi.

Ko‘rinadiki, tasviriy vositalar nutqqa badiiylik bo‘yoqlari berishning eng muhim til unsurlari hisoblanib, o‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayonida ulardan unumli va o‘rinli foydalanishi lozim. Zero, ushbu til vositalari nutqqa jo‘shqinlik bag‘ishlaydi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Tasviriy vositalarning tildagi o‘rni va vazifalarini aytib bering.
2. Tasviriy vositalarning nutq madaniyatiga munosabati nimalarda ifodalanadi?
3. Anafora va epiforalar badiiy uslubda nimasi bilan takror usulidan farq qiladi?
4. Sintaktik parallelizmning nutq ifodaliligini kuchaytirishdagi ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.
5. Antiteza, gradasiya, ritorik so‘roq va ritorik undovlarga misollar keltiring.
6. Troplar tasviriy vositalarning ikkinchi turi ekanligini izohlab bering.

7. Troplarning har bir turining ta'rifini berib, misollar keltiring.
8. Tasviriy vositalarga ijodkor munosabati, ijodda individuallik deganda nimani tushunasiz?

## NUTQ MADANIYATINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning ko'pgina fanlari bilan uzviy aloqada shakllanib, rivoj topib boradi. Fanlar o'rtasidagi ushbu aloqalar ildizlari to'g'ri aniqlangandagina nutq madaniyatining mohiyati to'la ro'yobga chiqishi mumkin.

Ayni paytda o'qituvchi notiq sifatida psixolog, tilshunos, pedagog, sosiolog ham bo'lishi karak. Shuningdek, u nutq madaniyati me'yorlaridan yetarlicha xabardor bo'lishi, nutq jarayoniga mos tegishli imo-ishora va ovozga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, yuqorida nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan, xususan, tilshunoslik fanlari bilan aloqasi qisman yoritilgan edi.

Quyida nutq madaniyatining tilshunoslikning sohalari va boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risidagi fikrimizni davom ettiramiz.

**1. Nutq madaniyatining stilistika bilan aloqasi.** Odatda til uslublari deyilganda ularni sifat va son jihatdan tasavvurlar sathida tushunish anglashiladi, ya'ni tilning funksional ko'rinishlari tilning uslublarni tashkil etadi. Tilning funksional ko'rinishlari, uning struktur – funksional variantlari kishi faoliyatining turlicha ko'rinishlari bilan uzviy bog'langandir. Aynan mana shu keyingi ikki holat nutq madaniyati bilan bog'liqlikni ko'rsatadi. Shunday qilib, stilistikaning obykti til uslublari va nutq uslublari, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarini o'rganish tashkil qilsa, nutq madaniyatining obykti esa ularning kommunikativ taraqqiy etish shart-sharoitlarini tadqiq etishdan iborat. Shu tarzda uslublarni va nutqning kommunikativ sifatleri tabiatidan kelib chiqqan holda stilistika bilan nutq

madaniyati o'rtasida mustahkam uzviy bog'liqlik vujudga keladi [Головин 1988: 311-312].

**2. Nutq madaniyati va grammatika.** Nutq madaniyatining asosiy tayanchi adabiy tilning grammatikasidir, chunki nutqning to'g'riligi uning asosiy fazilati bo'lib, u grammatik me'yorlarga asoslanadi. Nutq madaniyati fani grammatika orqali olingan bilimlarga suyansa ham, til materiallariga munosabatiga ko'ra undan farq qiladi. Nutq madaniyati til dalillarining grammatik me'yorlarga mos kelishi sistemasini, bu sistemani kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi shart-sharoitlarni o'rganadi. Ammo u me'yorga bo'ysunuvchi grammatik kategoriyalar, shakllar va ularning ma'nolarini o'rganmaydi. Keyingi holat grammatikaning vazifasidir [Кудраов 1993: 17-18].

Shuningdek, ma'lum davrda nutq madaniyati uchun me'yor bo'lgan grammatik shakl boshqa bir davr uchun eskirgan hisoblanadi. Masalan, Bobur Mirzoning "Boburnoma" sidan olingan quyidagi gap XV-XVI asrlarda grammatik jihatdan nutq madaniyati uchun me'yor bo'lgan bo'lsa, hozirda esa u adabiy til uchun namuna bo'la olmaydi:

Uzun Hasan va Tanbal zolim va fosiq va kofirvash ellar edi, raiyat va viloyat ellari bo'lardin bisyor og'rib edilar [Бобур 1989: 58].

Ushbu gapdagi "zolim va fosiq va kofirvash ellar" birikmasida uyushib kelgan har bir aniqlovchi "va" teng bog'lovchisi yordamida bir-biri bilan bog'langan, o'zbek adabiy tilining hozirgi bosqichida bu birikma "zolim, fosiq va kofirvash kishilar" ko'rinishiga ega bo'ladi.

**3. Nutq madaniyati va mantiq.** Nutq madaniyati ham o'quv predmeti, ham fan sifatida mantiqqa suyanib ish ko'radi. Nutq aniqligi va mantiqligining kommunikativ sifatleri mantiqsiz ro'yobga chiqmaydi. Mantiq so'z ma'nosi bilan uni ifodalaydigan tushuncha o'rtasidagi moslik darajasini belgilaydi. Shuningdek, u so'zlar, birikmalar va gaplar o'rtasidagi ma'no munosabatlarga baho beradi. Sintaktik qurilmalar orasidagi ma'no munosabatlarida qat'iylik va izchillik yetishmagan taqdirda mantiqqa murojat qilinadi [Головин 1988: 312].

**4. Nutq madaniyati va psixologiya.** Psixologiya to'g'ri yoki noto'g'ri aytilgan so'z, gapning inson ruhiga qanday ta'sir etishini ochiq-oydin qilib bera oladi. Psixologiya noto'g'ri qo'llangan u yoki bu til vositalarining inson ruhiga jarohat sola olishini izohlab beradi. Psixologiya yaxshi ifodalar yordamida inson ongiga, uning ruhiyatiga yorug' nur ham olib kira olishi mumkin. U yoki bu til vositalari nima uchun va qay holatda o'zida ifodalilikni tashiy oladi yoki, aksincha, uni yo'qotishi mumkin? Bu ko'p jihatdan nutqning kommunikativ fazilatlarini hosil qiladigan turli-tuman til birliklarining birgalikda inson ongiga ta'sir etishiga bog'liq. Agar biz nutqning kommunikativ sifatlarining kishilar ongiga ta'sirining eng muvofiq shart-sharoitlarini, ushbu fazilatlarining istalgan yoki kerakli munosabatini bila olsak edik hamda agar biz bu ta'sirning ayrim psixologik o'lchovi (me'yori)ni inobatga ola bilsak edi, nutq ta'sirining faolligini oshirish uchun asoslangan va keng miqyosli tavsiyalarni bera olgan bo'lardik.

Psixologiya bizning nutqiy muloqotimiz o'z natijalari bo'yicha yaxshi, nutq odobimiz esa har qanday vaziyatlarda ham eng muvofiq bo'lishi uchun inson nutq malakalarini ko'paytirish va mustahkamlaydigan shart-sharoitlar va vositalarni o'rganib, nutq madaniyati haqidagi ta'limotga yordamlashishi mumkin [Головин 1988: 312-313].

**5. Nutq madaniyati va falsafa.** Nutq madaniyati nutqning kommunikativ sifatlarining o'zaro munosabati va aloqasining til va ong, til, nutq va kishilar xulqining bir-biriga munosabati hamkorligini chuqur va dialektik tushunishda falsafa bilan aloqaga kirishadi [Головин 1988: 313].

**6. Nutq madaniyati va estetika.** Nutqning ifodaliligi va boyligi kabi mezonlar uning estetik tomoni bilan bog'langan. Bu mezon inson sha'ni va sharafini haqorat qilishda ifodalanadi. Aynan mana shu yoqimsizlik hayotda ko'pgina evfemizmlarni qo'llash ehtiyojini tug'diradi. Ko'pgina noestetik narsa va holatlar imo-ishora yoki boshqacha ifodalar yordamida tasvirlanadi [Васильева 1990: 85]. Masalan: "bo'g'oz xotin" deb aytish jonli tilda ham, adabiy tilda ham noqulay bo'lganligi uchun uning

o‘rnida “ikkiqat”, “og‘iroyoqli”, “homilador”, “yukli” kabi evfemistik so‘zlar ishlatiladi. Shuningdek, nutq vaziyatiga qarab “tug‘di” o‘rnida “ko‘zi yoridi”, “ahmoq” o‘rnida “aqli qisqa”, “kar” o‘rnida “qulog‘i og‘ir”, “o‘g‘ri” o‘rnida “qo‘li egri” kabi birikmalar qo‘llanadi. Xullas, evfemizlarni aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z, ibora o‘rnida silliqroq, pardali so‘zlarni ishlatish ehtiyoji bilan yasalgan ijobiy ma‘noli so‘z va iboralar yig‘indisi tashkil qiladi [Шомақсудов ва б. 1983: 66-67].

Tilning yoki nutqning estetik fazilatlari, ayniqsa, ko‘proq badiiy adabiyotda ko‘zga tashlanadi. Chunki bunda estetik vazifa ham mazmun uchun, ham shakl uchun yetakchidir.

Ko‘rinadiki, nutq madaniyati fani ham lingvistik, ham nolingvistik fanlar bilan o‘zaro aloqaga kirib, o‘zining turli-tuman jihatlarini nutq uslublarida namoyon etadi.

### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Nutq madaniyatining ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning ko‘pgina fanlari bilan uzviy aloqadorligi.
2. Nutq madaniyatining lingvistik (stilistika, grammatika) fanlari bilan aloqasi deganda nimani tushunasiz?
3. Nutq madaniyatining nolingvistik ( mantiq, psixologiya, falsafa, estetika) fanlar bilan aloqasini aniq misollarda sharhlab bering.

### **NUTQ VOSITALARI. OVOZDAN FOYDALANISH VA NUTQ TEXNIKASI**

**Nutq vositalari.** Ifodali o‘qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a‘zolari faol ishtirok etadi. Ifodali o‘qish kishi nutq faoliyatining maxsus e‘tibor beriladigan jabhasi bo‘lganligi uchun u kundalik maishiy nutqdan sezilarli farq qiladi. Shunga ko‘ra, ifodali o‘qishda nutq a‘zolarining ishtiroki ham kundalik maishiy nutq jarayonidagiga qaraganda anchagina faol bo‘ladi.

Bu yerda nutq vositalari haqida umumiy tushunchalarni tavsiya etish bilangina cheklanamiz.

**1. Nafas.** Ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri nafasdir. U kishi organizmining turli a'zolari uchun ham asosiy ozuqa hisoblanadi. Shu bilan birga, nutq so'zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o'qish san'ati nafas bilan uzviy aloqadordir.

Nafas olganda havo burun bo'shlig'idan kekirdakka boradi va (bronx) nafas yo'li orqali o'pkaga o'tadi. O'pkaga kirgan havo qovurg'a muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg'alar qorin bo'shlig'idan birmuncha uzoqlashib ikki yonga kengayadi, ya'ni ko'krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bilan bir vaqtda qorin bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratuvchi diafragma o'pkaning havoga to'lib kengayishi hisobiga pastga bosiladi. Nafasning bu xususiyatlari, ayniqsa ongli ravishda mashq qilayotgan paytda yaqqol sezilib turadi.

To'g'ri, nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto'g'ri nafas olinsa – o'rinsiz to'xtam (pauza)lar qilinsa, o'qilayotgan matn mantiqan buziladi. Natijada matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to'g'ri yetib bormaydi, fikr tushunarsiz bo'lib qoladi.

Shuning uchun oliy va o'rta maktablarning o'qituvchilari o'zlarining va o'quvchi (talaba)larning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. Bu borada amalga oshiriladigan chora va tadbirlar insonni sog'lom va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdor bo'lishini ta'minlaydi.

**2. Ovoz va uning hosil bo'lish manbalari.** To'g'ri nafas olish hayot uchun naqadar zarur bo'lsa, ovoz ham kishilarning bir-birlari bilan bo'ladigan muomalasida shunchalik katta ahamiyatga egadir.

Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko'zlariga, biror narsani olish uchun qo'llarga, oldinga qadam tashlash uchun oyoqlarga buyruq (signal) bergani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglatish yoki xirillatish, past yoki baland gapirish uchun muayyan ravishda a'zolarga signal



berib turadi. Ana shunday buyruqlarni bajarishda ovozning muhim a'zolari bo'lgan halqasimon, piramidasimon va qalqonsimon tog'aylar hamda ovoz paychalari asosiy rol o'ynaydi.

Xiqildoqning ichki devori ovoz yorug'ini hosil qiladi. Ularning cheti esa ovoz boylamlari asosan elastik to'qima (pay)lardan tuzilgan. Ular oldingi tomonda qalqonsimon tog'ay bilan birlashib turadi, orqada esa bir-birlaridan uzoqlashadi. Ana shu uzoqlashgan paytda ular orasida burchak hosil bo'ladi, buni ovoz yorug'i deyiladi. Ovoz yorug'i uchburchak shaklidir.

Tog'aylarni bir-biriga yaqinlashtirib va uzoqlashtirib haratga keltirib turuvchi kuch qalqonsimon va halqasimon bir juft muskuldir. Boylamlar tortilishi, qisqarishi yoki tebranishi mumkin. Ular tinch turganda esa deyarli harakatsiz bo'ladi, ular orasidagi tovush yorug'i kichik bo'lib, nafas olayotganda ovozsiz o'tib turadi.

Dastlabki paydo bo'lgan tovush zaif va deyarli tembrsiz bo'ladi. Ovoz tembr va kuchga ega bo'lishi uchun qo'shimcha sharoitlar talab qiladi. Bunda halqum, burun-halqum va ovoz bo'shlig'i rezonatorlik, ya'ni qaytarg'ichlik vazifasini bajaradi. Ular tovushga ma'lum tus va kuch beradi. Bunday tuslanishning siri ovozning fizik xosassi, ya'ni uning qattiq jismlarga duch kelgach, urilib, qaytib rango-rang rezonans kasb etish tabiati bilan bog'liq. Qayerda qaytarg'ichlar ko'p bo'lsa, o'sha yerda ovoz kuchli, jarangdor va ko'rkam bo'ladi. Demak, ovoz mashqlarida eng avvalo ana shu qonuniyatni nazarda tutish kerak.

**3. Tembr.** Tembr hosil qilishda hiqildoqdan chiqayotgan tovushning yo'nalish darajasi katta ahamiyatga ega. Agar tovush faqat burundan chiqsa, xunuk, yoqimsiz, po'ng'illagan tembr hosil bo'ladi. Tovush faqat qattiq tanglaydan chiqsa, "oq tovush", ya'ni shang'i tovush hosil bo'ladi.

Tovush yumshoq tanglaydan chiqsa, qattiq tanglayga tegib o'tsa, jarangdor, yoqimli tovush hosil bo'ladi.

Tovushning so'nggi xossasi esa uning balandligiga, ovoz boylamlarining kengayishi va tortilish darajasiga hamda ularning tebranish holati (tezligi yoki sekinligiga) bog'liq. Boylamlar

qancha ko'p tarang qilib tortilsa, ovoz shuncha baland va jarangdor, u qancha bo'sh bo'lsa, ovoz shuncha past va do'rillagan bo'ladi.

Demak, tovushning asosiy xossalari, uning kuchi, tembri va baland-pastligi ovoz boylamlarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, eng avval oliy asab tizimi signallariga, qolaversa, tovush apparatiga taalluqlidir. Tovush apparati esa, yuqorida ta'kidlanganidek, oliy asab faoliyatining umumiy qonuniyatiga asosan harakat qiladi. Ayniqsa, bog'chada tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar bolalarning bo'lar-bo'lmasga baqirishlariga hamda birorta badiiy asardan olingan parchani baqirib-chaqirib o'qishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. Agar birorta badiiy parcha noto'g'ri diapazon va balandlikda baqirib, kuchanib o'qilsa, u holda ovoz muskullarining o'ziga xos bo'lmagan holatda ishlashiga sabab bo'ladi.

Ovozni me'yorga keltirish bir-ikki mashq qilish bilan emas, balki ovoz mashqlarini muntazam o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ovoz mashqlariga uzoq muddatli va tizimli ish jarayoni deb qarash kerak [Орипов ва б. 1994: 4-24].

**4. Diksiya.** Diksiya lotincha distio so'zidan olingan bo'lib, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi. Har qanday matnni, jumladan, badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz qanchalik muhim bo'lsa, diksiyaning ham shunchalik o'ziga xos ahamiyati bor. Matn o'qishda uning mazmunini hikoya qilib berishda va, umuman, og'zaki nutqda diksiyaning qonun – qoidalariga rioya qilinsa, nutqning emosional ta'siri yana ham oshadi.

Diksiya orfoepiya bilan ham bog'liqdir. Orfoepiya qoidalari esa adabiy til me'yorlariga bo'ysungan bo'lib, nutqning tabiiy, aniq, ravshan, hammaga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchi, shularni e'tiborga olib, har bir darsda unli va undosh tovushlarning, har bir so'zning, har bir jumlaning lug'aviy, frazeologik ma'nosini tushuntirib, so'ngra shu so'zning talaffuzini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

**5. Fonetik akustika.** Biror jismning boshqa jism ta'sirida tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshinishi tovushning akustik (eshitilish) tomonidir. Jismning tebranishi havoni to'qinlantiradi, natijada tovush hosil bo'ladi. Nutq tovushlari oliy asab tizimi signali tufayli tovush paychalarining tebranishidan nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqindan iboratdir.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar nutq organlari, ularning jami esa nutq apparati deyiladi.

Nutq apparatiga quyidagilar kiradi: ostki va ustki lab tishlar, til, tanglay, kichik til, bo'g'iz usti, burun bo'shlig'i, halqum (tomoq), bo'g'iz (hiqildoq), traxeya (kekirdak, nafas yo'li), bronx va boshqalar.

**6. Urg'u.** Urg'u nutq madaniyatining, jumladan, ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u ta'kidlash, alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qiladi. Urg'u so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, gapda ma'noni to'g'ri va to'la anglashga yordam beradi.

Ilmiy adabiyotlarda urg'uning bir necha turi mavjudligi haqida gap boradi. Biz bu yerda uning faqat ikki turi, ya'ni so'z urg'usi hamda mantiqiy urg'u xususida so'z yuritamiz.

**6.1. So'z urg'usi.** So'z bo'g'inlaridan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz etilishi natijasida so'z urg'usi hosil bo'ladi. So'z urg'usi odatda leksik urg'u deb ham yuritiladi. O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'u ham ko'cha boradi. Masalan: bola, bolalar, bolalarga; ishchi, ishchilar, ishchilarga va boshqalar.

Ammo, bundan o'zbek tilida urg'uning o'rni o'zgarmas ekan, degan xulosa chiqarmaslik kerak. O'zbek tilida shunday so'zlar ham borki, ularning ba'zida urg'u so'z boshida (kelsin, kimdir, barcha, hamma), boshqasida esa so'z o'rtasida (albatta, mardlarcha, afsuski) keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiy talaffuzni me'yorlashtirish va shu asosda, xususan, nutq madaniyatini takomillashtirishda urg'uning ahamiyati kattadir. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z urg'usining vazifasi ancha kengayib bormoqda,

jumladan, urg‘u ma‘noni farqlash xususiyatiga ega: olma (meva, ot), olma (buyruq fe‘l); atlas (mato), atlas (geografik xarita); tugma (kiyim tugmasi, ot), tugma (buyruq mayli) va boshqalar.

**6.2. Mantiqiy urg‘u.** Mantiqiy urg‘u matnda yashiringan bo‘ladi. Badiiy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin mantiqiy urg‘uni aniqlash uchun matnni bir necha marta o‘qib, muallif maqsadini tushunish, so‘ngra mantiqiy urg‘uli so‘zni aniqlash mumkin. Mantiqiy urg‘u gap semantikasi bilan bog‘liq bo‘lib, uni nutqda alohida ta‘kidlangan so‘zlardan qidirish lozim bo‘ladi. Odatda mantiqiy urg‘udan keyin qisqa to‘xtam qilinadi. Mutaxassislarining fikricha, har bir nutq bo‘lagida fikrni oydinlashtirib ko‘rsatadigan so‘z mavjud bo‘ladi. Mantiqiy urg‘u tushgan bu so‘z kuchaytirib talaffuz etiladi. Bu bilan u gapdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Yozuvda mantiqiy urg‘u maxsus belgi bilan ko‘rsatilmaydi. Og‘zaki nutqda esa ushbu urg‘u tushgan so‘z ovozni balandlatish yoki pastlatish kabi vositalar bilan ajratib talaffuz etilgani uchun tinglovchining diqqatini jalb qiladi. Shu ma‘noda mantiqiy urg‘u gapning istalgan so‘ziga tushishi mumkin. Masalan: Bahor quyoshining nurlari ko‘k dengizga sig‘may toshadi. Yettita so‘zdan iborat ushbu gapda har bir so‘zga mantiqiy urg‘u berib o‘qish mumkin [Орипов ва б. 1994: 27-30, 51-53].

**7. To‘xtam** (pauza). Kishi nutq jarayonida ma‘lum darajada qisqacha to‘xtab, nafas oladi va o‘pkasini qayta havoga to‘ldirib, nutqini davom ettiradi. Nutqdagi ana shunday to‘xtash, tinish “to‘xtam” deyiladi. Nutq madaniyati tamoyillaridan kelib chiqib, badiiy asarlarni ifodali o‘qishda to‘xtam muallif fikrining tinglovchiga aniq va to‘liq yetib borishiga katta yordam beradi. Jumladan, to‘xtam she‘riy asarlarda aksariyat holda turoqlarga tushadi va his-hayajon uyg‘otadi. She‘rdagi bayt yoki bandlar asarning bir bo‘lagi sifatida bir-biridan doimo to‘xtam bilan ajratiladi. Masalan:

Ko‘m-ko‘k...

Ko‘m-ko‘k...

Ko‘m-ko‘k...

Mehnat sharaf va shon bo‘lgan

vodiylar ko‘m-ko‘k...

(X.O.)

Ilmiy adabiyotlarda to‘xtamning turlari haqida har xil fikrlar mavjud. Bu yerda biz shulardan uchtasiga to‘xtalib o‘tamiz: grammatik to‘xtam, mantiqiy to‘xtam, psixologik to‘xtam.

**7.1. Grammatik to‘xtam.** Badiiy asarlar ifodali o‘qilganda tinish belgilaridan keyin qisqa to‘xtam qilinadi. Bunday to‘xtam grammatik to‘xtam deb yuritiladi. Masalan: nuqtada qilinadigan to‘xtam:

Ayo do‘stim, bir gapim bor, anglab ol,  
Men gapiray, zehningni qo‘y, quloq sol.  
Jallodlarga yalinmagin, bo‘yningdan,  
Gavharni ne bilsin ushlagan sopol.

(Э Жуманбулбул.)

**7.2. Mantiqiy to‘xtam.** Matnda so‘z guruhlarini bir-biridan ajratib, matn ma‘nosini aniq va to‘la ifodalashga xizmat qiluvchi to‘xtamga mantiqiy (logik) to‘xtam deyiladi. Mantiqiy to‘xtam matnni kesib o‘tgan to‘g‘ri chiziqcha (/) bilan belgilanadi. U faqat mantiq qonuniyatiga bo‘ysunib, lozim bo‘lsa, tinish belgilarini ham inkor etishi mumkin. Shu ma‘noda mantiqiy to‘xtam gapning mazmunini tubdan o‘zgartirib yuborish xususiyatiga ega:

Yaramas / itday o‘lib ketadi.

(Н.В. Гоголь.)

Yaramas itday / o‘lib ketadi.

**7.3. Psixologik to‘xtam.** Muallifning matnda yashiringan kuchli his-hayajonini psixologik to‘xtam orqali ifodalash mumkin. Ushbu vosita nutqqa jonlilik kiritib, asarning ta‘sirchanligini oshiradi va u yozuvda ikki chiziqcha (//) bilan belgilanadi.

“Tavba...

Bu la‘nati, asti nima qiladi?!

Qani endi... bo‘g‘a boshlasam!

Iloji bo‘lsa-yu, la‘natini

Tilka-tilka qilib tashlasam!”//

(Уйғун.)

**8. Intonasiya.** Kishi maqsadini ikkinchi bir kishiga soʻzlar vositasida yetkazib, oʻzaro fikr almashadi, aloqada boʻladi. Fikr-tuygʻular, maqsad-intilishlar, his-hayajonlar boshqalarga ovoz tovlanishi orqali yetib boradi. Ana shu ovoz tovlanishi intonasiya deyiladi.

Badiiy asarda intonasiya yordamida qahramonlarning turli kayfiyati, ichki kechinmalari ifodalanadi [Ормпов ва б. 1994: 53-60].

Intonasiya gaplarning kommunikativ tiplarini va turlarini farqlaydi. Shuningdek, u nutqning stilistik xususiyatlarini farqlash, tilda orfoepik jihatdan toʻgʻri nutqni ajratib koʻrsatuvchi vositalar.

**9. Temp (surʻat) va ritm (marom).** Badiiy adabiyotda temp va ritm asarning gʻoyaviy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning emosional taʻsirchanligini oshiradi. Shundan temp va ritm ifodali oʻqishda, jumladan, har qanday nutqda, umuman, muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq jarayonida gapirish surʻatini oshirish ifodada jonlantirish demakdir [Ормпов ва б. 1994: 61].

Bir meʼyorda soʻzlanayotgan nutq boʻlinsa, oʻz surʻati va maromini yoʻqotib, nutq oʻzining dastlabki tarovatini oʻzgartiradi. U oʻzining dastlabki koʻrkiga qaytishi uchun soʻzlovchi ham oʻzining ilk holatiga, kayfiyatiga qaytishi shart.

Xullas, yuqorida sanalgan nutq vositalari adabiy meʼyordagi nutqning vujudga kelishida muhim oʻrin tutadi, yaʼni sifatli tovush, soʻz, gap va matnning hosil boʻlishi sogʻlom va jozibali nutq organlariga ega boʻlishga, talaffuzda orfoepik qoidalarga rioya qilishga bogʻliq.

#### **Mavzuga oid savol va topshiriqlar**

1. Nutq vositalariga nimalar kiradi?
2. Tembrni tavsiflab bering.
3. Nutq madaniyatida diksiyaning oʻrmini aytib bering.
4. Urgʻu deganda nimani tushunasiz?
5. Toʻxtamning necha xilini bilasiz?
6. Intonasiya, temp va ritmning ahamiyatini soʻzlab bering.

## Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida odob-axloq va til odobi

“Қутадғу билиг” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) didaktik dostoni axloq va odobga doir qimmatli pand-nasihatlarni o‘z ichiga oladi. Asar muallifi til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo‘ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so‘zlar so‘zlaydi, mayxo‘rlik va mutakabbirlikni qoralaydi, kishining yurish-turishi, o‘zini tutishi haqida o‘git beradi. Bular dostonning butun mazmun va mohiyatiga singdirilgan.

Asarning bir necha bobi bevosita axloq va odob masalalariga bag‘ishlangan. Shunday boblardan biri “Тил ардами” (“Til odobi”) deb atalgan bo‘lib, unda shoir o‘qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so‘zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o‘gitlar beradi:

Uquvga, bilimga tilmoch-bu til,  
Kishini ro‘shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.  
Kishini til e‘zozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi,  
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.

Sening o‘zing esonlik tilasang,  
Tiligidan yaroqsiz so‘zingni chiqarma  
Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi,  
Nodonning so‘zi o‘z boshini yeydi.

Ko‘p so‘zda ortiq foyda ko‘rmadim,  
Yana (ko‘p) so‘zlashdan naf topmadim.  
So‘zni ko‘p so‘zlama, bir oz ozroq so‘zla,  
Tuman ming so‘z tuguni (jumbog‘i)ni shu bir so‘zda yech.

Yusuf Xos Hojib badiiy so‘zning qimmatini va ta‘sir kuchini alohida ta‘kidlaydi, o‘z so‘zini ko‘p o‘rinda “shoir tilidan” (donishmandlar tilidan) so‘zlaydi va yaxshi so‘zni har qanday oltin-kumushdan ham ortiqroq biladi:

Mendan senga kumush, oltin qolsa,  
U(lar)ni sen bu so‘zga teng tutmagin.  
Kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi,  
So‘zimni ishga tutsang, (sen uchun) kumush qozonadi.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarida juda ko‘p xalq maqollari va hikmatli so‘zlarini ishlatadi va “turkcha masal”, “turklar so‘zi” deb ularning xalq og‘zaki ijodidan olinganini ochiq-oydin ta’kidlaydi. U maqol va hikmatli so‘zlarni ba’zan aynan va ba’zan she’riy misralarning poetik talabiga qarab o‘zgartirib qo‘llaydi. Shu asosda dostonning g‘oyaviy mazmuni boyitiladi, badiiy qiymati oshadi. Mana bir necha misol:

Til qilichdan ham o‘tkirroqdir,  
Bilimlining so‘zi yerga suvdek kerakdir,  
U yerga oqib kelsa, yerdan ne‘mat unadi.  
Zakovat ko‘rki – so‘zdir, bu tilning ko‘rki – so‘zdir,  
Kishining ko‘rki yuzdir, bu yuzning ko‘rki ko‘zdir.

Bundan tashqari, shoir o‘xshatishlarda, xalq og‘zaki ijodida bo‘lganidek, “ot”, “qo‘y-qo‘zi”, “bo‘ri” va boshqa hayvonlarni hamda turli xil qushlarni tilga oladi. Ularning sifatlarini kishilarga ko‘chiradi, ularga nisbat beradi.

Xullas, “Qutadg‘u bilig” XI asr adabiyotining muhim yodgorligidir. Shoir turkiy tildagi yozma adabiyot hali u qadar boy tajribaga ega bo‘lmagan bir davrda katta jur‘at bilan o‘z ona tilida yirik badiiy asar yaratib, katta muvaffaqiyatga erishdi. Asar aruzning mutaqorib (qisman mutaqoribi musammani solim, asosan mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur) vaznida bitilgan [Маллаев 1976: 128-137].



## AHMAD YUGNAKIYNING “ҲИБАТУЛ-ҲАҚОЙИҚ” ASARIDA AXLOQ-ODOB VA TIL ODOBI XUSUSIDA

“Ҳибатул-ҳақойиқ” (“Ҳақиқатлар аrmуг‘oni”) панднома (didaktik) doston bo‘lib, axloq-odob masalalari undagi ko‘pchilik boblarining asosini tashkil etadi. Shoir til odobi, sahiylik, bahillik, kamtarlik, ezgulik va insonning boshqa sifatlari haqida huddi Yusuf Xos Hojib kabi zamonasining peshqadam murabbiysi sifatida fikr yuritib, kishilarga o‘git beradi.

Rost, sog‘lom va mazmunli so‘zlashni, kerak bo‘lganda, sir saqlay olishni maqtab, laqmalik, yolg‘on so‘zlash va sergaplikni qoralagan shoir tilni tiyish odobning boshi deydi:

Eshitgil, olimlar nima deb ayturlar: adablarning boshi til saqlashdir. Tilingni tiy, toki tishingni sindirmasin, agar tilingni tiymasang, tishing sinadi. Er kishi ehtiyot bilan sog‘lom so‘zlaydi, ko‘p gapirgan laqma til ayovsiz dushmandir. Bekor so‘z so‘zlashdan, tilning bo‘shlig‘i bir kuni boshga yetadi. Tili bo‘sh odam aqlli bo‘larmidi? Bu tilning bo‘shlig‘i kishi boshini yeydi... Agar kishida ikki narsa biriksa: u o‘rinsiz so‘zlar bilan laqmalik qilsa, ikkinchidan, uning so‘zlari yolg‘on bo‘lsa, u kishi uchun muruvvat yo‘llari bekiladi...

Ahmad Yugnakiy kishilarni birovni achchiq va yomon so‘zlar bilan ranjitmaslikka chaqirib, tilning yarasi bitmas yaradir, deydi:

O‘chukturma erni tilin, bil, bu til

Bashaqtursa, butmas, butar o‘q boshi.

Ya‘ni:

Tiling bilan o‘ch hissini qo‘zg‘ama, bil,

o‘q yarasi bitib ketadi-yu, lekin til yarasi bitmaydi.

Shoir dostonda saxiylik va baxillik haqida so‘zlab, himmat va saxiylikni baxillik va ziqnalikka qarama-qarshi qo‘yadi, qisman bo‘lsa-da, badiiy til vositalaridan, xususan, o‘xshatishlardan va xalq maqollari hamda ta‘birlardan foydalanadi:

Axi arni o'tgil o'tar ersa son,  
Baxilga qatig' yo o'qun kizlagil.

Ya'ni:

Maqtamoqchi bo'lsang, saxiylarni  
maqta, baxillarga o'q-yoyni to'g'rila.

Shoir saxiylik ta'rifida aytadi:

Barcha tillarda saxiyning madhiyasi aytiladi, saxiylik kishining butun kirini yuvadi. Saxiy bo'l, senga haqorat so'zi tegmasin, saxiylik haqorat yo'lini to'sadi. Egilmas ko'ngilni saxiy egadi, yetilmas murodga saxiy yetadi.

Shoir badiiy til vositalari, xalq maqollari va ta'birlarini qo'llash orqali asarning badiiyligini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Shunday badiiy til vositalaridan biri o'xshatishdir. Masalan, muallif Dod-sipahsolarni dengizga, o'zini esa yomg'ir tomchisiga o'xshatadi. Biroq bu tomchi shunday tomchiki, u dengizga tushib, sadafdan qimmatli dur yasaydi. Bilimli kishi qimmatbaho oltinga, johil kishi arzimas aqchaga; bilimli ayol er kishiga, bilimsiz er ayolga; bilimli ilikli suyakka, bilimsiz iliksiz suyakka; karamsiz kishi mevasiz daraxtga; dunyo karvonsaroyga; to'g'ri so'z asalga, yolg'on so'z og'izni achituvchi piyozga o'xshatiladi.

"Hibatul-haqoyiq" ham, "Qutadg'u bilig" singari, aruzning mutaqorib bahri (faulun faulun faulun faul)da yaratilgan. Dostonning tili "Qutadg'u bilig"ning tiliga nisbatan keyingi adabiy yodgorliklarning tiliga xiyla yaqinroqdir. Bu hol eski turkiy adabiy tilning turli shevalar hisobiga (qadim-kiyim, kelinki-keyingi, adoq-oyoq, ochun-dunyo, akshi-karvon) va ma'lum darajada fors-tojik va arabcha so'zlarni o'zlashtirish yo'li bilan taraqqiy etib borganligini ko'rsatadi.

Xalq maqollari va ta'birlari dostonning tilini ham, mazmunini ham birmuncha boyitadi. Shu o'rinda shoir shunday deydi:

Ba'zadim kitobni mavoiz, masal,  
Boqig'li, o'qug'li osig' olsu tep.

Ya'ni:

O'qigan va eshitganlar foydalansin deb, kitobimni nasihat va maqollar bilan bezadim.

Xullas, Ahmad Yugnakiy "Хибатул - ҳақойиқ" dostoni bilan qadim turkiy adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi [Маллаев 1976: 143-144, 148-150].

## KAYKOVUSNING "ҚОБУСНОМА"SIDA TIL ODOBI

XI asr Sharq pedagogikasida muhim o'rin tutgan "Qobusnoma" o'zbek xalqi orasida qadim zamonlardan beri ma'lum va mashhur bo'lib, avlod-ajdodlarimiz bu tabarruk kitobdan ma'naviy ozuqa olib kelganlar. Undan odamiylik va insoniylik fazilatlarini o'rganganlar. Ushbu fazilatlar ichida til odobi, notiqlik mahorati masalalari ham muhim o'rin tutadi. Quyida Kaykovusning "Qobusnoma"tida bu borada bildirilgan fikrlaridan namunalar keltiramiz.

"Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdur [Кайковус 1968: 29], nedinkim...hamma mahluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va bu o'n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashida (tashqi qiyofasida) zohirdur, beshi ichida pinhondur. Ul pinhon narsalar: biri-bir narsani yod olmoq, biri-tahavvur (g'azab va shiddat bilan hujum etish), biri-takallum (so'zlash). Ammo ul beshtakim tashida zohirdur: bu zavq, ya'ni eshitmoq, ko'rmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq, ya'ni sezuv. Bular, garchi boshqa jonivorlarda bo'lsa ham, odamda bo'lg'ondek emasdurlar. Bu sababdan odamzod o'zga jonivorga podshoh manzalasidandir.

Shularni bilg'oningdan keyin tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il.

Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatg'il, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamag'ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki

undan hunar isi kelmasa, bunday soʻzni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: “Soʻz bir nashʼadur, undan xumor paydo boʻlur”.

Ammo soʻralmagʻon soʻzni aytmagʻil va behuda soʻzdan parhyez qilgʻil, har bir soʻzni soʻrasalar, rost aytgʻil. Sendan talab qilmasa, kishiga nasihat qilmagʻil, pand bermagʻil, xususan seni tinglamagʻon kishiga hyech soʻz dema, chunki bunday kishilar pandni eshitmagʻaylar.

Koʻp kishilarning orasida bir kishiga pand-nasihat qilmagʻil.

Agar bir kishi kajlikka (qingʻirlik, yolgʻonchilik) odat qilgʻon boʻlsa, uning yoniga bormagʻilki, u hargiz rost soʻzlamas. Nedinkim, bir daraxt egri boʻlsa, to uni chopib yoʻnmaguncha u toʻgʻri boʻlmas.

Muloyim soʻzga baxil boʻlmagʻil, xalq muloyim soʻz eshitmasa, mol va dunyoga magʻrur boʻlur. Qattiq soʻz demagʻil, yaxshi soʻz degʻil, toki yaxshi soʻz eshitgʻaysan” [Кайковус 1968: 38-39; Саримсоқов ва б. 1994: 305-306, 310].

Muallif nutqning taʼsirchan va jozibali boʻlishi uchun, u (nutq) toʻgʻri, ilmiy asosli, uzoq mushohada qilingan, isbotlangan, maʼqul shaklga ega boʻlgan, qisqa, aniq, kishilar ruhiyatini inobatga olgan boʻlishi kerak. Bularga notiq faqat oʻzining kamtarligi, mehnatsevarligi, kishilar qalbiga yoʻl topa olishligi bilan erisha olishligi uqtiriladi.

Xullas, Kaykovus oʻzining mashhur “Qobusnoma”sida insonning boshqa yaxshi fazilatleri singari, til va nutq odobi masalalariga alohida eʼtibor bilan qarab, insonning boshqa barcha muloqotlardan asosiy farqi uning goʻzal xulqi, ushbu xulqning tarkibiy qismi boʻlmish goʻzal soʻzidir, deb taʼrif beradi [Кайковус 1968: 310].

## **ALISHER NAVOIY TIL ODOBI XUSUSIDA**

Oʻzbek tili va adabiyotining asoschisi, millatimiz faxri Alisher Navoiy tengi yoʻq soʻz sanʼatkori boʻlgan. Xususan, til odobi masalasidagi aynan Navoiyga xos fazilatlar uning davrida

ham, hozirda ham barcha fozil kishilarni hayratga soladi. Shu bois uning ijodi mahsullari bo'lmish asarlarini o'zlarining mukammalliligi tufayli abadiylikka daxldordir.

Ma'lumki, bunday sharafta faqat kamdan-kam kishilargina muvassar bo'la oladi. Buyuk bobokalonimiz ham bunday sharafta cho'qqisiga o'zining ijoddagi sobitqadamligi, so'z ilmiga faqat o'ta e'tibor, e'zoz va talabchan munosabati sababligina erisholdi. Navoiy har bir asarining shakli va mazmuni birligi dialektikasini bir soniya ham nazardan qochirmay, tilni "ko'ngil xazinasining qulfi" va so'zni shu "xazinaning kalidi" degan tuyg'uni o'zining butun ijodi davomida o'ziga shior qilib oldi.

Ham o'ziga, ham o'zgalarga o'ta talabchan bo'lgan Hazrat Navoiy o'zining har bir asari til va uslubi ustida olib borgan izlanishlari uning ijod sohasida komil inson bo'lganligidan dalolat beradi.

Faktlarga murojaat qilamiz.

1. Chunonchi, shoir o'zining falsafiy hamda axloqiy-talimiy asari – "Mahbub ul-qulub" da til odobiga katta e'tibor berib, kishilarni qisqa va mazmunli, o'rinli va mantiqli so'zlashga chaqiradi, sergap, laqma va tiliga ortiqcha erk berganlarni qoralaydi [Маллаев 1976: 529].

2. Shoir axloq – odob masalalarini yoritishda maqollarga, hikmatli so'zlarga tez-tez murojaat qiladi. Bular, Nazvoiy fikricha, asarning badiiy ahamiyatini oshiradi, tilini yanada shirali qiladi. Mana shoirning til odobiga bag'ishlangan hikmatlaridan namunalar:

Ko'p degan ko'p yengilur, ko'p yegan ko'p yiqilur.

Ko'p demak so'zga mag'rurliq va ko'p yemak nafsga ma'murlug'.

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

Har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'och u yolg'on.

Ko'ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidini so'z bil.

Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.

Befoyda soʻzni koʻp aytma, foydaliq soʻzni koʻp eshiturdin qaytma.

Chin soʻzni yolgʻonga chulgʻama, chin ayta olur tilni yolgʻonga bulgʻama.

Aytur soʻzni ayt, aytmas soʻzdin qayt [Маллаев 1976: 530].

3. Navoiy sheʼrning gʻoyaviy mazmuniga ham, badiiyligiga ham katta eʼtibor beradi. U sheʼrdagi juzʼiy nuqsonlarni tanqid qiladi. Masalan: “Majolisun - nafois”da Kamol Turbatiy, Mavlono Abdusamad Badaxshiy, Mavlono Ayoziy va boshqalar zikrida aytilgan mulohazalar Navoiyning hassos sanʼatkor ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, Navoiy shoir Otoy ijdodiga yuksak baho beradi.

Lekin uning:

“Ul sanamkim suv yaqosinda paritek oʻlturur,

Gʻoyati nozuklukindin suv bila yutsa boʻlur” degan baytida “oʻlturur” soʻzi bilan “boʻlur” soʻzini qofiya qilgani uchun qofiyasida “aybgʻinasi bor” deb taʼkidlaydi [Маллаев 1976: 543].

Koʻrinadiki, Navoiy nafaqat yosh qalamkashlar, shuningdek, yetuk, taniqli ijodkorlarga nisbatan ham ayovsiz boʻlgan. Bu bilan Navoiy oʻzbek adabiyotining kamol topishi, uning sayqal topishi, turkiy adabiyotga oʻzgacha nazar mavjud davrda fors-tojik adabiyotidan nufuzi past boʻlmasligi haqida qaygʻurdi. Bizningcha, Navoiyning daholigi ham shunda.

## **ABDULLA AVLONIYNING “ТУРКИЙ ГУЛИСТОН ЎХУД АХЛОҚ” ASARIDA ODOB-AXLOQ VA NUTQ ODOBI**

Abdulla Avloniy-mashhur oʻzbek maʼrifatparvari, shoiri, jamoat arbobi.

Xalqini ilmi, yurtini ozod, obod koʻrish M.Behbudiy, Munavvar qori, A.Fitrat, Hamza va Choʻlpon kabi maʼrifatchilarning asosiy maqsadi edi. A.Avloniy ham oʻzining faoliyatini ana shu tomon yoʻnaltirdi. Oʻzining ezgu niyatini amalga oshirish yoʻlida turli janrda ijod qildi. Jumladan, “

Туркий гулистон ёхуд ахлоқ ” asarida axloq tushunchasining tarkibiga kiruvchi bir qator muhim masalalarni tahlil qildi.

A.Avloniy ushbu asar tarkibiga kiruvchi “Тулки ила қарға” masalida Laylak obrazi orqali befarosat, hamma narsaga ko‘r-ko‘rona ishonuvchan kishilarga xos qusurlarni tanqid qilib qo‘ya qolmaydi. O‘quvchi diqqatini yana bir narsaga tortadi. Laylak o‘zining osoyishtaligi uchun farzandini qurbon qilishdan qaytmaydigan shaxs qiyofasida ham ko‘rinadi. Qarg‘a aqlini kiritmasa, Tulkinging do‘q-po‘pisasidan qo‘rqib, ikkinchi bolasidan ham voz kechishi turgan gap edi.

“Тулки ила қарға” masali o‘qishli yozilgan. Masal asrimiz boshlarida yozilganiga qaramay, shoir unda murakkab so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llamaydi. Aksincha, Laylakka nisbatan “bo‘ying uzunu aqling oz” kabi qarshilantirishdan, “befarosat”, “tushunchasiz”, “nodon”, “bevatan, bego‘r” singari sifatlashlardan mohirona foydalanib, obrazlarning yorqinligiga erishgan. Ayniqsa, qarg‘a so‘zining talaffuzini Qarg‘aning Tulki og‘zidan qutilishi vositasiga aylantirilishi kishining zavqini keltiradi.

Masalni o‘qir ekanmiz, Laylak o‘z aqlini ishlatmasligiga achinamiz, farzandiga shafqatsizligidan nafratlanamiz. Qarg‘aning topqirligidan zavqlanamiz yoki Tulkinging qilmishiga yarasha “o‘kinib, xo‘rsinib” pushaymon bo‘lishidan mamnun bo‘lamiz. Aslida, shoirning masal yozishdan maqsadi ham shudir.

Buning yorqin misoli sifatida masaldan parcha keltiramiz:

Tulkiga: -Ey, birodarjonim!

Senga bo‘lsin halol etu qonim

Bu baytni o‘qib, yegil go‘shnim,

Bu vasiyatni senga men qo‘shnim:

“Bevatan, bego‘ru kafan Qarg‘a,  
Laylakka yaxshilik edan Qarg‘a!”

Tulki bu baytni o‘qimoq uchun  
Shavq ila yig‘di tanda bor kuchin.

“Bevatan, bego‘ru kafan Qarg‘a,  
Laylakka yaxshilik edan Qarg‘a!”

Tulki “Qarg‘a” deganda og‘zin ochib,  
O‘q kabi Qarg‘a chiqdi-ketdi qochib.

Shoir har bir hikoyat yoki qissadan ma'lum hissa, ya'ni xulosa chiqaradi. Shu asosda odamlararo xilma-xil munosabatlar jonli va jonsiz narsa-hodisalarga ko'chiriladi. Natijada umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi, insoniylikka zid xususiyatlar qoralanadi [Саримсоқов ва б.. 1994: 106-107].

Tilga, adabiyot, madaniyatga, o'tmish tarixga bo'lgan muhabbat vatan muhabbatining bir tomonidir. "Har bir millatning-deb yozadi A.Avloniy, -dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinam hayoti til va adabiyotdur". Alloma so'zini davom ettirib: "so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bulurlar", -deb ko'rsatadi [Каримов 1987: 314].

## **ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA NUTQ ODOBIGA DOIR FIKRLAR**

Abdulla Qodiriy buyuk san'atkor darajasiga zo'r qobiliyat va g'oyat katta mehnati tufayli erishdi. U yoshlik chog'laridayoq arab, fors, turk, tatar, ozarbayjon tillarini mukammal o'rgandi. Keyinchalik rus-tuzem maktabida ta'lim olish va shaxsiy mutolaa bilan rus tilini ham yaxshi bilib oldi. Ko'pgina tillarning bilimdoni bo'lgan A.Qodiriy Sharq mumtoz adabiyotining buyuk vakillari merosini o'zlashtirish bilan birga rus adabiyoti va u orqali g'arbiy Ovrupo mumtoz adabiyoti namunalari bilan ham chuqur tanishdi. Ulardan bir qator tarjimalar qilqi [Алиев 1997: 61]. Bu uning badiiy ijod mahoratini oshirishga olib keladi.

A.Qodiriy ijodkor ziyoli uchun ko'proq til bilishning ahamiyatini chuqur tushungan va bu haqda shunday deydi: "Hamma til ham qo'shni tillardan "qarz" oladi. Busiz iloji yo'q. Asar faqat o'z tilidagina yozilsa shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo'shni tillarni bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi" (Муштум).

Yozuvchi badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari – til, uslub, rostgo'ylik, obrazlilik, hajviy asarlarning xususiyatlari,



vazifalari to'g'risida qimmatli fikrlar aytgan. Mana uning maqolalaridan ayrim parchalar: "So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak". "So'z – qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin".

Voqyelikni chizish, so'z tanlash, ularni o'rni bilan ishlatish bobida klassiklardan o'rganish haqida shunday deydi: "Hikoyani sersuv qiladigan narsalardan biri ko'rsatish o'rniga so'zlab berishdir... [Алиев 1997: 70]. Haqiqiy san'at soddalikni, tilda ravonlikni talab etadi. "Asli yozuvchining aytmoqchi bo'lgan fikrini hammaga baravar anglata bilishida.... Fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so'z va jumalarga yozuvda aslo o'rin berilmasligi lozim". Bunda Qodiriy yozuvchidan zo'r chidam bilan mehnat qilib, asar va uning tili ustida jiddiy ish olib borishni talab etadi: "Birovga orqa qilib, o'zingizda bo'lgan talantning ruhiga fotiha o'qiy ko'rmangiz. Bir soatda emas, o'n soatda yozish, bir qayta emas, o'n qayta tuzatish kishining yordamiga termulishga qaraganda ham foydalik, ham unumlidir". Yoki: "...Qalam o'qlog'i, matbuot ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmaydi..." [Алиев 1997: 71] kabilar.

A.Qodiriy butun faoliyati davomida adabiy til va so'zlarni tejab – tanlab ishlatish kabi eng muhim muammoga katta e'tibor beradi. Bu sohada muallif Chexovning so'z ishlatishdagi mahorati to'g'risida shunday mulohaza yuritadi: "Chexov so'z to'g'risida kelganda haddan tashqari xasis, ortiqcha so'zlar sarf qilish u yoqda tursin, keraklilardan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi" [Алиев 1997: 77].

Yozuvchi o'zbek adabiy tili boyligidan kishilar harakterini ochishning muhim vositasi sifatida foydalandi. Bu bilan A.Qodiriy asarlari XX asrning 20-yillaridagi turkiy umumxalq tilining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan va shu bilan birga o'zbek adabiy tili rivojlanishiga katta hissa qo'shgan edi.

A.Qodiriy asarlari, ayniqsa, uning romanlari tilida soddalikni, ifoda yorqinligini, voqeyelikning eng nozik nuqtalarigacha ixcham jumalalarda berishga intilishni ko‘ramiz.

Muallif adabiy tilning butun bitmas-tuganmas boyligidan foydalanishda jonli xalq tilining rivojlanish qonunlariga asoslanadi, o‘zbek, rus va butun turkiy, forsiy, Sharq va G‘arb klassik yozuvchilarining til bilishdagi mahoratlaridan umumiy foydalanadi. A.Qodiriy asarlarining bu jihatini iste’dodli yozuvchimiz Oybek ta’kidlab shunday deydi: “O‘tkan kunlar” romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko‘rsatadi. Romanning tili haqiqatan boy, bo‘yoqli, sodda, ifoda kuchi zo‘r, ommaga anglashilarli bir tildir. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida bu asarning roli, shubhasiz, katta” [Oйбек 1960: 26].

Yozuvchining til boyligi – uning qahramonlari hamisha o‘z xatti-harakatlari va intilishlariga xos til bilan so‘zlashlarida ayniqsa ravshan namoyon bo‘ladi. Har birining til iboralarining ijtimoiy tabaqasi-yu, kasbi-korlarigacha bildirib turadi. Yozuvchi har bir tabaqa va kasbdagi odamlarning o‘ziga xos tili, so‘zlash ohanglari, ishlatadigan atamalarini yaxshi biladi va ularga ayni o‘z gaplarini topib beradi. Chunonchi, Otabek, Yusufbek hoji, Anvar, Ra‘no, Mahdumlar tili bilimdon, aql-idrokli, tadbirli kishilarga xos salobatli, ma’naviy boy iboralar bilan to‘la. Hasanali, Safar bo‘zchi, Mulla Obid kabilarning tilida esa biz butunlay boshqa bir xususiyatlarni ko‘ramiz: juda sodda, oqko‘ngil, o‘z xo‘jalariga fidokor, shu bilan birga o‘ta aqlli, farosatli shaxslar ekani barq urib turadi.

“Musulmonqul: -Xudaychi!

- Qulingiz!

- Haligi qushbegi bilan birga kelgan yigitni huzurimizga hozirla!”

Din peshvolarining til iboralarida qadimgi o‘zbek yoki turkiy til xususiyatlari, arab va fors tilidagi ayrim so‘zlarni ko‘proq qo‘llab turish hollari uchraydi.

Yozuvchi bezorilar, chapanilar tilini ham juda yaxshi biladi. Hamid, Mutal, Sodiqlar tili haddan tashqari qo‘pol, dag‘al, nuqul

chirinish, qochiriq, shaloq ibora-yu, soʻzlar bilan toʻlgan. Mana ularning suhbatidan bir parcha:

“- Eng yaxshisi darvozadan kirish.

- Darvozasidan kirib boʻlmasa, tomidan teshib tushamiz.

- Ha, ha, ha, balki, Mutal toʻram!

- Kulishingni bejo qilma, hyez... Sen hali dunyoga kelib nimani koʻrding-ku, senga kulish tushib qoldi. Bu bosh dunyoga kelib nimalarni koʻrmadi-a? Bunaqangi qochiriq ishlarni endi qilib turibdi, deb oʻylaysanmi? Eh, haaa, Mutalakang nimalarni qilmadi? Ha, ha, ha... Musulmonsan, otangni arvoyi, Hamid aka...”

